

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Biznes va tadbirkorlik” kafedrası

MAKROIQTISODIYOT

fanidan ma'ruza matni

**Tuzuvchilar: X.S.Xadjaev,
I.A.Bakiyeva,
Sh.sh. Fayziyev**

TOSHKENT – 2015

I BOB. “MAKROIQTISODIYOT” FANIGA KIRISH

1.1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, uslubi va vazifalari

Resurslar, daromadlar va tayyor mahsulotlar bilan ayirboshlashning barcha jarayonlari uzluksiz, bir tekis kechayotgan bo'lsa, unda iqtisodiy tizim barqaror va muvozanatli deb tushuniladi. Ammo, har qanday iqtisodiy tizimning bunday holati hayoliydir. Amalda u yoki bu resurslarning, tovar hamda daromadning ortiqchaligi yoki etishmasligi doimo uchrab turadi. Iqtisodiyotda umumiy muvozanatning shu kabi buzilish hollari inflyatsiya va ishsizlik darajasining, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'sish sur'atlarini o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Sanab o'tilgan hodisalar va jarayonlar ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha qatnashuvchilari yoki tizimning barcha iqtisodiy agentlarning faoliyatlari natijasida paydo bo'ladi va milliy iqtisodiyotni yaxlit ifodalaydi, ya'ni ular keng qamrovli xususiyatga ega. Shuning uchun ularni makroiqtisodiy jarayonlar va hodisalar deb ataladi, uni o'rganuvchi fan makroiqtisodiyot deb yuritiladi.

Resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanish alohida olingan korxonalar, tarmoqlar, hududlar darajasida ham ro'y beradi. Ularning bu darajadati harakatini boshqa fan - mikroiktisodiyot o'rganadi. Bu fan korxona yoki tarmoqning daromadlarini, u yoki bu mahsulotga bo'lgan talab va taklifning hajmini, uning narxini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rib chiqadi.

Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo'limi hisoblanib, unda milliy xo'jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko'rinishi o'zaro farqlanadi:

- a) pozitiv makroiqtisodiyot;
- b) normativ makroiqtisodiyot.

Pozitiv makroiqtisodiyot real iqtisodiy hodisalarni va ularning aloqadorliklarini o'rganadi.

Normativ makroiqtisodiyot esa qaysi sharoitlar yoki jihatlar maqbul yoki nomaqbul ekanligini belgilaydi, harakatning aniq yo'nalishlarini taklif etadi.

Shu joyda iqtisodiy nazariyaning ikki mustaqil bo'limi sifatida makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlarining predmetlarini o'zaro farqlab olishimiz zarur.

Makroiqtisodiyot yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganadi.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki makroiqtisodiyot predmetida o'zaro bog'liq uch jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

- 1) milliy iqtisodiyot;
- 2) davlat tomonidan iqtisodiy siyosati yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;
- 3) jahon xo'jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o'zaro munosabatlari masalasi.

Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari hisoblanadilar.

Bu sub'ektlar orasida davlatning roli bahsli masala hisoblanib kelmoqda. Keynschilar bozor tizimi mexanizmlarining iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlashga doim ham qodir emas va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur deb hisoblasalar, iqtisodiy nazariyaning klassik maktabi namoyondalari bunday aralashishga qarshi fikrlar bildiradilar.

Bugungi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada katta ekanligini hisobga olsak, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash, bozor mexanizmlariga putur etkazmagan holda iqtisodiyotni tartibga solishi muhim ekanligiga iqror bo'lamiz. Davlat makroiqtisodiyotning boshqa sub'ektlari hatti-harakatini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida, o'z tasarrufida mavjud bo'lgan vositalar orqali ularni yo'naltirib turadi. Bu vositalar esa fiskal (byudjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatdir. Xulosa qilib aytganda

makroiqtisodiyot fani alohida mamlakatda iqtisodiy siyosatning va jahon xo'jalik aloqalarini tashkil etishning nazariy asosi hisoblanadi.

Zamonaviy makroiqtisodiyotning asosiy belgisi va afzalligi - bu jamiyatdagi jarayonlarda mavjud resurslarni cheklanganlarini qayd etib, ularni tejab ishlatish, farovonlikni oshirish yo'llarini asoslab berish hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot fani – turli moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa tur boyliklarni bir mamlakatdagi barcha resurslar doiraviy aylanishini, ularni samarali ishlatilishini, iqtisodiy o'sish barqarorligini, ya'ni milliy iqtisodiyotni rivojlanishini umumiy holda o'rganadi.

Makroiqtisodiyot fanining ahamiyati nafaqat davlat boshqaruvida umumiy iqtisodiy siyosatni olib borishi va yo'nalishlarini ishlab chiqish uchungina, balki alohida tadbirkorlar, korxonalar, uy xo'jaliklari, oddiy fuqarolar faoliyatida ham zarur.

1.2.Ehtiyojlar va resurslar. Iqtisodning asosiy masalalari

Inson juda turli-tuman ehtiyojlarga: oziq-ovqat, kiyim, boshpana, ta'lim, mehnat, ko'ngil ochish, muloqot va ko'plab boshqa ehtiyojlarga ega. Barcha sanalgan ehtiyojlar cheksiz turli-tuman shakllar, sifatlar, belgilar, xususiyatlarga ega. Bunda har bir inson yakka holda qanday ehtiyojlar u uchun eng muhim, ustivor hisoblanishini aniqlaydi, ya'ni u birinchi navbatda qanday ehtiyojlarni qondirishni zarur deb hisoblaydi.

Inson o'z ehtiyojlarini o'ziga qulay iqtisodiy ne'matlar yordamida qondiradi. Ularga oziq-ovqatlar, kiyim, kitoblar, avtomobillar, san'at buyumlari va boshqa shu kabilar kiradi.

Inson ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy ne'matlarning bir qismi inson ishtirokisiz tabiat tomonidan yaratiladi, bir qismi-ishlab chiqarish natijasi hisoblanadi.

Iqtisodiy ne'matlar ishlab chiqarish uchun insonga resurslar zarur.

Ishlab chiqarish resurslari – bu tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan resurslardir.

Ishlab chiqarish resurslarini ishlab chiqarish omillari deb atash qabul qilingan va ularni uchga ajratiladi:

- ✓ yer;
- ✓ mehnat;
- ✓ kapital.

«**Yer**» (tabiiy resurslar) – bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan tabiat tomonidan berilgan resurslardir. Tabiiy resurslarga misol bo'lib suv resurslari, tuproq, o'simliklar, foydali qazilmalar hisoblanadi.

Mehnat (inson resurslari) – kishilarning ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan jismoniy va aqliy qobiliyatlari, sog'lig'ining ahvoli, ta'limi va kasbiy ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Kapital (kapital resurslari) – bu inson tomonidan yaratilgan va tovar hamda xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan buyumlardir. Kapital resurslariga misol bo'lib binolar va inshootlar, asboblari va uskunalari, aloqa vositalari, transport, shuningdek qayta ishlangan hom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi.

Ba'zan ishlab chiqarish omillarining to'rtinchi ko'rinishi – tadbirkorlik ajratiladi, chunki u kishilarda tadbirkorlik qobiliyati deb ataluvchi noyob xususiyatlarning mavjudligini ko'zda tutadi.

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun ishlab chiqarish resurslarining barcha turlariga: «yer», mehnat, kapitalga ega bo'lishi zarur. Biroq, inson ularning cheklanganlik muammosiga duch keladi. Bu cheklanganlik masalan, foydali qazilmalar zahiralarining cheklanganligi kabi tabiiy ravishda mavjud bo'lsa, shuningdek sub'ektiv ravishda, ya'ni inson psixologiyasi tomonidan tug'ilishi mumkin, chunki uning ehtiyojlari cheksizdir.

Ishlab chiqarish resurslarini cheklanganligi inson, oila, jamiyat oldiga tanlov muammosini qo'yadi:

- NIMA va qanday miqdorda ishlab chiqarish?
- QANDAY texnika va texnologiyani qo'llash?

- KIM tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot iste'mol qilinadi?

Aynan shuning uchun iqtisod fanining e'tibor markazida- ishlab chiqarish uchun zarur resurslarning cheklanganlik muammolarini va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash yo'llarini o'rganish turadi.

Kishilarning cheksiz ehtiyojlarida resurslarning cheklanganlik muammosini har qanday hal etilishi tanlash holatini, ya'ni insonlarning turli ehtiyojlarini qondiruvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun bir resursni ishlatish mumkin emasligini ko'zda tutadi. Bunda inson har doim ham «barchasi yoki hech nima» xilidagi qarorni qabul qilmaydi. Ko'pincha inson bir iqtisodiy ne'matning ma'lum miqdorini olish uchun boshqasining ma'lum miqdoridan voz kechadi. Bunday tanlov murosali deb ataladi. Murosali tanlov asosida muqobil qiymat tamoyili yotadi.

Muqobil qiymat – bu voz kechilgan boshqa iqtisodiy ne'mat qimmatini bilan o'lchanadigan iqtisodiy ne'mat qimmatidir.

Shuni esda saqlash lozimki, inson ehtiyojlarining birini qondiruvchi iqtisodiy ne'matlarni tanlash, boshqa ehtiyojni qondiruvchi iqtisodiy ne'matlardan voz kechishga olib keladi. Masalan, sizda mavjud bo'lgan 3 metr mato bo'lagidan yo ko'ylak yoki kostyum tikish mumkin. Matoning cheklangan miqdori ham ko'ylak, ham kostyum tikishga imkon bermaydi. Bu vaziyatda tanlash kerak bo'ladi. Bu tanlov yo ko'ylakdan yoki kostyumdan voz kechishni ko'zda tutadi. Ko'ylakni tanlash qarori kostyumga ega bo'lishdan voz kechishni bildiradi, ya'ni yangi ko'ylakning qimmatini kostyumga ega bo'lib, olish mumkin bo'lgan foyda va quvonchlarga teng. Unda ko'ylakning muqobil qiymati borligi aytiladi-kostyum. Agar kostyum tanlansa-uning muqobil qiymati ko'ylak bo'lardi.

Iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini o'rganib, iqtisod fani oqilona ishlatish tamoyiliga asoslanadi.

Oqilona ishlatish tamoyili bu inson oqilona faoliyatga intilishi, ya'ni eng kam resurslarni sarflab, o'zining eng ko'p ehtiyojlarini qondirishi haqidagi fikrdir.

Bu ko'plab variantlar ichidan inson cheklangan resurslardan yaxshiroq foydalanishga intilib, eng yaxshisini tanlashini bildiradi.

Agar resurslar mutloq cheklangan bo'lganida, tanlov mumkin bo'lmasdi. Agar cheklanganlik bo'lmaganida, unda tanlov kerak bo'lmasdi. Tanlash muammosi cheksiz, chunki biz bitta qaror bilan cheklanmasdan, ularning ko'piga egamiz. Nimalar o'rtasida tanlov boradi? Resurslardan foydalanishning eng yaxshi variantlari o'rtasida. Resurslardan foydalanishning eng yaxshi varianti kam xarajatlarda eng yuqori natijani ta'minlovchi variant bo'ladi.

1.3. “Resurslar – tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli

Bozor tizimida noyob ne'matlar muammosi quyidagi ikkita tamoyillar asosida echiladi:

- optimallashtirish tamoyili - har bir faoliyatdan va resurslardan foydalanishdan maksimal foyda olish;
- alternativ xarajatlar tamoyili - noyob resurslardan foydalanish yo'nalishlarining barchasidan olinadigan foyda va xarajatlarni solishtirish orqali.

Iqtisodiy sub'ektlar ratsional harakat qilish tamoyiliga ko'ra o'z maqsadlariga erishishi uchun xo'jalik faoliyatida faol qatnashadilar, buning asosiy mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy sub'ektlar berilgan resurslardan foydalanishdan olinadigan natijalarni maksimallashtiradi yoki ma'lum natijalarni olish uchun xarajatlarni kamaytiradi.

Jamiyatda vujudga keladigan yana bir muammo - bu iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishdir:


- 1) ishlab chiqaruvchilar faoliyatini (kim qaysi mahsulotdan qancha ishlab chiqaradi) muvofiqlashtirish;
- 2) iste'molchilar faoliyatini (kim, qaysi mahsulotdan, qancha iste'mol qiladi) muvofiqlashtirish;
- 3) ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni muvofiqlashtirish.

Modeldan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, u muammoning ikkinchi darajali tomonlarini e'tiborga olmaydi. Modelda ikki turdagi o'zgaruvchilar ishlatiladi: ekzogen va endogen. Ekzogen o'zgaruvchilar tashqi o'zgaruvchilar bo'lib, ular oldindan beriladi va modelga kiritiladi. Endogen o'zgaruvchilar model ichida, hisob-kitoblar asosida shakllanadi. Tovarlar aylanmasida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital va erni) firmalarga sotib daromad oladilar va bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga ishlatadilar. Firmalar o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslarni sotib olishga ishlatadilar.

Quyida keltirilgan 1-chizmadan ko'rinib turibdiki, xaqiqatdan ham nima iste'mol qilish kerak, demak, nima ishlab chiqarish kerak, degan masalani uy xo'jaliklari hal qiladi. Uy xo'jaliklarining bunday qarori, firmalarning ishlab chiqarish rejalarini tuzish uchun asos bo'lishi kerak. Firmalar, o'z navbatida, noyob resurslardan foydalanish qarorlarini bir-biri bilan muvofiqlashtirishi lozim. Nihoyat, uy xo'jaliklari iste'mol qilish uchun rejalashtirgan ne'matlarni olishlari kerak, ya'ni ular iste'mol qilish bo'yicha qarorlarini bir-biri bilan moslashtirishi kerak bo'ladi.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini ikkita bozor hal qiladi: ishlab chiqarish resurslari bozori va iste'mol ne'matlari bozori.

Talab va taklif modeli tadbirkorlar sektori bilan uy xo'jaliklari sektori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Agar bu ikki sektor tovarlar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsa, talab va taklif modeli tovar narxini va sotiladigan tovar hajmini aniqlaydi. Agar ular resurslar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsalar model sotiladigan resurslar narxini va miqdorini aniqlaydi.



1-chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti “resurslar - mahsulotlar” va “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy aylanishi modeli.

Har bir bozor o'zining ikkita qaror qabul qiluvchi sub'ektiga ega: sotuvchilar va xaridorlar. Bozorda qabul qilinadigan qarorlarning muvofiqligi har bir ne'matning muvozanat narxi va muvozanat miqdori bilan ta'minlanadi. Narx talab va taklif munosabatlari natijasi sifatida, uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun muhim axborot bo'lib hisoblanadi. Bunday axborot bir vaqtning o'zida jamiyatdagi noyob ne'matlarni taqsimlash muammosini echish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, non narxining oshishi - xaridorlar uchun nonni iste'mol qilishni cheklash to'g'risida signal bo'lsa, firmalar uchun nonni ishlab chiqarishni oshirish va non bozoridagi muvozanatni tiklash to'g'risida muhim axborot bo'lib xizmat qiladi.

Narxlar noyob resurslarni ratsional taqsimlashni ta'minlaydi, ne'matlarni ratsional iste'mol qilishga, xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Narx er, kapital va

resurslar egalarining daromadini aniqlaydi. Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalasini bozor hal qiladi. Muvofiqlashtirish masalasi bilan bog'liq xarajatlarga transaktsion xarajatlar deyiladi.


Bozor muvofiqlashtirishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar qarorlarini vaqt bo'yicha tartiblashtiradi. Bu kelajakdagi ne'matlar (fyuchers) bozorining vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Kelajakdagi ne'matlarning oldi-sotdisi, ularning narxlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga, ularning kelajakda nisbatan noyobligi to'g'risida axborot beradi. Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday narx axborotlariga ko'ra, o'zlarining joriy xo'jalik rejalarini qayta ko'rib chiqadilar va o'zlarining iqtisodiy harakatlarini tartibga soladilar.

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning doiraviy oqimi modeli ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya'ni davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida amalga oshiriladi (1-chizma).

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga etkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so'ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga etkazib beradilar. Ayni paytda "resurslar - tovarlar va xizmatlar" oqimiga qarama qarshi yo'nalishda "daromadlar - xarajatlar"ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya'ni, uy xo'jaliklari o'zlari etkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko'rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro teng bo'lishi firmalarning

yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo'jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko'tarilib ketishiga sabab bo'ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo'lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko'rinish oladi.



2-chizma. “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli

Bunda:

- | | |
|---|-------------------------------|
| 1-Yer, mehnat, kapital. | 9-Iste'mol xarajatlari. |
| 2-Resurslar. | 10-Sotishdan tushgan daromad. |
| 3-Tovar va xizmatlar. | 11-Resurs xarajatlari. |
| 4-Tovar va xizmatlar. | 12-Soliqlar. |
| 5-Resurslar. | 13-Soliqlar. |
| 6-Tovar va xizmatlar | 14-Xarajatlar. |
| 7-Transfertlar. | 15-Xarajatlar. |
| 8-Pul daromadlar (ish haqi, renta, foiz, foyda) | 16-Subsidiyalari. |

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va

iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdolari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy sub'ekt- tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarinig kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqrор bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir Yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi . Bu esa o'z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa byudjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish hamda

pul-kredit siyosati vositalari yordamida mul massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

Tayanch so'z va iboralar: Makroiqtisodiyot, resurslar, tovarlar, xizmatlar, daromadlar, xarajatlar, transfertlar, soliqlar, resurslar bozori, iste'mol bozori, makroiqtisodiy model, endogen o'zgaruvchilar, ekzogen o'zgaruvchilar, uy xo'jaligi, firmalar.

Nazorat savollari

1. Makroiqtisodiyot fani nimani o'rganadi?
2. Ishlab chiqarish resurslari deganda nimani tushunasiz va ularga nimalar kiradi?
3. Muqobil qiymat nimani anglatadi?
4. Makroiqtisodiyot fani qanday tamoyilga asoslanadi?
5. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy modellardan foydalanishning afzalligi nimada?
6. Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini qanday bozorlar hal qiladi?

II BOB. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH

2.1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini oladi. Milliy iqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YaIMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Muayyan mamlakat iqtisodiy holatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deb yuritiladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar miqdor va sifat ko'rsatkichlariga guruhlanadi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlari muayyan mamlakatlar iqtisodiyotini ifodalasa, sifat ko'rsatkichlari mazkur mamlakatlar iqtisodiyotini nisbiy jihatdan aks ettiradi. Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi : Yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (ShD), ixtiyordagi daromad (ID) va boshqalar. Makroiqtisodiy sifat ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi : inflyatsiyaning o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi,

aholining ish bilan bandlik darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha qatnashuvchilarning (korxona, tarmoq, mintaq, davlat) faoliyatlari natijasida aniqlanadi. Ular mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini, uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini narxlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy ishlab chiqarishning kengaytirilgan tushunchasiga amal qilinadi. Shu ma'noda, ijtimoiy ishlab chiqarish - iqtisodiyotning daromad yaratuvchi barcha soxalarining ishlab chiqarishidir. Bu erda moddiy ishlab chiqarish soxalaridan tashqari, pulli xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlar (moliya, sug'urta, sog'liqni saqlash, maorif va boshqalar) xam ijtimoiy ishlab chiqarishga kiradi. Shu sababli, Bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda yaratilgan ijtimoiy mahsulot tarkibiga tovarlar xam, xizmatlar xam, milliy daromadda esa, tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar xisobga olinadi, ijtimoiy ishlab chiqarishdan chetda fakat bepul xizmatlar ko'rsatish jarayonlari qoladi. Chunki bepul xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda daromad yaratilmaydi va xar qanday mamlakatda bu tarmoqlar davlat xisobiga faoliyat ko'rsatadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasidagi farq natijasida, mamlakatlar o'zining mazmuniga ko'ra ajratib turuvchi ko'rsatkichlardan foydalanadi, ularni xisoblashning turli uslublari ko'llaniladi.

Makroiqtisodiy miqdor ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni milliy hisoblar tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin;

1) Barcha tarmoqlarning yalpi ishlab chiqarishi – oraliq iste'mol = Yalpi ichki mahsulot.

2) Yalpi ichki mahsulot - amortizatsiya = sof ichki mahsulot.

3) Sof ichki mahsulot – biznesga egri soliqlar = milliy daromad

4) Milliy daromad – ijtimoiy sug'urtaga badallar – korporatsiya foydasiga soliqlar – korporatsiyani taqsimlanmagan foydasi + transfert to'lovlari = shaxsiy daromad.

5) Shaxsiy daromad – yakka tartibdagi soliqlar = Ixtiyordagi daromad.

2.2.Makroiqtisodiyotda foydalaniladigan miqdor ko'rsatkichlari

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bu - yalpi ichki mahsulotdir. Yalpi ichki mahsulot – bu muayyan davr mobaynida (bir yil) kim tomonidan yaratilishidan qat'iy nazar mamlakat hududida yaratilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning bozor qiymatidir.

YaIM - bu biror-bir mamlakat xududida joylashgan korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy yiuindisidan iboratdir.

Yalpi ichki mahsulot 3 xil usul asosida aniqlanadi ;

1) **Ishlab chiqarish usuli** – bunda yalpi ichki mahsulot barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

$$\text{Yalpi ichki mahsulot} = \sum QQ$$

2) **Xarajatlar usuli** – bunda yakuniy iste'molchilarning xarajatlari yig'indisi sifatida aniqlanadi.

$$\text{Yalpi ichki mahsulot} = S + I + G + X_n$$

Bu erda S – shaxsiy iste'mol xarajatlari; I– investitsiya xarajatlari ya'ni xususiy ichki investitsiyalar ; G – davlat xarajatlari ya'ni tovar va xizmatlarnin davlat xaridi ; X_n – chet elliklarning xarajatlari, ya'ni sof eksport;

3) **Daromadlar usuli** – bunda yalpi ichki mahsulot barcha yakuniy iste'molchilarning daromadlari yig'indisi sifatida aniqlanadi. Shu bilan birga yalpi ichki mahsulot tarkibiga biznesga egri soliqlar va amortizatsiya ham kiritiladi.

$\text{YaIM} = \text{amortizatsiya} + \text{biznesga egri soliqlar} + \text{ijara haqi} + \text{foiz ko'rinishidagi daromadlar} + \text{yollanma ishchilarning ish haqi} + \text{yakka tartibdagi qo'yilmalardan daromadlar} + \text{korporatsiya foydasiga soliqlar} + \text{dividentlar} + \text{korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi}.$

2013 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish hajmi 119,0 trln. so'mni tashkil etdi.

1- jadval

2013 yilda O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar¹

Ko'rsatkichlar	Mlrd.co'm
Yalpi ichki mahsulot	118986,9
Sanoat mahsuloti	61105,8
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	30849,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar	27557,3
AQSh dollari ekvivalentida (mln)	13152,3
Qurilish	15080,8
Yuk tashish, mln. Tonna	1387,3
Yo'lovchilar tashish, mln. kishi	6988,0
Chakana tovar aylanmasi	47463,7
Eksport, mln. AQSh doll.	15087,2
Import, mln. AQSh doll.	13798,8
Saldo, mln. AQSh doll.	1288,4

Milliy daromad – bu, milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir.

Yalpi milliy daromad quyidagicha hisoblanadi ;

$YaMD = YaIM + \text{horijdan olingan omilli daromadlar} - \text{horijliklarning ushbu mamlakat hududidan olgan omilli daromadlari.}$

Shaxsiy daromad va milliy daromadning bir-biridan shunisi bilan farq qiladiki, ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'urtalar to'lovlari, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda bevosita uy xo'jaligiga tushmaydi. Uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi, masalan, (transfert to'lovlari) - mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари

to'lovlariga - sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni qarilikda va baxtsiz xodisalarga shuningdek ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, nogironlarga to'lanadigan har xil to'lovlar, ishsizlarga va pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan foiz to'lovlari va boshqa to'lovlar kiradi.

Shaxsiy ixtiyordagi daromad deb individual soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlarga aytiladi. Individual soliqlar - daromad solig'i, xususiy mulk-mulklarga va meros qolgan mulklarga solinidagan soliqlardan iborat.

2.3. Milliy ishlab chiqarish ko'lamini belgilashda narxlarning ahamiyati

Ishlab chiqarishning hajmini ifodalash uchun ham natural, ham qiymat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Ammo milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmini natural birliklarda amalda o'lchash mumkin emas, chunki bu erda bir – biri bilan solishtirib bo'lmaydigan millionlab nomdagi tovar va xizmatlar ustida gap boradi.

Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmini va tarkibini ifodalashda qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar ikki miqdor yordamida aniqlanadi:

- ishlab chiqarishning natural shaklidagi hajmi;
- narxlar darajasi.

Amaliyotda milliy hisobchilik tizimida narxlarning ikki ko'rinishi qo'llaniladi:

- joriy yoki haqiqiy narxlar;
- o'zgarmas yoki solishtirma bazis narxlar.

Shu yildagi joriy yoki amaldagi narxlar yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish va uning iste'moli o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qo'llaniladi hamda takror ishlab chiqarishning moliyaviy qiymat jihatlarini aks ettiradi. Lekin joriy narxlardan ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida tahlil qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiq emas. Chunki ularni xar qanday oshishi yoki pasayishi yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning hajmiga bevosita ta'sir etib, iqtisodiyotning haqiqiy ahvolini buzib ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotning

rivojlanishiga haqqoniy baho berish uchun o'zgarmas narxlardan foydalaniladi. O'zgarmas yoki solishtirma narxlar asos qilib olingan biror – bir yildagi mahsulotning narxi bo'lib, tahlil qilinayotgan davr uchun ishlab chiqarish hajmini qiymat jihatdan baholashda foydalaniladi. Bu narxlar mahsulotning natural hajmini o'zgarishini ilg'ash imkonini beradi va ishlab chiqarishni ma'lum bir vaqt davomida haqiqiy o'zgarishini aks ettiradi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining joriy va solishtirma narxlardagi ifodasi tubdan farqlanadi.

Bazis yilni xar bir mamlakat rivojlanish xususiyatidan kelib chiqqan holda o'zi belgilaydi. Bazis narxlardan foydalanib ham o'tgan yillar, ham kelgusi yillarning qiymat ko'rsatkichlari qayta hisoblab chiqiladi.

Joriy narxlarda o'lchangan ishlab chiqarish hajmini nominal, solishtirma narxlarda o'lchanganini real deb ataladi.

Narxlarning o'sishi bilan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishini ko'rsatuvchi miqdorni barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy narx indeksi yoki deflyator deb ataladi. Yalpi ichki mahsulot tarkibiga millionlab nomdagi yaratilgan ne'matlar kiradi va ularni xar birining narxini o'zgarib turishini jismonan kuzatish mumkin emas. Shuning uchun ham deflyator bozor savati yordamida aniqlanadi. Bozor savati yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiruvchi, uning asosiy qismini tashkil etuvchi muhim tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Statistika idoralari tomonidan bozor savatiga kiritilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi doimo kuzatilib turiladi va shu asosda narxlarning umumiy indeksi yoki deflyator hisoblanadi.

$$\text{Joriy yil deflyatori} = \frac{\text{Joriy yildagi bozor savatining bahosi}}{\text{shu yilning narxlarida}} \div \frac{\text{Joriy yildagi bozor savatining bahosi}}{\text{bazis yili narxlarida}} \times 100$$

Agarda o'tgan davr ichida yalpi ichki mahsulotning natural hajmi o'zgarmasdan qolgan bo'lsa, uning nominal qiymati shuncha oshadi. Narxlar

darajasi pasayayotgan bo'lsa, unda narxlar indeksi yoki deflyator 100 foizdan kam darajagacha tushib ketadi. YaIM narxlari indeksining joriy yilda bazis yilga qaraganda ko'tarilib borishi inflyatsiyani va aksincha, uni kamayib borishi deflyatsiyani bildiradi. Milliy ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga narxlarning ta'sirini bartaraf etish maqsadida deflyator yordamida real yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

Nominal YaIM

Real YaIM = ----- x 100 %

Deflyator

Iqtisodiy amaliyotda deflyator bilan bir qatorda inflyatsiya darajasini yana bir ko'rsatkichi – iste'mol narxlari indeksi (INI) yoki hayot kechirish qiymati indeksi keng qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ham deflyator kabi bozor savati yordamida aniqlanadi. Ammo, bu erda bozor savatiga faqat aholining iste'mol byudjeti asosini tashkil etuvchi iste'mol mollari va xizmatlar kiritiladi, holbuki, deflyatorni hisoblanayotganda bozor savatining sezilarli qismini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tovarlar tashkil etadi. Iste'mol narxlari indeksi joriy yilda bazis yilga qaraganda qayd etilgan iste'mol bumlari va xizmatlar turkumining qiymatini qanday o'zgarayotganini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, bu indeks yordamida xar bir kishining, oilaning va barcha aholining hayot kechirish qiymati yoki turmush darajasi qanday o'zgarayotganini aniqlash mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, sof ichki mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, ixtiyordagi daromad, yakka tartibdagi soliqlar, daromadlar usuli, xarajatlar usuli, qo'shilgan qiymat, joriy narxlar, bazis narxlar, nominal ko'rsatkichlar, real ko'rsatkichlar, deflyator, iste'mol narxlari indeksi.

Nazorat savollari

1. Qanday ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar deb yuritiladi?
2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qanday guruhlariga ajratiladi?
3. Yalpi ichki mahsulot deb qanday mahsulotga aytiladi?

4. Milliy hisoblar tizimida qanday makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?
5. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashning qanday usullari mavjud?
6. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash boshqa usullardan nimasi bilan farqlanadi?
7. Yalpi milliy daromad qanday aniqlanadi?
8. Makroiqtisodiyotda yakuniy iste'molchilar sifatida kimlar qatnashadi?
9. Sof ichki mahsulot va milliy daromad o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
10. Shaxsiy daromad va shaxsiy ihtiyordagi daromad ko'rsatkichlari nimasi bilan farq qiladi?
11. Iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni nima uchun natura holida o'lchab bo'lmaydi?
12. Nominal va real ko'rsatkichlar o'rtasida qanday farq mavjud?
13. Deflyator nima va u qanday aniqlanadi?
14. Iste'mol narxlari indeksi deganda qanday indekslar nazarda tutiladi?
15. Deflyator va iste'mol narxlari indeksi o'rtasida farq bormi?
16. Iste'mol narxlari indeksi yordamida qanday o'zgarishni aniqlash mumkin?

Mavzuga oid masalalar

1. YaIM tarkibidagi qo'shilgan qiymatni aniqlang:

Ishlab chiqarish bosqichlari	Mahsulotning bozor narxi	Qo'shilgan qiymat
Paxta ishlab chiqarish	250	
Ip ishlab chiqarish	330	
Gazlama to'qish	380	
Ko'ylak tikish	480	
Tayyor ko'ylakning chakana narxi	590	
Sotuvning umumiy qiymati	2030	
Qo'shilgan qiymat		

* * *

2. Mamlakat iqtisodiyotining quyidagi ko'rsatkichlari asosida SIM (sof ichki mahsulot), Xn (sof eksport), ID (ixtiyoriy daromad) va S (jamg'arma)ni aniqlang:

YaIM - 1700; yalpi investitsiyalar hajmi - 480; sof investitsiyalar hajmi - 300; uy xo'jaliklari iste'molining hajmi - 950; davlat xarajatlari - 230; davlat byudjetining ortiqchaligi - 20.

* * *

3. Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi:

YaIM - 600, uy xo'jaliklarining iste'moli - 320, sof investitsiyalar hajmi - 110, davlat xarajatlari - 90, eksport -120, import - 90, davlat byudjetiga tushgan to'g'ri soliqlarning hajmi - 40, egri soliqlarning hajmi - 30, tadbirkorlarga berilgan subsidiyalar - 25.

Aniqlang:

- a) amortizatsiya ajratmalarining hajmini;
- b) milliy daromadni;
- v) davlat byudjetining ahvolini.

* * *

4. Quyidagi ma'lumotlar asosida SIM, MD va ID aniqlang:

YaIM	6500
Amortizatsiya ajratmalari	500
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	300
Ijtimoiy sug'urta to'lovlari	320
Transfert to'lovlari	500
Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	120
Shaxsiy soliqlar	610
Biznesga egri soliqlar	400

* * *

5. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, yalpi ichki mahsulot va shaxsiy ixtiyoridagi daromadni aniqlang?

Shaxsiy iste'mol xarajatlari	245
Transfert to'lovlari	12
Ijara haqi	14
Amortizatsiya	27
Ijtimoiy sug'urta badallari	13
Mulkdan olinadigan daromad	31
Sof eksport	3
Dividentlar	16
Yollanma ishchilarning ish haqisi	221
Biznesga egri soliqlar	18
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	21
Yakka tartibdagi soliqlar	26
Korporatsiyalar foydasiga soliq	19
Tovar va xizmatlarni davlat xaridi	72
Sof xususiy ichki investitsiyalar	33

* * *

6. Faraz qilaylik, 3 xil ne'mat ishlab chiqarilmoqda va iste'mol qilinmoqda. Jadvalda ularning har birini miqdori va bir birligining narxi 2 yil uchun berilgan. Laspeyres indeksini, Paashe indeksini va Fisher indeksini hisoblang (2012 yil-asos qilib olingan yil).

Yillar	2012 yil		2013 yil	
	narx	miqdor	narx	miqdor
Bug'doy	10	10	15	8
Paxta	27	6	24	7
Avtomobil	655	3	425	5

* * *

7. Iqtisodiyotda 3 tovar ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Jadvalda ularning ikki yildagi miqdori va narxi ko'rsatilgan. YaIM deflyatorini va iste'mol narxlari indeksini aniqlang.

Yillar	2012 yil		2013 yil	
	narx	miqdor	narx	miqdor
Soatlar	20	15	25	12
Futbolklar	10	25	8	30
Sovutgichlar	750	5	950	8


III BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING DAVRIY RIVOJLANISHI. ISHSIZLIK

3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha mamlakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (tsikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (3-chizma).

Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo'lib, u «cho'qqi» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab chiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning narx darajasining o'sish holati kuzatiladi.



3-chizma. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi

Keyingi bosqich pasayish (retsessiya) bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo narxning o'sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina narxning o'sish darajasi sustlashishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg'unlik davri boshlanadi.

Ko'tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga erishiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodchilar uch omilni ko'rsatadi.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo'llash natijasida iqtisodiyotda o'sish ro'y beradi. Masalan, avtomobilning yaratilishi yoqilg'i sanoati, neft qazib chiqarish, ximiya, yo'l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanilmagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo'ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog'lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog'laydigan olimlar ham mavjud. Ya'ni, davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni narxlashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o'z tovar va xizmatlarini ularga talab bo'lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo'lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O'z navbatida, ishlab chiqarishda

bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo'ladi. Yalpi xarajatlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning o'sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

3.2.Ishsizlik, uning turlari va darajasi

Makroiqtisodiy nobarqarorlikni yuzaga kelish sabablaridan biri bu ishsizlik hisoblanadi. Ishsizlik – bu mehnatga yaroqli aholini ish bilan band bo'lmaslik holatini aks ettiruvchi jarayon bo'lib, uning friksion, strukturaviy, davriy ko'rinishlari mavjud. Friksion ishsizlik – bu ihtiyoriy ishsizlik bo'lib, bir ishdan boshqa ishga o'tish, yashash joyini o'zgartirish va boshqa shu kabi holatlar bilan bog'liq. Ishsizlikning bu turi doimiydir.

Strukturaviy ishsizlik majburiy ishsizlik turi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida kasbiy mahoratning mos kelmasligiga va boshqa shu kabi sabablarga ko'ra ishchilarni qisqartirish hisobiga yuzaga keladi. Bu ishsizlik turi ham doimiydir.

Friksion va strukturaviy ishsizlik darajalari birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini ifodalaydi. Ishsizlikning tabiiy darajasi – bu shunday holatki, unda ishsizlar soni bilan bo'sh ishchi o'rinlari bir-biriga mos keladi. Ishsizlikning to'liq yoki tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ish o'rinlari soniga teng bo'lganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi kandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o'rinlarini topish, «tarkibiy» ishsizlarga ham yangi kasbni o'zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi.

«Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi.

Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda undan past ham bo'lishi mumkin. (Ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida).

Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o'z - o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tartibdagi o'zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf - odatlaridagi o'zgarishlar) oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 60 - yillarda friksion va tarkibiy ishsizlarning muqarrar darajasi ishchi kuchining 4% ni tashkil qildi deb hisoblangan. Boshqacha aytganda, ishchi kuchining 96% band bo'lganda to'liq bandlilikga erishilishi tan olingan. Hozirgi davrda iqtisodchilar ishsizlikning tabiiy darajasi taxminan 5 - 6% ga teng deb hisoblaydilar.

Davriy ishsizlik bu iqtisodiyotda pasayish bo'layotgan davrda mavjud bo'lib, bunda ishchi kuchiga talab bo'lsada, ishlab chiqaruvchilar ularni ishga qabul qila olmaydilar va buning natijasida yaratilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir mahsulotdan voz kechiladi.

Barcha ishsizlik ko'rinishlarining darajalari birgalikda ishsizlikning haqiqiy darajasini ifodalaydi.

Ishsizlik darajasi ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi}} * 100\%$$

Ishchi kuchiga ishlay oladigan va ishlashni hohlagan barcha kishilar kiradi. Ishchi kuchi - ishlovchilar va faol ish izlovchilardan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, band bo'lganlar va ishsizlar ishchi kuchini tashkil qiladi. Ishsizlarga ish bilan band bo'lmagan va faol ish izlayotgan hamda bu haqida tegishli xizmat muassasalariga (mehnat birjalariga) murojaat qilgan kishilar kiradi. Mehnat qilishga layoqatli bo'lib, ishlashni hohlamagan va ish izlashga harakat qilmaganlar ishsizlar tarkibiga kirmaydi.

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potentsial YaIM hajmini ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potentsial hajmdagi YaIM haqiqiy YaIM dan katta bo'ladi.

Ishsizlik darajasi va YaIM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, Ouken qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqiy ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga kam yaratadi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda β koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2,5 foizdan 3,5 foiz oralig'ida deb hisoblanadi. Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{U - U^*}{U^*} = -2.5 - 3(U - U^*)$$

Bu erda U – real YaIM, U^* - potentsial YaIM, $U - U^*$ – ishsizlikning haqiqiy darajasi, U^* - ishsizlikning potentsial darajasi, -2,5 -3 koeffitsient

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat odamlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan bizning Respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bandlik darajasi quyidagicha aniqlanadi :

$$\text{Bandlik darajasi} = \frac{16 \text{ va undan katta yoshdagi band aholi soni}}{16 \text{ va undan katta yoshdagi aholi soni}}$$

Aholining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

2013 yil davomida ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohalarda 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

3.3.Aholining turmush darajasi va inflyatsiya

Respublika iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi, o'sib borayotgan moliyaviy imkoniyat va zaxiralar aholining ish haqi va daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish imkonini berdi. 2013 yilda respublikamizda aholining real daromadlari 16,0 foizga, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

Bandlik darajasi hamda aholi daromadlarining bunday o'sishi, o'z navbatida, aholi turmush darajasining va ijtimoiy farovonligining barqaror ravishda oshib borishini ta'minlamoqda.

Makroiqtisodiy nobarqarorlikni yuzaga kelish sabablaridan yana biri bu inflyatsiyadir. Inflyatsiya – bu yalpi tovar va xizmatlar narxining ko'tarilishi va u bilan bog'liq pul birligi xarid quvvatining tushib ketishidir. Inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlikni aks ettiradi. Barcha mamlakatlar uchun inflyatsiyani jilovlash yirik iqtisodiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning

iqtisodiyotga ta'siri ancha havfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Tayanch so'z va iboralar: makroiqtisodiy nobarqarorlik, iqtisodiy davr, ishsizlik, friksion ishsizlik, strukturaviy ishsizlik, davriy ishsizlik, ishsizlikning tabiiy darajasi, ishsizlik darajasi, bandlik darajasi, inflyatsiya

Nazorat savollari

1. Makroiqtisodiy nobarqarorlik deganda qanday holat nazarda tutiladi?
2. Iqtisodiy davr qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Iqtisodiy davrning xar bir bosqichida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishini qanday izohlash mumkin?
4. Ishsizlik deganda nimani tushunasiz?
5. Ishsizlikning qanday ko'rinishlari mavjud?
6. Qanday ishsizlik turlari doimiy hisoblanadi? Nima uchun?
7. Davriy ishsizlik qanday vaziyatda yuz beradi?
8. Ishsizlik hisobiga makroiqtisodiyotda yo'qotishlar qanday aniqlanadi?
9. Ishsizlikning tabiiy darajasi qanday holatni o'zida ifodalaydi?
10. Inflyatsiya nima?

Mavzuga oid masalalar

1. Yil boshida iqtisodiyotdagi pul massasi 172 mlrd. so'mni tashkil etgan, pul aylanishi tezligi o'zgarmasdan 0,8ga teng. Narxlar darajasi ham o'zgarmaydi. Yil oxirida pul miqdori 1,5 martaga oshgan. Iqtisodiyotning o'sish (pasayish) miqdorini foizda aniqlang.

* * *

2. Iqtisodiyotdagi ishsizlikning tabiiy darajasi - 6%, haqiqiy ishsizlik 10%ni tashkil etadi. Ishlab chiqarish hajmi - 600 mln. so'm. Ishsizlik tebranishlariga YaIMning ta'sirchanlik koeffitsienti 3 tashkil etsa, haqiqiy YaIMning potentsial YaIMdan uzilish miqdorini aniqlang.

* * *

3. Aholi soni 27 mln. kishi, 14 mln. kishi-16 yoshgacha bo'lgan bolalar va maxsus davlat muassasalarida bo'lgan shaxslar; 1 mln. kishi-ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketdi. 2 mln. 400 ming kishi ishsizlar; 0.1 mln. kishi to'liqsiz ish kuni bandlar va ish qidirayotgan. Ushbu ma'lumotlar asosida ishchi kuchi sonini va ishsizlik darajasini aniqlang.

* * *

4. Agar ishsizlik darajasi joriy yilda 7,6 %, ishsizlikning tabiiy darajasi 6 % bo'lsa, real YaIM ni potentsial YaIM dan farqini hisoblang. Ouken koeffitsentini 3 ga teng deb oling.

BOB. INFLYATSIYA VA AKSILINFLYATSIYA SIYOSATI

4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflyatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) – ma'lum davr mobaynida mamlakatda narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Inflyatsiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Ammo inflyatsiya davrida barcha tovarlarning narxlari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo'lib tursa, ba'zilariniki esa tushishi mumkin.

“Inflyatsiya” atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. . Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschlar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa byudjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida

deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa, yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Narxlarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

1. Valyuta kururlarining o'zgarishi;
2. Kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;
3. Kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati narxsining o'sishi.

Inflyatsiya narx indeksleri - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi inflyatsiya darajasi (narxlarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi = \frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}}$$

bunda: π – yillik inflyatsiya sur'ati;

P_t - joriy yilning narxlar indeksi;

P_{t-1} - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

Real YaIM va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

$$\frac{\text{Narxlar ikki martaga oshishi uchun zarur yillar soni}}{70} = \frac{1}{\pi}$$

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng bo'lsa, taxminan 10 yilda narxlar ikki martaga oshadi, ya'ni, $(70:7 = 10)$.

4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi

Odatda inflyatsiyani ikki xilga talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasiga ajratiladi. Talab inflyatsiyasi - bu iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar narxining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda, «xaddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, narx, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, narx darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Narx o'zgarmasligining sababi shundaki katta hajmdagi bo'sh turgan mehnat va xom ashyo resurlarini shu o'zgarmas narxda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish

haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q.

Bundan tashqari, narx ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zahiralarini ishlab chiqarishga ertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko'payib ketadi, natijada narx yana osha boshlaydi.

Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan ($30\% - 50\% = 20\%$).

Taklif inflyatsiyasi - bu mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar narxlarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning narxlari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning narxsi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari narxsining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi

olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflyatsiyasi o'z-o'zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi.

Inflyatsiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajasini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi_{kut}$, bu erda i -nominal foiz stavkasi; r - real foiz stavkasi; π_{kut} -kutilayotgan inflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi_{kut}}{1 - \pi_{kut}}$$

Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdagi inflyatsiya bir-biri bilan qo'shib ketadi. Masalan, talab inflyatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflyatsiya darajasini e'tiborga olib ish haqilari oshirilishini mehnat shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag'larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflyatsiyasi ko'rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflyatsiya boshqarib bo'lmaydigan inflyatsiya jarayoni bo'lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Yillik sur'ati bir necha o'n yoki yuz foizni tashkil etgan inflyatsiya pul tizimining

boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflyatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini anglatadi. Giperinflyatsiyaning rasmiy mezoni amerikalik iqtisodchi Filipp Kegan tomonidan kiritilgan. F. Kegan giperinflyatsiyaning boshlanishi deb narxlarning birinchi bor 50% dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa narxlarning o'sishi bu sur'atdan pasaygan va shundan so'ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflyatsiya sharoitida pul o'zining qiymat o'lchovi va almashinuv vositasi singari funktsiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag'lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg'arishga yo'naltiriladi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning xaqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Inflyatsiyaning o'sish sur'atini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\text{Inflyatsiya o'sish sur'ati} = \frac{R^1 - R^0}{R^0}$$

R^1 – joriy yilning narxlar indeksi;

R^0 – o'tgan yilning (bazis) narxlar indeksi.

2013 yilda qat'iy pul-kredit siyosati yuritilganligi inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyat kasb etdi va uning belgilangan prognoz ko'rsatkichdan past bo'lishi ta'minlandi.


2013 yil yakuni bo'yicha iste'mol narxlari indeksi asosida hisoblanadigan inflyatsiya darajasi 2012 yilga nisbatan 0,2 foiz bandga pasayib, 6,8 foizni tashkil etdi. Bunda iste'mol narxlari indeksining o'sishi asosan nomonetar omillar hisobiga yuz berdi.

Jumladan, 2013 yilda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 3,9 foizga o'sib, uning inflyatsiyaga ta'siri 2,0 foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 7,4 foizga o'sib, inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,1 foizni tashkil etdi. Xizmatlar narxi esa 13,8 foizga o'sib, iste'mol narxlari indeksiga ta'siri 2,6 foizni tashkil qildi.

4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potentsial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holat ham narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni talab inflyatsiyasi ro'y beradi..

Ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va Fillips egri chizig'i (4 -chizma) deb ataladi.



4-Chizma. Fillips egri chizig'i

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lig'likni xarakterlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} + \alpha \left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \varepsilon$$

Bu erda π - inflyatsiyaning haqiqiy darajasi;

π_{kut} - inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$$Y_h - Y_p$$

$$\alpha \left(\frac{\quad}{Y_p} \right) - \text{talab inflyatsiyasi};$$

α - Fillips egri chizig'ining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;

ε - tashqi narx shoki (taklif inflyatsiyasi).

Ouken qonuniga ko'ra YaIMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi narx shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan

kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

4.4. Aksilinflyatsiya siyosati

Aksilinflyatsiya siyosat - narxlar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yalpi talabni tartibga solish;
- yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlari iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday aksilinflyatsiya siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo'shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo'nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo'yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal asilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o'tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog'liq hodisa bo'lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o'sish sur'atlarini keskin qisqartiradi va

inflyatsiya sur'atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Konfiskatsiya tipidagi shok terapiyasi ko'rinishlaridan biri bo'lib daromadlarning va narxlarning nominal darajalarini o'zgartirmagan holda eski pullarni belgilangan nisbatda yangisiga alishtirish hisoblanadi.

Bunday tadbirlar aholi tomonidan ohir qabul qilinishi sababli, u qisqa muddatda samara berishi zarur.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko'rinishi - inflyatsiya sur'atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur'atlari pul massasini ko'p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o'sish sur'atini pasaytirishni ko'zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo'llash pul massasi va narxlar darajasining yillik o'sish sur'ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo'ladi, deb hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetar usullarga muqobil bo'lgan variantlaridan biri narxlar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o'sishi va narxlarning o'sishini muvofiqlashtirishni (adaptiv siyosat) ko'zda tutadi.

Daromadlar va narxlarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan narxlar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo'yish, pul ko'rinishidagi ish haqining o'sishini o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishiga bog'lab qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Soliqlar tarkibini o'zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag'batlantirish funktsiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog'liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o'sish sur'atlarini;
- "inflyatsiyani import qilish" ga yo'l qo'ymaslik.

Tayanch so'z va iboralar: inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, Filipp's egri chizig'i, konfiskatsiya, shok terapiyasi, graduallash usuli, aksilinflyatsiya siyosati.

Nazorat savollari

1. Inflyatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
2. Talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Inflyatsiyaning haqiqiy darajasi qanday aniqlanadi?
4. Filipp's egri chizig'i qanday bog'liqlikni o'zida aks ettiradi?
5. Graduallash usulining mazmunini tushuntiring.
6. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyati va asosiy yo'nalishlarini qanday izohlaysiz?

Mavzuga oid masalalar

1. Iqtisodiyotdagi ishsizlikning tabiiy darajasi - 6%, kutilayotgan inflyatsiya darajasi - 3%. haqiqiy YaIMning potentsial YaIMdan uzilish miqdori 0 dan kamroq. Tashqi narx shoklari mavjud emas. Inflyatsiyaning haqiqiy darajasini aniqlang.

* * *

2. Iqtisodiyotda Filipp's egri chizig'ining tenglamasi quyidagicha: $\pi = \pi_e - 0,5(u - u^*)$. Ishsizlikning tabiiy darajasi - 5,4%, kutilayotgan inflyatsiya darajasi -

4%. haqiqiy ishsizlik darajasi esa 3,6%. Inflyatsiyaning haqiqiy darajasini aniqlang.

* * *

3.2012 yilda iste'mol narxlar indeksi (INI) 301ga, 2013 yilda esa - 311ga teng bo'lgan. 2011 yil asos qilib olingan yil deb hisoblanadi. 2013 yilda 2012 yilga nisbatan hamda asos qilib olingan yilga nisbatan inflyatsiya darajasini aniqlang.

V BOB. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELI

5.1. Yalpi talab va unga ta'sir etuvchi omillar

Makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga narxlar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izoxlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand – aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi talab va taklif, narxlarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.


Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va narxlar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun asosiy model bo'lib hisoblanadi va boshqa bir qancha modellar AD-AS modelining xususiy holi hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Yalpi talab — uy xo'jaliklari, korxonalar, xukumat va chet ellik xaridorlarning narxlarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda umumiy talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiy harajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida umumiy talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = S + I + G + X_n$$

Narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq jami talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (5- chizma). 5- chizmadan ko'rinib turibdiki, talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi. Nima uchun?



5-chizma. Yalpi talab egri chizig'i

Bunday surilishning sababi har xil. Ya'ni, alohida olingan tovarlarda talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rinbosar tovarlar sabab bo'lar edi. Ayrim tovarlarning narxi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq mahsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, narx pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq boshqa sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin.

$$M \cdot V = Y \cdot R$$

Bu erda: M — muomaladagi pul miqdori;

V — pulning aylanish tezligi;

R — iqtisodiyotdagi narxlar darajasi (narx indeksi);

Y — talab qilinayotgan real ishlab chiqarish xajmi.

Bu tenglamadan $P = \frac{M \cdot V}{Y}$; $Y = \frac{M \cdot V}{P}$ tenglamalarni keltirib chiqaramiz.

Bu tenglamalardan ko'rinadiki, narxlar darajasi qancha oshsa, real milliy mahsulot xajmiga talab hajmi shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarmas bo'lsa, narxlar darajasi va umumiy talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Buiday bogliqlik, shuningdek quyidagi narx omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi yoki Keyns samarasi shuni bildiradiki, jami talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Demak, tovarlarning narx darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ish-bilarmonlar uchun ham ish haqi va boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar narxsi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.


Pul taklifi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi foiz stavkasini ko'tarilishiga olib keladi. Foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda ishbilarmonlarning investitsiya tovarlariga bo'lgan talabi pasayadi.

Investitsiya harajatlari umumiy talabning bir qismi bo'lganligi tufayli bu umumiy talab hajmining pasayishiga olib keladi.


$$P \uparrow \rightarrow M_d \uparrow (M_s \text{ sonst}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Boylik samarasi yoki real kassa koldiqlari samarasi (Pigu samarasi) shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, nominal narxsi oldindan belgilangan moliyaviy aktivlar (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi joriy daromadidan iste'mol xarajatlari miqdorini qisqartiradi, ya'ni iste'molga chegaraviy moyillik pasayib boradi. Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so'm bo'lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi mumkin bo'ladi, agarda inflyatsiya ta'sirida mashina narxi 12 mln. so'mga ko'tarilsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin va yana 2 mln. so'm jamg'arish uchun joriy davrda olgan ixtiyoridagi daromadidan ko'proq qismini jamg'aradi.

Iste'mol xarajati umumiy talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib ksladi.



Import xaridlari samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab hajmi kamayadi va o'z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki milliy mahsulotga talab hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa sof eksport hajmi orqali umumiy talab hajmiga ta'sir ko'rsatadi.



Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar jami talabning narx omillari deb ataladi. Bundan tashqari jami talabning narhlarga bog'liq bo'lmagan omillari ham mavjud. Bu omillardagi o'zgarishlar jami talabning miqdorida o'z aksini topadi va uning egri chizig'ini chapga yoki o'ngga siljitadi. Jami talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar:

- iste'molchilarning real moddiy aktivlari qiymatining o'zgarishi, bu erda real moddiy aktivlarning qiymati inflyatsiya ta'sirida o'zgarishini emas (Pigu samarasi), balki boshqa sabalarga ko'ra o'zgarishi nazarda tutiladi. Masalan aktsiyalarning narxi keskin o'sishi bilan aktsiyadorlarning boyligi oshadi va ular ko'proq iste'mol qilishga moyil bo'ladi va aksincha uylarning va erlarni narxi keskin pasayishi bilan iste'molchining boyligi kamayadi va u ko'proq jamg'aradi;
- iste'molchilar kutishi, ya'ni kelajakda real daromadlarning ko'tarilishi kutilsa, yoki inflyatsiya darajasi yuqoriroq bo'lishi bashorat qilinsa, aholi ko'proq iste'mol qilishni boshlaydi;

➤ iste'molchilarning qarzlar miqdorining o'zgarishi – agar oldingi iste'mol kredit hisobiga qilingan bo'lsa;

➤ iste'molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi, soliqlarning pasayishi ixtiyordagi daromad hajmini oshiradi.

2. Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar:

➤ foiz stavkasidagi o'zgarishlar, bu erda Keynes samarasi emas, balki foiz stavkasini boshqa narxlar darajasiga bog'lik bo'lmagan o'zgarishlari nazarda tutiladi. Masalan, pul massasining oshishi foiz stavkasini pasaytiradi va natijada investitsiya xarajatlari oshadi;

➤ investitsiyalardan kutilayotgan foyda me'yorining o'zgarishi, masalan, iste'mol xarajatlarning oshishi kutilayotgan bo'lsa, ishlab chikaruvchilarning kutilayotgan foydasi ham oshadi va natijada ular ishlab chiqarishga ko'proq investitsiya qilishga moyil bo'ladilar;

➤ korxonalardan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi, soliqlar darajasining oshirilishi korxonalarning kapital qo'yilmalardan olgan foydasini kamaytiradi va natijada ular kamroq investitsiya qiladi;

➤ yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi, yangi va takomillashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish uchun ishlab chikaruvchilar yangi uskunalar sotib oladi;

➤ zahiradagi quvvatlar o'zgarishi, zahiradagi ishlab chiqarish quvvatlari miqdori yuqori bo'lsa, ishlab chikaruvchilar yangi uskunalar sotib olishni va yangi inshootlar qurishni to'xtatib qo'yyadilar.

3.Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, xarbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

4. Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.


➤ boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o'zgarishi milliy eksportga bo'lgan talabni oshiradi. Misol, jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inkizor natijasida ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi axolining real daromadlari tushib ketgan va ularning bizning mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarga bo'lgan talabi ham

kamaygan. Hozirgi kunda neft narxining keskin o'sishi neft eksport qiluvchi mamlakatlar milliy daromadlarini oshirib borishiga va natijada bu mamlakatlarda bizning mahsulotlarga talabini oshib borishiga sabab bo'lmoqda.


➤ valyuta kurslaridagi o'zgarishlar, milliy valyuta so'mning kursi pasayishi bilan xorijdan kelayotgan mehmonlar olib kelgan dollari evaziga ko'proq so'mga ega bo'lishadi, ya'ni bizning mahsulotlarimiz xorijliklar uchun nisbatan arzonroq bo'lib qoladi.

Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yuqoridagilardan tashqari umumiy talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan yana ikki omilni beradi. Bular: pul taklifi (M) va pulning aylanish tezligi (V) dir. Narxlar o'zgarmagan holda, pul massasining ko'payishi yoki pulning aylanish tezligining oshishi qisqa muddatda jami talab egri chizig'ini o'ngga siljitadi, chunki bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi mavjud bo'lgan real pul zahiralarini hamda iste'molchilarning sotib olish qobiliyatini oshiradi.

Umumiy talabning narxga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi. Natijada ma'lum narx darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan milliy mahsulot xajmi o'zgaradi.



6-chizma. Umumiy talab egri chizig'idagi siljishlar




7-chizma. Umuchiy taklif chizig'idagi siljishlar

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valyuta kursining ma'lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof

eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig'ining o'ngga siljishiga olib keladi. Bunga aksincha bo'lgan holatlarda AD egri chizig'i chapga siljiydi.

5.2. Yalpi taklif va unga ta'sir etuvchi omillar

Yalpi taklif deganda muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Umumiy taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi. Yalpi taklif – bu muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan iste'mol hamda investitsiya tovarlari va xizmatlarning umumiy miqdoridir. Narxlar darajasi deganda, turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini umumlashtiruvchi jami narx tushuniladi. Narxlarni narxlar darajasiga, jami iste'molchilarning to'lov qobiliyatli talabini jami talabga, barcha tovar va xizmatlarni esa milliy ishlab chiqarishning real hajmiga bunday birlashtirish yiriklashtirish deb ataladi. Ko'rsatkichlarni yiriklashtirishni bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Makrodarajada iqtisodiyotni usiz tahlil qilib yoki oldindan aytib bo'lmaydi. Yalpi talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar to'zishining asosi hisoblanadi. Oddiy ko'rinishda bu ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi grafik yordamida aks ettiriladi (A-chizma).




8-chizma. Yalpi talab, yalpi taklif va narxlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Narxlarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha mahsulot

ishlab chiqarishga rag'bat yaratadi va aksincha past narxlar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan narxlar darajasi o'rtasida to'g'ri aloqa mavjud. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi narxlar o'sib borishi bilan o'sib, pasayishi bilan tushib boradi. Yalpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat. Bu umumiy taklifni tahlil qilishga klassik va keynschilarga xos yondashuv bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha oraliq kesma ham keyns kesmasiga kiritib yuboriladi.

Yalpi taklif egri chizig'idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi?

1. Keynes kesmasida milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi to'liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarish hajmidan kamdir. Demak, gorizontal kesma iqtisodiet inqirozga uchragan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sha-roitni ko'rsatadi. Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi narxlar darajasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y bsradi.



9-chizma. Jami taklif egri chizig'i.

Yalpi talabning Keynes kesmasida iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi. Umumiy talabni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to'liq band bo'lmagan sharoitda amal qiladi;

- narxlar, nominal ish haqi qayd etilgan, bozor tebranishlaridan juda kam ta'sirlanadi;

- real miqdorlar (ishlab chiqarish, bandlilik, real ish haqi) harakatchan va bozor tebranishlaridan tez ta'sirlanadi.

2. Vertikal yoki klassik kesma. Egri chiziq bo'yicha o'ngga surilishi natijasida ishlab chiqarishning mavjud hajmida iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o'zining ishlab chiqarish potentsiali darajasida bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, narxlarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to'liq quvvatda faoliyat ko'rsatayapti. To'liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq narxlarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalarning resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi, boshqalari uchun yo'qotishga olib keladi. Natijada bu mahsulotlar narxi oshishi mumkin, lekin ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarmay qoladi.

Klassik nazariyada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- ishlab chiqarish hajmi faqatgina ishlab chiqarish omillari hajmiga va texnologiyalarga bog'liq va narxlar darajasiga bog'liq emas;

- ishlab chiqarish omillari va texnologiyalarda o'zgarish sekinlik bilan ro'y beradi;

- iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida amal qiladi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi potentsial darajaga teng;

- narxlar va nominal ish haqi o'zgaruvchan, ularning o'zgarishi bozorlarda muvozanatni ta'minlab turadi.

3. Oraliq kesma — ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning pasayish

holatidan to'liq bandlikka o'tishi notekis va turli vaziyatlarda ro'y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yotishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda hozircha ortiqcha resurslar mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi asosiy vositalar sotib olish va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada narxlar darajasining o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki kamayishi narxga bog'liq bo'lmagan omillar hisobiga ham ro'y berishi, bu omillar esa yalpi taklif egri chizig'ini o'ng yoki chap tomonga siljitishi mumkin. Narxga bog'liq bo'lmagan omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta'sir qiladi va shu orqali yalpi taklif egri chizig'ining siljishiga sabab bo'ladi.

Bu omillar quyidagilardan iborat

1. Resurslarga bo'lgan talabning o'zgarishi:

➤ ichki bozordagi resurslar miqdorining kamayishi ularning narxining oshishiga olib keladi:

- er resurslari;
- mehnat resurslari;
- kapital;
- tadbirkorlik qobiliyatlari;

➤ valyuta kursining o'zgarishi sababli import resurslar narxlaridagi o'zgarishlar;

➤ bozordagi hukmronlik va monopoliya, OPEK tomonidan neft narxaning ko'tarilishi.

2. Ishlab chiqarish unumdorlikdagi o'zgarishlar .

3. Huquqiy me'yordagi o'zgarishlar:

➤ soliq va subsidiyalarning o'zgarishi;


➤ davlatning tartibga solish jarayonidagi o'zgarishlar, davlat tomonidan iktisodiyotni tartibga solinishi oxiri oqibat ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi.

Masalan, soliq turlarini ko'paytirilishi qo'shimcha buxgalterning xizmatidan foydalanishga majbur qilishi mumkin, ya'ni davlat tomonidan iqtisodiyotni yuqori darajada tartibga solinishi qog'oz ishini ko'paytiradi.

5.3. AD-AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajalari

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif hajmi bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Avvalo yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizigining oraliq kesmada mos kelishini ko'rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli darajalari mos ravishda R_e va Y_e lar bilan belgilangan. Nima uchun R_e narxlarning muvozanatli darajasi va Y_e milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini bildirishini ko'rsatishimiz uchun narxlarning muvozanatli darajasi R_e emas, balki R_1 deb hisoblaymiz. Narxlar darajasi R_1 bo'lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Y_1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar narxlar darajasi R_1 bo'lganda mahsulotlarni Y_2 darajada sotib olishga tayyor turadi. $AD > AS$ bo'lganligi tufayli iste'molchilar o'rtasidagi raqobat narxlar darajasini R_e gacha suradi. Narxlar darajasining R_1 dan R_e gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y_1 dan Y_e gacha oshirishga va iste'molchilarning talabini Y_2 dan Y_e gacha kamaytirishga olib keladi. Va bu AD, AS to'g'ri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan R_e narx narxlarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.



10-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmadagi muvozanat

10-chizmada yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'ini Keyns kesmasida kesib o'tadi. Bunday vaziyatda narxlar darajasi hech qanday ahamiyatga ega emas. Buni tushunish uchun avvalo milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini Y_e va muvozanatli narxlar darajasini R_e bilan belgilaymiz.

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Y_e ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U xolda $AD < AS$, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Y_e darajaga pasaytirilishiga olib keladi. Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblacak, aksincha, $AS < AD$ oqibatda korxonalarda tovar zaxiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Y_e darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan jami taklif va jami talabning kesishish nuqtasigina AD-AS modelda muvozanat nuqtasi va shu nuqtaga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi esa milliy ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, narxlar darajasi esa o'zgarmaydi.

Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat narxlar darajasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlar darajasi o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklifning o'zgarishi muvozanat narxlar darajasiga va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz.

mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlarni qisqarsa, unda jami taklif egri chizig'i AS_1 dan AS_3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi R_1 dan R_3 ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y_1 dan Y_3 qadar oshadi, ya'ni, iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.

Tayanch so'z va iboralar: yalpi talab, yalpi talabga ta'sir etuvchi omillar, foiz stavkasi samarasi, boyluk samarasi, import xaridlari samarasi, yalpi taklif, yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar, resurslar narxining o'zgarishi, mehnat unumdorligi va texnologiya, hukumat tartibga solish vositalari, yalpi talab determinantlari, AD-AS modeli, makroiqtisodiy muvozanat.

Nazorat savollari

1. Yalpi talab deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Yalpi talabga ta'sir etuvchi narxga bog'liq omillarga nimalar kiradi?
4. Yalpi talabga foiz stavkasi samarasi qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Qanday omillar ta'sirida yalpi talab egri chizig'i siljishi yuz beradi?
6. Yalpi talab egri chizig'ining o'ngga yuqoriga siljishi qanday vaziyatlarga xos?
7. Yalpi taklif deganda nima nazarda tutiladi?
8. Yalpi taklif egri chizig'i siljishiga nimalar ta'sir etadi?
9. Yalpi taklif egri chizig'i qanday kesimlardan iborat va har bir kesimda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qanday bo'ladi?
10. AD-AS modelining mohiyati nimadan iborat va qanday ahamiyatga ega?

Mavzuga oid masalalar

1. Markaziy bank siyosati iqtisodiyotdagi pul taklifini 5%ga kamayishiga olib keldi.
 - a) bu siyosat AD egri chizig'ida qanday aks ettiriladi?
 - b) qisqa va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish hajmi hamda narxlar darajasi qanday o'zgaradi?

* * *

2. Iqtisodiyotda uzoq muddatli davrdagi AS egri chizig'i quyidagicha berilgan $Y = 3000$, qisqa muddatli davrdagi AS egri chizig'i esa $P = 1,0$ darajada joylashgan. AD egri chizig'ining tenglamasi quyidagicha $Y = 3,0 M/P$. Pul taklifi (M) 1000 teng. Narx shoki natijasida qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,5$ darajasigacha, uzoq muddatli AS egri chizig'i esa $Y = 2500$ darajasigacha surilgan. AD egri chizig'i o'zgarmagan. qisqa va uzoq muddatli davrlarda yangi muvozanatli Y va P qiymatlarini aniqlang.

* * *

3. Potentsial YaIM (Y) 3000ga teng, qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,0$ darajada gorizontal ko'rinishga ega. AD egri chizig'ining formulasi quyidagicha: $Y = 2000 + M/R$. Pul taklifi 1000 ga teng. Narx shoki natijasida qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,5$ darajagacha surildi. Ishlab chiqarish hajmini potentsial darajasida ($Y = 3000$) saqlab qolish uchun Markaziy bank pul taklifini qanchaga oshirishi mumkin ?

* * *

4. O'tgan yilda AD egri chizig'ining tenglamasi quyidagicha edi: $Y = 3300 - 3P$. Joriy yilda esa bu tenglamaning ko'rinishi: $Y = 3270 - 3P$. Potentsial YaIM o'zgarmagan va 3000 darajada qolgan. Qisqa muddatli davrda muvozanatli YaIM va uzoq muddatli davrda inflyatsiya darajasini aniqlang.

* * *

5. Faraz qilaylik, OPEK tasodifan tarqalib ketdi va neft narxlari keskin tushib ketdi. Bu vaziyatni chizmada aks ettiring va AD, AS egri chiziqlarini, ishlab chiqarish hajmini hamda narxlar o'zgarishini ko'rsatib bering.

* * *

6. 2012 yilda potentsial YaIM 400 ni tashkil etdi va yalpi talab egri chizig'i quyidagi tenglama bilan ifodalandi $Y = 4200 - 2R$. 2013 yilda potentsial YaIM 1 foizga o'sdi va yalpi talab egri chizig'ining tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi $Y = 4200 - 2R$. 2013 yilda narxning muvozanatli darajasi necha foizga o'zgarganini aniqlang?

VI BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

6.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YaIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. Shu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi. Klassik maktab vakillari jamg'arish hajmi foz stavkasining funktsiyasi de qarashsa J.M. Keynes uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari deb hisoblaydi. Yanada aniqlik kiritsak iste'sol va jamg'arish o'ajmini belgilovchi asosiy omil uy xo'jaliklarining ishlab topgan daromadlari, olgan transfert to'lovlari va to'lagan soliqlari bilan belgilanadigan tasarrufidagi daromadi (DI – dispocable income, yoki Y_d) ko'rsatkichidir. Makroiqtisodiy nazariyada iste'mol va jamg'armalar, milliy daromad yoki shaxsiy daromadlarning funktsiyasi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufidagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi. Bu bog'liqlikni gipotetik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (2-jadval).


Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Tasarrufdagi daromad (Y d)	Iste'mol (C)	Jamg'arish (S)
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25

Tasarrufdagi daromad hajmi 370 shartli birlikka (sh.k.) teng bo'lganda uy xo'jaliklari iste'moli 375 sh.b.ka teng, ya'ni tasarrufdagi daromaddan 5 sh.b.ka ko'p bo'ladi. Ya'ni uy xo'jaliklari 5 sh.b.ka teng miqdorda qarz hisobiga yoki o'tgan yillarda to'plangan jamg'armalar hisobiga iste'mol xarajatlari qiladilar.


Uy xo'jaliklari tasarrufdagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi. 6-jadval ma'lumotlari asosida iste'mol grafigini chizamiz.

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Bissektrisa ko'rinishidagi $Y_d=C$ to'g'ri chizig'ining har bir nuqtasida iste'mol va tasarrufdagi daromad hajmlari teng bo'ladi. Haqiqiy iste'mol (S) grafigi haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (α) bissektrisa bilan kesishadi. Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. α – nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni a nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi. a – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi.



13-chizma. Iste'mol grafigi

Keltirilgan ma'lumotlar asosida jamg'arish grafigini ham ko'rib chiqamiz (14-chizma).



14-chizma. Jamg'arish grafigi

Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi ($S = Y_d - C$). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga (0) teng bo'lgan holda ixtiyordagi daromad hajmi o'sib borishi bilan uning miqdori ham oshib boradi.

6.2. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari

Bobning birinchi savolida keltirilgan gepotetik ma'lumotlar va grafiklarga tayanib iste'mol funksiyasini yozamiz:

$C = a + b \times Y_d$, bu erda: a – avtonom xarajatlar; Y_d – tasarrufidagi daromad ($Y_d = Y - T$), bu erda: T – soliqlar;

b – iste'mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik.

$$b = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} \times 100$$

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufidagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkin, ya'ni jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = -a + (1 - b) \times Y_d$$

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'rirog'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.
2. Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
3. Narxlar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste'molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Dastlabki besh omil ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari o'zaro teskari tomonga siljiydi. Bu besh omil ta'sirida joriy tasarrufidagi daromad tarkibida iste'mol va jamg'arish ulushi nisbatlari o'zgaradi. Soliqqa tortish darajasining o'zgarishi ixtiyordagi daromad hajmini o'zgartirgani tufayli uning ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari bir tomonga qarab siljiydi. Iste'mol funksiyasini aniqlash borasidagi tadqiqotlar, uning hajmi shuningdek aholining daromadlari

hajmi va to'plagan mulki ko'lamiga ko'ra tabaqalanishi darajasi hamda aholining soni va yoshiga ko'ra tarkibiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

6.3. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida iste'mol va jamg'arish funktsiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik va chegaralangan moyillik tushunchalarini mohiyatini anglab olishimiz lozim.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Y_d} \times 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Y_d} \times 100$$

Bunda: APS ((average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Misol uchun, tasarrufidagi daromad darajasi 410 va 530 shartli birlikka va iste'mol darajalari 405 va 495 shartli birlikka teng bo'lgan holatlar uchun iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

$$ARS = (405 / 410) \times 100 = 98,78\% \text{ yoki } 0,98;$$

$$ARS = (495 / 530) \times 100 = 93,39\% \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki, tasarrufidagi daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan uning tarkibidagi iste'mol ulushi kamayib va aksincha jamg'arma ulushi ko'payib boradi. Bu holatni Keynsning "asosiy psixologik qonun"i bilan izohlash mumkin. "Mavjudligiga nafaqat aprior tasavvurlarga ko'ra, bizning inson tabiatini bilishimizdan kelib chiqib shuningdek o'tmish tajribasini sinchiklab o'rganish asosida biz to'liq ishonishimiz lozim bo'lgan asosiy

psixologik qonun shundan iboratki kishilar daromadlari o'sishi bilan, odatda, o'z iste'mollarini oshirishga moyillar, ammo daromadlari o'sgan darajada emas”*

Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, shu tufayli ham iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik yig'indisi 100% ga yoki koeffitsient ko'rinishda 1 ga teng: $ARS + ARS = 100\%$ yoki 1.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlarining o'sgan qismini yo iste'mol qiladi, yoki jamg'aradi.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chekli moyillik deyiladi.

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} \times 100$$

Bu erda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chekli moyillik.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra ixtiyordagi daromad 410 sh.b.dan 430 sh.b.kacha oshgan holatda MRSni hisoblaymiz.

$$\Delta S = 420 - 405 = 15; \quad \Delta Yd = 430 - 410 = 20;$$

$$MRS = (15/20) 100 = 75\%;$$

Bu shuni bildiradiki, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75)ga o'zgaradi.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MRS = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} \times 100$$

Bu erda: MPS (marginal propensity to saving) – jamg'arishga chekli moyillik.

Yuqorida keltirilgan misolda:

$$\Delta Yd = 430 - 410 = 20 \quad \Delta S = 10 - 5 = 5$$

$$MR S = (5/20) 100 = 25\%;$$

* Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.,1978. С.157.

Shunday qilib, iste'molga chekli moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga chekli moyillik 0,25 ni tashkil etadi. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Shu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

$MRS + MRS = 100\%$ yoki 1.

MRS va MRS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

6.4. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funktsiyasi.

YaIMning ikkinchi komponenti bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra investitsiyalar yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarni yakuniy sotib olishga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Shuningdek investitsiyalar tarkibiga uy-joy qurilishiga ketgan xarajatlar ham kiritiladi.

Investitsiyalarning turli guruhlash mumkin. Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash ob'ektiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari;
2. Tovar-moddiy zaxiralariga investitsiya;
3. Uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayishini kuzatishimiz mumkin. Chunki investorlar uchun qarz narxi ortib, ular ko'rsatadigan foyda normasini pasaytirib qo'yadi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proportsional tarzda o'zgarishini ko'rsatadi.

Avtonom investitsiya funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR$$


Bu erda: I – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng to'lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatldari, er, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o'zgarishga ta'sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.

Grafikdan e nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi bilan kredit berganlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz ko'p bo'lganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma'lum miqdor bilan chegaralanadi



15-chizma. Avtonom investitsiyalar grafigi

5. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik bo'lsa, kutilayotgan sof foyda me'yori (KSFM) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o'rtasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 10.000 so'm sof foyda olgan bo'lsin. Kutilayotgan sof foyda me'yori quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{KSFM} = 10000 / 100000 \times 100 = 10\%.$$

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizini (16%-12%) tashkil etadi.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta'sir etuvchi boshqa omillar quyidagilar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajasi;
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar;
3. Mavjud bo'lgan asosiy kapital miqdori;
4. Investorlarning kutishi;
5. Yalpi daromadlarning o'zgarishi.

Soliqqa tortish darajasining pasayishi hamda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kutilayotgan sof foyda normasining (real foiz stavkasi o'zgarmagan sharoitda ham) ko'payishga olib keladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining ortishiga turtki beradi.

Investitsiyalar hajmining YaIM yoki daromadlar darajasiga bog'liqligini akselerator modeli aks ettiradi:

$I = f(Y)$, ya'ni investitsiyalar (I) YaIM (Y)ning funktsiyasi ekan.

Akselerator modelining to'liqroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$I = I_{reja} + \gamma Y$$

bu erda:

$$\gamma = \frac{\Delta I}{\Delta Y} = \frac{I_t - I_{t-1}}{Y_t - Y_{t-1}}$$

I_{reja} – rejalashtirilgan investitsiyalar; Y – YaIM (daromad) hajmi.

Akseletator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = e - dR + \gamma Y$$

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxona foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi. YaIM hajmi pasayib ketganda esa, ya'ni iqtisodiy faollik pasayishi sharoitida bo'sh turgan quvvatlar mavjudligi tufayli, investitsiya xarajatlari pasayib ketadi. Ammo YaMMning davriy tebranishlari, innovatsiyalarni doim ham bir tekisda bo'lmasligi, uskunalarni uzoq muddat xizmat qilishi, iqtisodiy kutishdagi xavflar tufayli investitsiyalar hajmi barqaror bo'lmaydi.

Tayanch so'z va iboralar: ihtiyordagi daromad, iste'mol, avtonom iste'mol, jamg'arma, iste'molga o'rtacha moyillik, jamg'armaga o'rtacha moyillik, iste'moga chegaralangan moyillik, jamg'armaga chegaralangan moyillik, investitsiya, nominal foiz stavkasi, real foiz stavkasi, kutilayotgan sof foyda me'yori.

Nazorat savollari

1. Iste'mol deganda nimani tushunasiz?
2. Iste'mol va ihtiyordagi daromad o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Qanday vaziyatda insonlar qarz hisobiga hayot kechirishi kuzatiladi?
4. Jamg'arma qanday vaziyatda mavjud bo'ladi?
5. Iste'mol va jamg'arma funksiyalari qanday ko'rinishga ega?
6. Iste'mol va jamg'armani tavsiflovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi va ular qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyaning iqtisodiy mazmunini qanday izohlash mumkin?

8. Investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillarni tushuntiring?
9. Investitsiya grafigi qanday ko'rinishga ega bo'laldi?
10. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

Mavzuga oid masalalar

1. Faraz qilaylik iqtisodiyotda iste'mol quyidagi tenglama bilan berilgan
 $S = 55 + 0.73U_d$

Bu erda daromad (U_d) 500 mlrd. so'mga teng.

Ushbu shartlar asosida iste'mol va jamg'armaga bo'lgan chegaraviy moyillikni, iste'mol va jamg'arma miqdorlarini, iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillikni aniqlang.

* * *

2. Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalangan

iste'mol xarajatlari (S) = 2300

investitsiya xarajatlari (I) = 700

davlat xarajatlari (G) = 800

davlat transfertlari (TR) = 100

davlat qarzlari bo'yicha foizlarni to'lash (N) = 100

solliqlar (T) = 800

Xususiy va davlat jamg'armalarini aniqlang.

* * *

3. Davlat xaridlari $G = 50$, transfert to'lovlari $TR = 10$, davlat qarzi bo'yicha foiz stavkasi $R = 10\%$ (davlat qarzi $D = 20$), soliq tushumlari $T = 40$. Byudjet kamomadi mavjudmi, yo'qmi?

VII BOB. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODEL

7.1. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar

Ishlab chiqarishning kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish uchun jami talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda jami talab nazariyasi deb yuritiladi. Jami talab komponentlari, ayniqsa investitsiyalarning o'zgarishi makroiqtisodiy beqarorlik sabablaridan biridir.

Haqiqiy investitsiyalar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalarga tovar – moddiy zaxiralariga (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg'arma va investitsiyalar miqdorining o'zaro bir-biriga mos kelishiga olib keladi va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

Rejalashtirilgan xarajatlarga uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyoning mahsulot va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallagan xarajatlari kiradi. Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o'zgarishlar tovar moddiy zaxirasiga rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funktsiyasi : $E = S + I + G + X_n$ ko'rinishiga ega. Dekmak uning grafigi iste'mol funktsiyasi ($S = a + b \times (U - T)$) grafigiga nisbatan $I + G + X_n$ miqdorda yuqoriga surilgan bo'ladi. Keltirilgan X_n -sof eksport bo'lib, uning funktsiyasi esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_n = g - m'Y$$

Bu erda : g – avtonom sof eksport;

m' - importga chegaralangan moyillik; Y – daromad.

Importga chegaralangan moyillik import xarajatlaridagi o'zgarish miqdorini bunga sabab bo'lgan daromadlardagi o'zgarish miqdoriga bo'lib topiladi.

$$m' = \Delta M / \Delta Y$$

Bu erda: ΔM - importga xarajatlarning o'zgarishi;

ΔY - daromadlarning o'zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, bunda iste'molchilar va investorlar ham milliy ham import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlari miqdorini oshiradilar. Ayni paytda mamlakatning eksporti hajmi shu mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) miqdoriga bevosita bog'liq bo'lmaydi, balki tovar olib chiqib ketayotgan mamlakatning yalpi daromadlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) o'zgarishi bilan sof eksport (X_n) o'rtasidagi bog'liqlik salbiydir va sof eksport funksiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi.


Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modelini ko'rib chiqish jarayonini soddalashtirish uchun sof eksport miqdori yalpi daromadlar (Y) o'zgarishiga bog'liq emas deb olinadi. Shuning uchun sof eksport to'lig'icha avtonom xarajatlar miqdoriga qo'shiladi, ya'ni avtonom xarajatlar ($a + I + G + X_n$) yig'indiga teng deb olinadi.

7.2. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Rejalashtirilgan xarajatlar chizig'i haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo'lgan ($Y=E$) chiziqni qaysidir a nuqtada kesib o'tadi. Quyida keltirilgan 16-chizmada tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa muddatli muvozanatga erishish mexanizmi tasvirlangan bo'lib, u "Keyns xochi" nomini olgan. $Y=E$ chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg'armalar tengligi saqlanadi. a nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'ladi. Shuningdek, bu erda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalarning o'zaro tengligiga erishiladi. Ya'ni, makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y_1) uning muvozanat darajasi (Y_0)dan ko'p bo'lsa, iste'molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi ($AD < AS$). Cotilmagan mahsulotlar TMZ ko'rinishiga ega bo'ladi. Zahiralarining o'sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda

bandlik darajalarini pasaytirishiga olib keladi. Bu esa YaIM hajmini Y_1 dan Y_0 gacha kamayishiga olib keladi va daromad va rejalashtirilgan xarajatlar tenglashadi. O'z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga ($AD = AS$) erishiladi. Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish (Y_2) uning muvozanat darajasidan (Y_0) kam bo'lgan vaziyatda esa, firmalar iste'molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini ($AD > AS$) ko'ramiz. Talabning oshishi esa firmalar zahirasi kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YaIM asta sekin Y_2 dan Y_0 ga qarab o'sadi va yana $AD = AS$ tengligiga erishiladi. Bu esa ayni paytda $E = Y$ va $I = S$ ayniyatlarga erishilganligini anglatadi.



16-chizma. Keynes xochi (Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli)

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (Y_0), yalpi xarajatlar komponentlarining har birining (iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) o'zgarishi natijasida tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi birorta omilning miqdorining o'sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig'ini yuqoriga suradi va aksincha kamayishi pastga surilishga olib keladi.

7.3. Avtonom xarajatlar multiplikatori

Avtonom xarajatlarning har qanday o'sishi, ya'ni $\Delta A = \Delta (a+I+G+Xn)$ multiplikator samarasi hisobiga yalpi daromadlarning ko'proq miqdorga (ΔY) oshishiga olib keladi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori muvozanatli YaIM o'zgarishning avtonom xarajatlarning har qanday komponenti o'zgarishiga nisbatini ko'rsatadi: $\mu = \Delta Y / \Delta A$:

Bu erda: μ - avtonom xarajatlar mul'tiplikatori;

ΔY – muvozanatli YaIMning o'zgarishi;

ΔA – avtonom xarajatlarning Y o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi.

Mul'tiplikator - yalpi daromadlar avtonom xarajatlarning dastlabki o'sishi (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi.

Avtonom iste'mol ΔS_A miqdorga o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlar (U) ning o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) $MRS \times \Delta S_A$ miqdorda o'sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar $MRS \times \Delta S_A$ miqdorda yana o'sadi. Shunday qilib, «daromad-xarajat» ko'rinishidagi doiraviy aylanish bo'yicha jarayon davom etaveradi.

$\Delta S_A \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$ va hokazo.

Ushbu oddiy vaziyatdan ko'rinib turibdiki, yalpi daromadlar (Y), avtonom iste'molning dastlabki o'zgarishi $\Delta S_A \uparrow$ ga nisbatan bir necha marta ko'p o'zgaradi. Bu shuni bildiradiki, S, I, G yoki X_n miqdorlardagi oddiy o'zgarishlar ham ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, multiplikator iqtisodiy beqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning byudjet-soliq siyosatidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib, o'rnatilgan barqarorlashtirgichlar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu tizim iste'molga chegaralangan moyillikni kamaytirish orqali multiplikatsiya samarasini pasaytiradi.

Multiplikator samarasi mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, dastlab iqtisodiyotga investitsiyalar miqdori 5 mlrd. so'mga ko'paysin. Bu, o'z navbatida ish haqi, renta, foyda ko'rinishda uy xo'jaliklari daromadiga

aylanadi. Agar iste'molga chegaralangan moyillikni 0,75 ga yoki 75 %ga teng deb olsak. Uy xo'jaliklari bu daromadning 75 foizini, ya'ni 3,75 mlrd. so'mni iste'mol xarajatlariga sarflaydi, qolgan 1,25 mlrd. so'mni jamg'aradi. Sarflangan 3,75 mlrd. so'm boshqalar uchun daromad hisoblanadi. O'z navbatida ular ham 3,75 mlrd. so'mning 75 foizini iste'mol uchun sarflaydilar va 25 foizini jamg'aradilar. Bu jarayon oxirgi so'm jamg'arilmaguncha davom etadi.

$$\text{Bunda: } \mu = \Delta Y / \Delta A = 20 / 5 = 4 \quad \text{va} \quad \mu = 1 / (1 - 0,75) = 4$$

$$\text{va bundan :} \quad \mu = \frac{\Delta Y}{\Delta A} = \frac{1}{1 - \text{MPC}}$$

Demak iste'molga chegaralangan moyillik qancha katta bo'lsa, multiplikator samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Multiplikatorning matematik mohiyati cheksiz kamayib boruvchi geometrik progressiyani anglatadi, ya'ni $\mu = 1 + b + b^2 + b^3 + b^4 + \dots + b^n$, bu erda $b = \text{MPC}$.

Tenglikning ikki tomonini b ga ko'paytiramiz: $\mu b = b + b^2 + b^3 + b^4 + \dots + b^{n+1}$

Endi birinchi tenglamadan ikkinchisini ayiramiz:

$$\mu - \mu b = 1 - b^{n+1}, \quad \mu (1 - b) = 1 - b^{n+1}$$

Hisob kitob natijalarini quyidagicha tasvirlaymiz:

$$\mu = (b^{n+1}) / (1 - b)$$


b kasr son va b^{n+1} nolga juda yaqin bo'lgani uchun

$$\mu = 1 / (1 - b) \quad \text{tenglik to'g'ri bo'ladi.}$$

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdorining katta yoki kichikligi byudjet soliq siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'z xarajatlarini oshirayotganda, yoki investitsiya xarajatlarini oshirish choralarini ko'rayotganda, bu xarajatlar jami talabni qancha miqdorga oshirib yuborishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (U_0) potentsial (U^*) hajmidan kam bo'lsa, jami talab samarasiz hisoblanadi. Ya'ni, $AD = AS$ tenglikka erishilgan bo'lsada, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to'liq bandligi darajasini

ta'minlamaydi. Yalpi talabning etishmasligi iqtisodiyotga depressiv ta'sir ko'rsatadi.



17-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potentsial hajmi o'rtasidagi retsession uzilish

YaIMni to'liq bandlikning noinflyatsion darajasiga qadar o'stirish uchun jami talab (jami xarajatlar) ko'paytirilishi zarur bo'lgan miqdor retsession uzilish deyiladi (17-chizma).


Ishlab chiqarishda to'liq bandlikka erishish va retsession uzilishni yo'qotish uchun jami talabni rag'batlantirish va muvozanatli yalpi daromadning o'sishini ta'minlash lozim. Yalpi daromadning o'sishi ΔU quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta U = \text{Retsession uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori}$$

YaIMni to'liq bandlikning noinflyatsion darajasigacha pasaytirish uchun yalpi talab (yalpi xarajatlar) kamayishi zarur bo'lgan miqdor inflyatsion uzilish deyiladi.

Agarda, ishlab chiqarish haqiqiy hajmi (U_0) potentsial (U^*) hajmidan ko'p bo'lsa, yalpi xarajatlar ortiqcha hisoblanadi. Yalpi talabning ortiqchaligi iqtisodiyotda inflyatsiya jarayoniga olib keladi. Boshqacha aytganda yalpi talab hajmining yalpi taklif hajmidan qisqa muddatda katta bo'lishi oqibatida haqiqiy va potentsial YaIM hajmlari o'rtasida inflyatsion uzilish ro'y beradi (18-chizma). Bu

uzilishni bartaraf qilish uchun yalpi xarajatlarni kamaytirish, boshqacha qilib aytganda yalpi talabni cheklash zarur.



18-chizma. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potentsial hajmi o'rtasidagi inflyatsion uzilish

Grafikda bu jarayon jami muvozanatli yalpi daromad hajmidagi (ΔU) qisqarishni anglatadi va u quyidagicha bo'ladi:

$\Delta U = -\text{Inflyatsion uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori}.$

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab- yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda narxlar darajasi va ish haqi o'zgarmas miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zahiralarining o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar: tovar va xizmatlar bozori, rejalashtirilgan xarajatlar, haqiqiy xarajatlar, muvozanat, Keyns xochi, qisqa muddatli muvozanat, tovar moddiy zahirasi.

Nazorat savollari

1. Tovar va xizmatlar bozorida muvozanat deganda nima tushuniladi?
2. Rejalashtirilgan xarajatlar va daromad tengligini qanday izohlash mumkin?
3. Nima uchun haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi?
4. Rejalashtirilayotgan xarajatlar funktsiyasi qanday ko'rinishga ega?
5. Tovar moddiy zahiralari qanday vaziyatda yaratiladi?
6. Keyns xochi tovar va xizmatlar bozorida qanday holatni tahlil etishda qo'llaniladi?
7. Investitsiyalar funktsiyasi va keyns xochi asosida qanday bog'liqlik o'rnatiladi?

Mavzuga oid masalalar

1. Mamlakat aholisi ixtiyorida daromadning 20%i jamg'ariladi, avtonom iste'mol: $a = 200$. Narxlar darajasi va ish haqining nominal stavkasi o'zgarmaydi. Investitsiyaga talab $I = 200$, davlat xaridlari $G = 800$, real milliy daromad $Y = 3000$. Soliqlar hajmi daromad darajasiga bog'liq emas.

Agar davlat xarajatlari 50 birlikka oshsa - da soliqlar hajmi o'zgarmasa, real milliy daromad qanchaga o'zgaradi.

* * *

2. Real daromadning darajasi $Y = 4000$, Iste'molga bo'lgan chekli moyillik $MPS = 0,8$, potentsial daromad $Y^* = 4200$. Mamlakat iqtisodiyoti to'la bandlik sharoitidagi daromadga erishishi uchun hukumat soliq tushumlarini qanchaga o'zgartirishi kerak.

* * *

3. Iqtisodiyot modeli quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Iste'mol funktsiyasining ko'rinishi $C = 800 + 0,9 (Y - T)$, davlat xarajatlari $G = 500$, investitsiya hajmi $I = 360$, soliqlar hajmi $T = 400$.

- 1) Muvozanatli Y ni aniqlang;
- 2) Davlat xarajatlari va soliq multiplikatorlarini aniqlang;

3) Agar potentsial $YaIM = 15000$ teng bo'lsa, unga erishish uchun hukumat davlat xarajatlarini qanchaga o'zgartirish kerak?

* * *

4. O'tgan yilda iqtisodiyotda $YaIM = 1000$, $G = 100$ tashkil etdi. Mamlakat hukumati o'z xarajatlarini 50ga oshirib, $YaIM$ ni 200ga o'sishiga erishishdi va ikki yil davomida davlat byudjetining kamomadi 0ga teng bo'lgan. Iste'molga bo'lgan cheklangan moyillikni aniqlang.

5. 2012 yilda $YaIM - 2300$, xususiy investitsiyalar 200ni tashkil etgan. 2013 yilda esa bu ko'rsatkichlar 2550 va 250ga teng bo'lgan. Agar soliqlar solinmasa va davlat xarajatlari 100 ga teng bo'lsa, iste'mol va jamg'arma funktsiyalarining ko'rinishi qanday bo'ladi? Daromadni aniqlang.

* * *

6. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan.

$$Y=S+I$$

$$S=100+0,8Y$$

$$I=50$$

Bu erda U -daromad, S -iste'mol, I -investitsiyalar

Quyidagilarni aniqlang:

- a) daromadning muvozanatli darajasi
- b) jamg'arma va iste'molning muvozanatli darajasi
- v) ishlab chiqarish darajasi 800 ga teng bo'lganda mahsulot zahiralarini rejalashtirilmagan o'sishi qanday bo'lishini

* * *

7. 2012 yilda $YaIM - 2300$, xususiy investitsiyalar 200ni tashkil etgan. 2013 yilda esa bu ko'rsatkichlar 2550 va 250ga teng bo'lgan. Avtonom soliqlar hajmi - 120, davlat xarajatlari 100ga teng. Iqtisodiyotda haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlikdan 2% oshgan, davriy ishsizlikning $YaIM$ o'zgarishiga ta'sirchanlik koeffitsienti 3ga teng. Avtonom xarajatlar hajmini, muvozanatli va potentsial

YaIM, inflyatsion (retsession) uzilishni hamda bu uzilishni bartaraf qilish uchun davlat xarajatlarini qanchaga oshirish kerakligini aniqlang.

* * *

8. Yopiq iqtisodiyotda soliqning 20 mlrd. dollarga o'sishi va bu bilan bog'liq jami talabning qisqarishi sof ichki mahsulot (SIM)ni 60 mlrd. dollarga pasayishiga olib keldi. SIM miqdori investitsiyaga va soliq darajalariga ta'sir etmaydi. Xarajatlar multiplikatori miqdorini aniqlang.

* * *

9. O'tgan yilda YaIM 1000, davlat xarajatlari 100ga teng bo'lgan. hukumat davlat xarajatlarini 50ga oshirishi bilan YaIM ning 200ga o'sishiga erishdi. Iste'molga bo'lgan cheklangan moyillik miqdorini aniqlang.

* * *

10. Iste'mol funktsiyasi berilgan: $C = 90 + 0,85Y$. Agar uy xo'jaliklari daromadi 350ga teng bo'lsa, jamg'arma hajmini aniqlang.

* * *

11. Iste'mol funktsiyasi quyidagicha: $C = 60 + 0,8Y$. Avtonom investitsiyalar hajmi - 50, davlat xarajatlari - 20. quyidagilarni aniqlang:

- a) ushbu iqtisodiyot uchun muvozanatli daromad darajasini;
- b) multiplikator miqdorini;
- c) davlat xarajatlari oshgan holda $G = 30$ muvozanatli daromad darajasini.

VIII BOB. PULGA TALAB FUNKSIYASI

8.1. Pul tushunchasi va bozor iqtisodiyotida uning tutgan o'rnini

Milliy ishlab chiqarish o'rtasidagi barcha iqtisodiy munosabatlar pul yoki uning vositalari yordamida amalga oshiriladi, o'lchanadi, baholanadi.

Pul – maxsus xususiyatga ega bo'lgan tovar hisoblanib, ayirboshlashning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. U tovarlar ayirboshlashda umumiy teng qimmatlilik rolini bajaradi. Pul maxsus xususiyatga, ya'ni likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi.

Xar qanday buyumning likvidlilik uni sezilarsiz sarf xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatini bildiradi.

Agar sarf xarajatlar nulg teng bo'lsa, unda bunday buyum mutloq likvidli hisoblanadi. Masalan 1000 so'mlik qiymatga ega bo'lgan pulni boshqa ko'pgina buyumlarga oson almashtirish mumkin va bunda sotuvchilar 1000 so'mlik qog'ozning qiymatini hech qanday tushirmasdan qabul qilishadi, ya'ni bu erda ayirboshlash jarayoni butunlay sarf xarajatlarsiz kechadi.

Ayirboshlash kengayishi bilan kredit pullar deb ataluvchi vekselar, banknotlar, cheklar, sertifikatlar va hokozolar paydo bo'la boshladi. Ular tovar ayirboshlashni, ya'ni oldi – sotdi jarayonini engillashtirish, tezlashtirish va ixchamlashtirishga xizmat qiladi.

Keng ma'noda pul deganda nimalar tushuniladi, pul massasiga nimalar kiritiladi? Bu savolga javob berish juda muhim, chunki iqtisodiyotni barqarorlashtirish, uni bir zaylda rivojlanishi ko'p hollarda pul massasini samarali tartibga solishga bog'liq.

Hozirgi sharoitda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda pul massasining asosiy tashkil etuvchilari yoki pul agregatlari quyidagicha:

Pul₁ (M₁) – “tor ma'nodagi pullar” yoki muomaladagi naqd pullar (M₀) + aholi va korxona, firmalarning talab qilib olinadigan omonatlari hamda joriy to'lov aylanishiga xizmat qiluvchi cheklar.

Pul₂ (M₂) – bu M₁ + aholi va korxona, firmalarning muddatli omonatlari.

Pul₃ (M₃) – “keng ma’nodagi pullar” yoki jami pul massasi bo’lib, o’z ichiga M₂ + likvidli qimmatli qog’ozlar va byudjet, jamoat tashkilotlari hisoblaridagi mablag’lar hamda byudjet mablag’lari va kapital qo’yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag’lar.

Pul₄ (M₄) – bu M₃ + banklarda saqlanayotgan pul shaklida bo’lmagan likvid mablag’lar.

Ayrim mamlakatlarda pullarning bunday bo’linishi boshqacharoq bo’lishi mumkin. Masalan, Rossiyada M₀, M₁, M₂, M₃ pul agregatlari ishlatiladi. M₀ pul agregati bu muomaladagi naqd pullar, $M_1 = M_0 +$ korxona, firmalarning joriy hisoblaridagi mablag’lari, ularning depozitlari, aholining talab qilib olinadigan depozitlari va davlat sug’urtasi mablag’lari, M₂ pul agregati bu M₁ + aholini tijorat banklaridagi muddatli depozitlari, shu jumladan kompensatsiyalar, M₃ pul agregati M₂ + sertifikatlar va davlat zayomlari obligatsiyalari.

8.2. Pulga bo’lgan talab

Pul insonlarga o’zlarining kundalik ehtiyojlarini qondirish va jamg’arish uchun kerak. Shu sababli pulga bo’lgan umumiy talab bitimlar uchun pulga talabdan va moliyaviy aktivlar uchun pulga talabdan iborat.


Bitimlar uchun pulga talab – bu aholiga va korxona, firmalarga tovar hamda xizmatlarni xarid qilish uchun zarur bo’lgan pul miqdoridir. U nominal YaIMni o’sishi bilan oshib boradi va pulning muomala vositasi vazifasini bajarishi bilan bog’liq. Nominal YaIM qancha ko’p bo’lsa, oldi – sotdi jaryoniga xizmat qilish uchun shuncha ko’p pul kerak bo’ladi.

Moliyaviy aktivlar tomonidan pulga bo’lgan talab pulning jamg’arish vositasi sifatidagi funktsiyasiga asoslangan, ya’ni odamlar o’zlarining moliyaviy aktivlarni aksiyalar, obligatsiyalar, bankdagi omonatlari ko’rinishida qo’llarida tutib turadi. Jamg’arish zaruriyati ham pulga bo’lgan talabni shakllantiradi.

Pulga bo’lgan umumiy talab foiz stavkasi miqdoriga yoki pulning ishlatilishi bahosiga nisbatan teskari bog’liqlikda bo’ladi. Foiz stavkasi qanchalik yuqori

bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha past bo'ladi va aksincha, foiz stavkasini pasayishi bilan pulga bo'lgan talab oshadi.

Chizmadagi D_m chizig'i foiz stavkasining xar bir mumkin bo'lgan miqdorida odamlar bitimlar va jamg'armalar uchun istagan pulning umumiy miqdorini ko'rsatadi.



19-chizma. Foiz stavkasi va pulga bo'lgan talab o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

8.3. Pulga bo'lgan talabning keynscha nazariyasi

Keyns iqtisodiy agentlar pulni ushlab turishlariga nima sabab bo'lishini o'rganish asosida pulga talab bildirishdagi uchta sababni, ya'ni transaksion, ehtiyotkorlik va chayqovchilik sabablarini ajratadi.

Pulga talab bildirishning transaksion sababi iqtisodiy agent kundalik transaksiyalar, ya'ni bitimlarni amalga oshirish uchun qo'lida qancha pul ushlab turishni hohlashini ko'rsatadi. Pulga talab bildirish transaksion sababining eng sodda formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$M_d = kPY$$

Bu erda M_d - pulga bo'lgan transaksion talab, k - pulning aylanish tezligiga teskari proportsional bo'lgan kembridj koeffitsienti, P - narx darajasi, Y -daromad. Shunga muvofiq ravishda transaksion talabning real miqdorini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_d/P = kY$$

Ehtiyotkorlik sababi bo'yicha pulga talab qo'zda tutilmagan holatlar uchun iqtisodiy agentlar qanday miqdordagi pullarni ushlab turishni hohlashini bildiradi.

Keltirilgan ikkisabab o'rtasidagi farq shundaki, transaksion sabab rejalashtirilgan, ehtiyotkorlik sababi esa ko'zda tutilmagan xarajatlar bilan bog'liq.

Chayqovchilik sababi bo'yicha pulga talab turli foiz stavkalarida uy xo'jaliklari qanday miqdordagi pullarni ushlab turishini hohlashini anglatadi. Foiz stavkalari o'rtasidagi farq unchalik katta bo'lmaganda chayqovchilik sababi bo'yicha pulga talabni quyidagi chiziqli funktsiya ko'rinishida ifoda etish mumkin:

$$M_d = M_i (i_{\max} - i_{\min})$$

Baumol-Tobin modeli har bir davr boshlanishida daromad uy xo'jaliklariga naqd emas, balki depozitga kafolatlangan foizli daromad bilan o'tkazilishini ko'zda tutadi. Shuning uchun pulni naqd olish uchun uy xo'jaliklari konvertirlash bo'yicha xarajatlarni va omonat miqdoridan olinadigan omonatga foizli daromadni yo'qotishni minimallashtirishi lozim.

Tayanch so'z va iboralar: pulga bo'lgan talab, bitimlar uchun pulga talab, aktivlar uchun pulga talab, pul agregatlari, tor ma'nodagi pullar, keng ma'nodagi pullar, transaksion sabab, ehtiyotkorlik sababi, chayqovchilik sababi, Baumol-Tobin modeli.

Nazorat savollari

1. Pulga bo'lgan talab deganda nimani tushunasiz?
2. Bitimlar uchun pulga talab nimani bildiradi?
3. Aktivlar uchun pulga talab qanday?
4. Pulga bo'lgan umumiy talab qanday aniqlanadi?
5. Pulga talab bildirishning transaksion sababini tushuntiring.
6. Pulga talab bildirishning ehtiyotkorlik sababi nimadan iborat?
7. Pulga talab bildirishda chayqovchilik sababini qanday izohlash mumkin?
8. Baumol-Tobin modelining mohiyati nimada?

IX BOB. PUL TAKLIFI. PUL BOZORIDA MUVOZANAT

9.1. Pul taklifi va pul multiplikatori

Bank tizimidan tashqaridagi barcha mavjud naqd pullar va xo'jalik sub'ektlari tomonidan bitimlar tuzish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan depozitlar pul taklifi deb ataladi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M = S + D$$

bunda,

M – pul taklifi;

S – aholi qo'lidagi naqd pullar;

D – bank tizimi joriy hisoblaridagi mablag'lar.

Aksariyat ko'pchilik mamlakatlarda davlat pul chiqarishga monopol huquqqa ega, shuning uchun u butun pul massasi miqdorini tartibga solib turadi, ya'ni pul siyosatini olib boradi. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa – Markaziy bank ixtiyorida, shu bilan birga, pul taklifini ko'paytirishga yoki “pul yaratish” qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalarini emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 ga o'sgan bo'lsa, rezerv normasi 20 foizga teng bo'lganda, u 400 ni o'zida qoldirib, qolgan 1600 ni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600ga ko'paytiradi va u endi $2000 + 1600 = 3600$ ni tashkil etadi. Ya'ni omonatchilarni depozitlardagi 2000 dan tashqari, yana 1600 qarz oluvchilarning qo'llarida qoladi. Agar bu 1600 birlik mablag'lar yana bankga tushsa (masalan, B bankga), unda 20 foizga teng bo'lgan rezerv normasida u 320 ni qoldirib, 1280 ni kreditga beradi hamda shu miqdorga pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi va pirovard natijada jami pul taklifi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Dastlabki omonat} = 2000$$

$$\text{A bankning ssudasi} = (1 - 0,2) \times 2000 = 1600$$

$$\text{B bankning ssudasi} = (1 - 0,2) \times (1 - 0,2) \times 2000 = 1280$$

$$\text{Jami pul taklifi} = 1 / 0,2 \times 2000 = 10000$$

Bu formulani quyidagi ko'rinishida yozish mumkin:

$$M = 1/rr \times D$$

bunda, M – jami pul taklifi;

rr – bank rezerv normasi;

D – dastlabki omonat.

Keltirilgan formuladan ko'rinishda, pul taklifi $1/rr$ koeffitsientiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori deb ataladi. U ushbu bank rezervlar normasida ortiqcha rezervlarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarning eng ko'p miqdorini bildiradi.

Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblaridagi mablag'lardan, balki aholi qo'lidagi naqd pullardan ham tashkil topadi. Shuning uchun pul taklifining umumiy modeli pullarni bank depozitlaridan naqd pulga mumkin bo'lgan oqib o'tishini hisobga olib tuziladi. Naqd pullarni miqdorini omonatlar hajmi bilan bog'liqligini deponentlash koeffitsienti sr ifodalaydi. Bu koeffitsientni va bank multiplikatorini qo'llab pulning umumiy taklifini aniqlash mumkin.

$$Ms = \frac{sr + 1}{sr + rr} \times V$$

bunda, M – pulning umumiy taklifi;

$sr = S/D$ teng bo'lgan deponentlash koeffitsienti. U pul mablag'larni naqd pulga va omonatlarga taqsimlanishini aholi tomonidan maqbulligini bildiradi;

$rr = R/D$ teng bo'lgan bank rezervlari normasi

$V = S + R$ ga teng bo'lgan pul bazasi yoki quvvati kuchaytirilgan pullar, ya'ni naqd pullar va bank rezervlari yig'indisi.

Yuqoridagi $sr + 1/sr + rr$ ifodani pul multiplikatori deb ataladi va odatda m bilan belgilanadi. Bu holatda pulning umumiy taklifi quyidagicha aniqlanadi: $Ms = \mu_b \times V$.

Markaziy bank bevosita pul bazasi ustidan nazorat qiladi va uning miqdoriga ta'sir ko'rsata borib, mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyatni hamda milliy iqtisod

rivojlanishini o'zgartiradi.

9.2. Pul bozorining muvozanatli holati

Pul bozoridagi muvozanat bu uning shunday holatiki, bunda pulga talab hajmi va pul taklifi hajmi bir biriga mos keladi. Uni sodda ko'rinishda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin :

$$M \times V = Y \times R$$

Bunda, M- muomalaga chiqarilgan pul;


V – pulni aylanish tezligi;

R – YaIM deflyatori;

Y – real YaIM

Ushbu ayniyatni pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi deb ataydilar. Uning o'ng qismi real pul zaqirasi taklifini, chap qismi nominal YaIMni ifodalaydi. Masalan, iqtisodiyotda 1000 birlik pul muomalada bo'lsa, bunda xar bir pul birligi yil davomida 3 marta qo'ldan qo'lga o'tsa yoki bir yilda 3 ta bitimga xizmat qilsa, unda pul zahirasi taklifi real hisobda 3000ga teng. U mamlakatdagi bitimlarning umumiy soniga, ya'ni nominal YaIM hajmiga muvofiq kelishi lozim.

Pul bozoridagi muvozanat holatining grafik tasviri o'zida ikki chiziqning: pul taklifini ifodalovchi S_m chizig'ini va pulga bo'lgan talabni ifodalovchi D_m chizig'ini kesishuvini aks ettiradi.



20-chizma. Pul bozoridagi muvozanat

Mahsulotlar bozorida bo'lgani kabi talab va taklifning kesishishi muvozanat narxini belgilaydi. Pul bozorida bunday muvozanatli narx bo'lib foiz stavkasi hisoblanadi. Davlat pul taklifini oshira borib, uning vaqtinchalik ortiqchaligini paydo etadi, natijada foiz stavkasi tushib ketadi, yoki pul taklifini qisqartira borib, teskari samaraga erishadi, ya'ni pul etishmasligini paydo etadi va natijada foiz stavkasi yoki puldan foydalanish narxi o'sadi.

Tayanch so'z va iboralar: pul taklifi, depozitlar, bank multiplikatori, deponentlash koeffitsienti, pul bazasi, rezerv normasi, pul multiplikatori, pul bozoridagi muvozanat

Nazorat savollari

1. Pul taklifining mohiyati qanday?
2. Bank multiplikatori qanday aniqlanadi?
3. Rezerv normasi nima uchun xizmat qiladi?
4. Deponentlash koeffitsienti nimani ifodalaydi?
5. Pul bazasi tarkibi qanday?
6. Pul bozoridagi muvozanat nimani aks ettiradi?

Mavzuga oid masalalar

1. Iqtisodiyotda pul bazasi 300, majburiy zahiralar 130, pul massasi 960, depozitlar 790. Berilgan ma'lumotlar asosida pul multiplikatorini aniqlang.

* * *

2. Agar rezerv me'yori 0,35 ga, deponentlash koeffitsienti esa 0,3 ga teng bo'lsa:

- a) pul multiplikatori miqdorini aniqlang;

b) agar Markaziy bank ochiq bozordagi operatsiyalar orqali pul taklifini 350 mln. so'mga oshirmoqchi bo'lsa, davlat obligatsiyalarini qanday miqdorda sotib olishi kerak?

* * *

3. Iqtisodiyotda pul bazasining hajmi 200 mln.so'm. Deponentlash koeffitsienti 0,8. Tijorat banklarining rezerv me'yori 20%. Real pul qoldiqlariga bo'lgan talab quyidagi tenglik orqali ifodalanadi: $L = 0,4Y - 50i$, daromadning hajmi $Y = 800$. Narxlar darajasi $P = 4$. Muvozanatli foiz stavkasini aniqlang.

* * *

4. Pulga bo'lgan umumiy talab nominal ifodada 1000 so'mga teng. Aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab funktsiyasi: $L = 204 - 20i$. Nominal foiz stavkasi $i = 20\%$.

- a) bitimlar uchun pulga bo'lgan talabni aniqlang;
- b) agar nominal milliy daromad 2400 ga teng bo'lsa, pul aylanish tezligi nechaga teng bo'ladi.

* * *

5. Bank multiplikatori 2,5 ga teng. Pul taklifining qo'shimcha o'sishi 60 mln. so'mni tashkil etdi. Rezerv me'yorini va pul taklifining qo'shimcha o'sishiga sabab bo'lgan ortiqcha rezervlar hajmini aniqlang.

* * *

6. Iqtisodiyotda pul massasi 2,7 mlrd.so'mga teng. Pullarni depozitlash koeffitsenti 0,8 ga teng bo'lsa, naqd pullar miqdori (S) nimaga teng bo'ladi?

* * *

7. Agar yillik nominal foiz stavkasi 280 foizga, yillik inflyatsiya darajasi – 540 foizga teng bo'lsa, real foiz stavkasi qanday bo'ladi?

X BOB. DAVLAT BYUDJETI. SOLIQLAR

10.1. Davlat byudjetining mohiyati, funktsiyalari va ahamiyati

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarning bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning nisbatan kattagina qismini to'plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) rivojlanishiga yo'naltirish imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasidir.

Mohiyatiga ko'ra davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi bo'lib, shunga mos ravishda moliya tizimiga doir barcha xususiyatlarga ega va unga tegishli bo'lgan barcha funktsiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o'zida, davlat byudjeti faqat o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o'z navbatida, davlat byudjetini moliya tizimining boshqa bo'linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o'rinni egallashga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlatga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo'lsa-da, uning bu xislati, ya'ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslari asosiy taqsimlovchi sifatidagi roli faqat byudjetda katta kuch bilan namoyon bo'ladi. Yagonalik va yuqori darajada markazlashuv davlat byudjetining muhim xususiyatlaridandir. Davlat byudjetiga xos xususiyatlar mablag'lar bilan byudjet siyosatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak: 1) davlat miqyosida yalpi ichki mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar; 2) davlatning asosiy moliyaviy rejasi. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning moliyaviy vositasi sifatida davlat byudjeti boshqa xususiyatlarga ham ega. Yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali taqsimlanishi ma'lum darajada, almashuvdan ajralgan holda sodir bo'ladi.

Qiymatning davlat byudjeti orqali harakatlanishi moddiy mahsulotning harakatidan to'liq uziladi va sof qiymat xarakterini kasb etadi. Faqat davlat byudjetidan tashqarida, byudjet resurslari sarflanayotganda taqsimlash va almashuv operatsiyalarining qayta qo'shib ketishi sodir bo'ladi. Davlat byudjetining mohiyatini ochib berishda u orqali amalga oshiriladigan taqsimlash jarayonlarining mazmunini ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yalpi ichki mahsulotni davlat byudjeti orqali taqsimlash bir vaqtning o'zida, o'zaro bog'langan va ma'lum darajada mustaqil bo'lgan uch bosqichga egadir: 1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (byudjet daromadlari); 2) hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli byudjet fondlarini yaratish; 3) byudjet fondidan foydalanish (byudjet xarajatlari).

Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning bu bosqichlari bir vaqtning o'zida va uzluksiz sodir bo'lsada, bu ularning nisbatan alohidaligini ham inkor etmaydi. Bu bosqichlarni bo'lish va ularni alohida-alohida ko'rib chiqish orqali byudjetli taqsimlashning xarakteri, shakli va metodlari to'g'risida osonroq va aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Birinchi bosqichda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli pul mablag'larining bir qismi davlatning qo'lida to'planishi sodir bo'ladi. Ana shu asosda mablag'larni oluvchi sifatida davlat bilan mablag'larni to'lovchilar o'rtasida byudjet munosabatlari vujudga keladi. Bu munosabatlar, asosan, majburiylik (imperativlik) xarakteriga egadir. Bu bosqichdagi taqsimlash jarayonlarining xarakterli xususiyati shundaki, byudjetga tushuvchi mablag'lar ajratib olingan bo'lib, ular qat'iy chegaralanmagan. Ularning barchasi hozircha yagona maqsadga — umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Davlat pul fondining alohidaligiga aniq maqsadlarga mo'ljallangan fondlarni kristallizatsiya qilish boshlanganda barham beriladi.

Byudjet fondini shakllantirishda ikki xil tushunchadan foydalaniladi:

- 1) byudjetga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar);
- 2) davlat byudjetining daromadlari.

Davlat byudjetiga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar), eng avvalo, to'lovchilarning xarajatlaridan iborat bo'lib, ularning daromadlaridan chegirilsada, bir vaqtning o'zida ular davlat byudjetida davlatning daromadlari sifatida gavdalanadi. Ana shundan taqsimlash munosabatlariga kirishgan ishtirokchilar (tomonlar) o'rtasidagi manfaatlarda ba'zi bir farqli jihatlar vujudga keladi. Davlat byudjetning daromadlarini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, bu narsa u yoki bu darajada to'lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) manfaatdorligini pasaytiradi. Davlat byudjetining daromadlari o'zining yaxlitligi bilan farqlanadi va ular yagona maqsadga — ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Byudjet daromadlari davlatning sub'ektlar (xo'jaliklar va aholi) bilan o'zaro munosabatlarining aniq chegaralangan, aniqlangan qismini ifoda etadi. Bu munosabatlar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ular umumiy belgilarga ega va umumlashtirilgan, abstrakt holda ishlab chiqarish (byudjet) munosabatlarining alohida elementi sifatida maydonga chiqadi. Byudjet daromadlari o'zlarining iqtisodiy tabiatiga ko'ra ob'ektiv bo'lib, ular davlatning sub'ektlar (xo'jaliklar va aholi) bilan barqaror aloqalarini ifodalaydi. Ularning ob'ektiv zarurligi davlatning o'ziga xos funktsiyalarga ega bo'lgan mavjudligi bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti daromadlarining farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, ular taqsimlash natijasi (byudjetga to'lovlar) va yanada taqsimlash ob'ekti (byudjet ichidagi fondlarni shakllantirish va moliyalashtirish) sifatida maydonga chiqadi. Demak, davlat byudjetining daromadlari aniq ifodalangan byudjet kategoriyasi bo'lib, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish taqsimlashning byudjet mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining xarajatlari xuddi uning daromadlari singari, ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, bu davlatning xarajatlari, boshqa tomondan esa — sub'ektlarning ixtiyoriga tushadigan qaytarilmaydigan mablag'lar bo'lib, ularning daromadlariga aylanadi va ular tomonidan turli maqsadlarga mo'ljallangan tegishli fondlarni shakllantirishda foydalaniladi. Ana shu ikkiyoqlama xarakter davlat

byudjeti xarajatlarning yakuniy emas, balki taqsimlash jarayonlarining oraliq bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu erda byudjet fondlarining egasi — davlat va pul mablag'larini oluvchilar — sub'ektlar o'rtasida yangi taqsimlash munosabatlari paydo bo'ladi. Daromadlar singari, davlat byudjetining xarajatlari ham ob'ektiv iqtisodiy kategoriyadir. U kategoriya sifatida byudjetli taqsimlash munosabatlarining ma'lum bir yakuniy qismini abstrakt holda umumlashtiradi. Ularning moddiylashuvi byudjetdan sub'ektlarga pul mablag'larining teskari oqimi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni deganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag'larni byudjetlar ichida taqsimlash va sub'ektlarni byudjetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o'zaro bog'langan taqsimlash munosabatlarining butun kompleksi tushuniladi. . Davlat byudjeti ko'p sonli va bo'lingan taqsimlash aktlarining majmui orqali yalpi ichki mahsulot harakatining asosiy yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Aynan byudjet iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishida, iste'mol fondining qismlarga ajralishiga, sof daromadning davlat va sub'ektlar o'rtasida bo'linishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko'rinishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fondlarini yaratish va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuiga davlat byudjeti deyiladi.

Davlat byudjeti ikki xil funktsiyani bajaradi:

- 1) taqsimlash;
- 2) nazorat.

Davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo'ladi. Bu davlat byudjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmunida yaqqol ko'rinadi.

Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir; Shuning uchun ham davlat byudjetining taqsimlash funktsiyasi o'ziga xos bo'lgan xususiyatga ega bo'lib, undan taqsimlangan yalpi

ichki mahsulotni qayta taqsimlashda foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida byudjet mablag'lari milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa ana shu ulush qismlarga bo'linadi va ko'p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Davlat byudjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo'linmalari bevosita yoki bilvosita bog'langandir.

Davlat byudjetining nazorat funktsiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyat umumiylik, universallik. Bu milliy iqtisodiyotni tezkor boshqarishda davlat byudjetining nazorat funktsiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Davlat byudjetining nazorat funktsiyasiga tegishli bo'lgan ikkinchi xarakterli xususiyat moliyaviy munosabatlarning alohida sohasi sifatida davlat byudjetining yuqori darajada markazlashtirilganligidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishini, ma'lum ketma-ketlikda bo'ysunishning tizimligini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shart-sharoit yaratib beradi.

Kuchli majburiylik, imperativlik davlat byudjetining nazorat funktsiyasiga tegishli bo'lgan uchinchi xususiyatdir. Byudjet davlatniki bo'lganligi uchun uning nazorat funktsiyasi milliy iqtisodiyotni boshqarish vositalaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjetining nazorat funktsiyasi 1) davlat byudjetining daromadlarini oshirish uchun pul mablag'larini jalb qilish; 2) mablag'larni sarflashning qonuniyligini ta'minlash; 3) byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.

Sub'ektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda davlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:
— moliyaviy resurslarga bo'lgan yangbi talabni kelgusi byudjet yilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

- moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud byudjet resurslarini manyovr qilish, ya'ni byudjet kreditlarini bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim sub'ektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqarilmasligi bilan izohlanadi;
- qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zahira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

10.2. Davlat byudjetining daromadlari

Davlat byudjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu byudjet kategoriyasining namoyon bo'lish shakli byudjetga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat byudjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda (milliy daromad) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq davlat byudjetida mablag'larni yig'ish miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;
- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng taqsimlanmog'i lozim;

- soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;
- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;
- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;
- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;
- sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratish, ya'ni, sub'ektlarga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini davlat byudjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Chegaradan o'tib ketilganda sub'ektlarning mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi boshlanadi;
- sub'ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan olingan barcha daromadlar davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu printsipting ta'siri ostiga sub'ektlar ma'muriyati noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;
- ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu printsipt davlat byudjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;
- byudjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Mablag'larni sub'ektlar ixtiyorida byudjetga o'tkazilishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishga rag'batlantirishi kerak.
- byudjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsipt byudjet daromadlarini aholi mablag'lari hisobidan shakllantirishda qo'llanilib, uning

natijasida aholi daromadlari darajasiga bog'liq ravishda bir qismi byudjetga o'tkaziladi.

Davlat byudjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni byudjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Davlat byudjetining daromadlari o'z manbalariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- solikli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Byudjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanish tufayli olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan to'lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, tovon to'lashlar va davlat sub'ektlariga etkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha olingan mablag'lar hamda majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet ssudalari va byudjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.

Tushumlarning quyidagi ko'rinishlari ham byudjet daromadlari tarkibida hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;
- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda byudjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;
- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aktsiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (solliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslik shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda davlat byudjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiyalanadi:

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar; yagona soliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan biigalikda) davlat byudjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliqlar kiradi.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aktsizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'i; er solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.

4. Ustama foydadan olinadigan soliq.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.

6. Boshqa daromadlar.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra davlat byudjetining daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

— xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olinadigan daromadlar;

— aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra davlat byudjetining daromadlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

— nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;

— davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;

— aholidan olinadigan mablag'lar.

Davlat byudjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum

lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi.

Sub'ektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llab, olinishi mumkin:

- 1) solikli metodlar;
- 2) nosolikli metodlar.

Solikli metodlar uchun mablag'larning davlat byudjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, daromad (foyda) solig'i, er solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Nosolikli daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir. Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarishni talab etmaydigan mablag'lar ham davlat byudjetining daromadlari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Moliya vazirligi 2013 yilgi Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha e'lon qilgan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2013 yilda O'zbekiston byudjetining daromadlar qismi 26 trillion 223,2 milliard so'mga teng bo'lgan.

Buning yarmidan ko'pini – 13 trillion 398,6 milliard so'mni bilvosita soliqlar tashkil etgan. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'idan 7,552 trillion so'mdan ortiq, aksiz solig'idan 4,16 trillion so'mdan ortiq, bojxona bojidan 1 trillion so'mdan ortiq, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliqlardan 670 milliard so'm daromad olingan.

2013 yili O'zbekiston davlat byudjeti bevosita soliqlardan 6 trillion 353,7 milliard so'm daromad olgan. Bunda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan 1,038 trillion, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalardan 832,6 milliard so'm, yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalardan 755 milliard so'm, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqdan 415,6 milliard so'm trillion so'm, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan 594,4 milliard so'm, jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan 2,717 trillion so'm pul tushgan.

Davlat byudjetining daromadlar qismida resurs to'lovlari va mulk solig'idan 3,888 trillion so'm pul tushgan. Unga ko'ra, 1,011 trillion so'm mulk solig'idan, 583,4 milliard so'm er solig'idan, 2,19 trillion so'm erosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqdan, 102,4 milliard so'm suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan daromad olingan.

2013 yilgi O'zbekiston davlat byudjeti ijrosida 2,582 trillion so'mni boshqa daromadlar tashkil etadi.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi

10.3. Davlat byudjetining xarajatlari

Davlat byudjetining xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan byudjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir. Davlat byudjetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k.

Davlat byudjetining barcha xarajatlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy iqtisodiyotga xarajatlar;
- mudofaa xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Milliy iqtisodiyotga byudjetdan xarajat qilinishi davlatning xo'jalik yurituvchi asosiy sub'ektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar keng miqyoslarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industriya asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnika vositalari bilan qayta ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham davlat byudjetining bu xarajatlari orasida iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari alohida o'rin egallaydi. Davlat byudjetining mudofaa xarajatlari ham davlatning funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi zarurligi bilan bog'liqdir. Qurolli kuchlarning barcha turlari byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Boshqaruv shaklidagi faoliyat turining davlat tomonidan amalga oshirilishi, uning xo'jalik-tashkilotchilik funksiyasi davlat byudjetidan boshqaruv xarajatlari deb nomlangan alohida xarajatlar ajratilishini taqozo etadi. Boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv

organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, byudjet xarajatlarining hajmi byudjet daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, byudjet daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu erda byudjet xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda byudjet mablag'laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlar qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'sishiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi proportsiyalarni optimallashtirish orqali davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funktsiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi. Davlat byudjetining xarajatlaridan foydalanish byudjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada

ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'ektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim eish tizimi tushuniladi.

O'zbekiston Moliya vazirligi 2013 yilgi Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha e'lon qilgan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2013 yilda O'zbekiston byudjetining xarajatlar qismi 25 trillion 833,7 milliard so'mga teng bo'lgan.

2013 yili O'zbekistonda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 15 trillion 167,8 milliard so'mni tashkil qilgan. Shundan 8,8 trillion so'm maorif sohasiga, 3,8 trillion so'm sog'liqni saqlashga, 287,4 milliard so'm madaniyat va sportga, 164,7 milliard so'm fanga, 106,4 milliard so'm ijtimoiy ta'minotga, 1,6 trillion so'm bolali oilalarni hisobga olgan holda ijtimoiy nafaqalarga, 374,7 milliard so'm esa qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirish kredit liniyasi xarajatlari uchun sarflangan.

2013 yilda O'zbekiston davlat byudjeti hisobidan NNT, NST va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirish uchun mablag' va grantlar 7 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, iqtisodiyot xarajatlari 2,75 trillion so'mga teng bo'ldi.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 1,439 trillion so'mni, davlat hokimiyati, boshqaruv organlari va sud organlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining saqlash xarajatlari 1,15 trillion so'mni tashkil etdi. 5,3 trillion so'm davlat byudjetining boshqa xarajatlari uchun sarf etilgan.

2013 yilda O'zbekiston davlat byudjeti daromadlari 26,2 trillion so'mni tashkil etgan edi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning 2013 yilgi davlat byudjeti 389,5 milliard so'm profitsit bilan bajarilgan.

Tayanch so'z va iboralar: davlat byudjeti, soliqlar, solikli daromadlar, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet kamomadi (defitsiti), byudjet ortiqchaligi (profitsit)

Nazorat savollari

1. Davlat byudjeti nimalarga bog'liq holda vujudga keladi va

rivojlanadi?

2. Davlat byudjeti o'zida qanday munosabatlarni ifodalaydi?
3. Davlat byudjeti uchun qanday xarakterli xususiyatlar xos?
4. Davlat byudjeti deb nimaga aytiladi?
5. Davlat byudjeti qanday funktsiyalarni bajaradi?
6. Davlat byudjetining taqsimlash va nazorat funktsiyalari qanday xarakterli xususiyatlarga ega?
7. Davlat byudjetining daromadlari o'z manbalariga ko'ra qanday guruhlariga bo'linadi?
8. Byudjetning solikli daromadlari tarkibi nimalardan iborat?
9. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
10. To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibi nimalardan iborat?
11. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra davlat byudjetining daromadlari qanday guruhlariga bo'linishi mumkin?
12. Mulkchilik shakliga ko'ra davlat byudjetining daromadlari qanday ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin?
13. Hozirgi sharoitda davlat byudjeti daromadlarining tarkibi nimalardan iborat va uning tuzilmasi qanday?
14. Davlat byudjetining xarajatlari qanday xarakterli belgilarga ega?
15. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat byudjetining xarajatlari qanday xarajatlarga bo'linadi?

XI BOB. BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

11.1. Byudjet-soliq siyosatining mohiyati.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga fiskal siyosat orqali erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-soliq siyosati deb ham aytiladi. Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi.

Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarni (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat.

Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflyatsiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aksincha, fiskal siyosat davlat sektorini cheklashga qaratilgan bo'lsa, davriy pasayish sharoitida soliqlarni kamaytiradi, davriy ko'tarilish paytida esa davlat xarajatlarini oshirish maqbul yo'l hisoblanadi.

11.2.Diskretsion va nodiskretsion fiskal siyosat.

Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret fiskal siyosat deyiladi. Diskretsion fiskal siyosat

yuritilganda iqtisodiy pasayish davrida jami talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat byudjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida byudjet ortiqchaligi yuzaga keltiriladi.

Diskretsion fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlarni yumshatishda muhim rol o'ynasada, uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bu, avvalambor, vaqt oraliqlari bilan bog'liq.

Nodiskretsion fiskal siyosat — davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskretsion fiskal siyosat o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqaror-lashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskretsion fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun huqumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi.

11.3. Byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish


Iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasi davriy byudjet taqchilligi va ortiqchaligi miqdorlariga bog'liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.

Davriy pasayish bosqichida soliqlar avtomatik pasayishi, davlat transfertlarining oshishi natijasida byudjet taqchilligi kelib chiqadi.

Davriy yuksalish bosqichida soliqlar avtomatik ko'payishi va davlat xarajatlarining kamayishi natijasida byudjet ortiqchaligi paydo bo'ladi.

Davlat xarajatlari o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham byudjet taqchilligi va ortiqchaligi mavjud bo'lishi mumkin. Davriy taqchillik va ortiqchalik miqdorlari soliq va byudjet funktsiyalari grafiklarining «tikligiga» bog'liq. Soliq funktsiyasi T ning egilish burchagi miqdori chegaraviy soliq stavkasiga t ga bog'liq. t qancha yuqori bo'lsa, T chizig'i shuncha tikroq, γ qancha pastda bo'lsa, G chizig'i ham shuncha tik bo'ladi. Bu esa iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasini

oshiradi. Ammo iqtisodiy o'sishning ta'minlash vazifasi T va G chiziqlarini yotiqroq bo'lishini taqozo etadi.



21-chizma. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi

O'rnatilgan barqarorlashtirgichlar muvozanatli YaIM hajmini, uning potentsial hajmi darajasi atrofida tebranishi sababini to'liq tugatmaydi va ishlab chiqarishning har qanday darajasida mavjud bo'lishi mumkin.

To'liq bandlikni ta'minlagan diskret fiskal siyosat yuritilishi natijasida davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi (ortiqchaligi), ya'ni to'liq bandlik sharoitida byudjet xarajatlari (daromadlari) va daromadlari (xarajatlari) o'rtasidagi farq yuzaga keladi. Davriy taqchillik ko'pincha davlat byudjetining haqiqiy taqchilligi va tarkibiy taqchillik farqi sifatida baholanadi.

Nazariy jihatdan olib qarganda byudjetning sog'lom (normal) faoliyat ko'rsatishi unga tegishli bo'lgan daromadlar va xarajatlarning tengligini taqozo eadi. Haqiqatdan ham u yoki bu miqdordagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet shu miqdordagi daromadlarga ega bo'lishi kerak. Aks holda bu xarajatlarni amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligi byudjetning balanslashtirilganligidan dalolat beradi. Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday byudjet profitsitli byudjet deyiladi.

O'zbekistonda 2013 yilda fiskal siyosat ko'rsatkichlari

Yil	Davlat byudjeti xarajatlari, mlrd. so'm	Davlat byudjeti daromadlari, mlrd. so'm	Davlat byudjeti kamomadi, YaIM ga nisbatan %
2013	25833,7	26223,1	+0,3

Aksincha, ba'zi hollarda esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda, byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital quyilmalarini amalga oshirishning zarurligi;

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

- 1) ichki manbalar;
- 2) tashqi manbalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilayotgan davlat zayomlari;
- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;
- davlat zaxiralari va rezervlar bo'yicha daromadlarning xarajatlardan o'sgan qismi summasi;
- byudjet mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi;
- va boshqalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firmalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari oldidagi (davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlarni qo'shgan holda) mamlakat hukumatining qarziy majburiyatlari hukumatning davlat qarzini vujudga keltiradi. Bu qarz davlat xazinasini tashkil etadigan davlat mulki bilan to'liq va hech qanday shartsiz ta'minlanishi kerak.

Bunda davlat hokimiyati organlari mamlakat hukumatining qarziy majburiyatlari va davlat qarziga xizmat qilish uchun respublika byudjetining daromadlarini shakllantirish bo'yicha barcha vakolatlardan foydalanadilar.

Mamlakatning qarziy majburiyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- qarz oluvchi sifatida mamlakat hukumati nomidan kredit tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuzilgan kredit bitimlari va shartnomalari;
- mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshirilgan davlat zayomlari;
- mamlakat hukumati tomonidan davlat kafolatini berish to'g'risidagi shartnomalar;
- o'tgan yillardagi mamlakatning qarziy majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish va muddatini o'zgartirish to'g'risidagi mamlakat hukumati nomidan tuzilgan (shu jumladan, xalqaro) bitimlar va shartnomalar;
- va boshqalar.

Mamlakatning qarziy majburiyatlari o'zining muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan ortiq va besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan yuqori) bo'lishi mumkin. Ular zayomning konkret shartlariga muvofiq

ravishda (zayom shartlarini, jumladan, to'lov muddatlari, foiz to'lovlarining miqdori, muomala muddatlarini o'zgartirmasdan) qaytarilishi kerak.

Mamlakat hukumatining davlat ichki qarzlarini quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- hukumatning davlatni qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha qarzining asosiy nominal summasi;
- hukumatga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzning hajmi;
- mamlakat hukumati tomonidan berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlar hajmi;
- va boshqalar.

O'z navbatida, hukumatning davlat tashqi qarzlarini:

- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarga mamlakat hukumati tomonidan taqdim etilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlar hajmi;
- xorijiy davlatlar hukumatlari, kredit tashkilotlari, firmalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan hukumat olgan kreditlar bo'yicha asosiy qarz hajmidan iborat bo'ladi.

Xususan, bunda iqtisodiyotdagi soliq yukini izchil kamaytirib borish siyosati sharoitida byudjet xarajatlarini manzilli va maqsadlik darajasini oshirish, jon boshiga moliyalashtirish tizimini joriy etish, byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy qilish kabi chora-tadbirlarning ahamiyati kattadir.

Respublikamizda chuqur tarkibiy islohotlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlar olib borilishiga qarmasdan, davlat tashqi qarzlarining YaIMga nisbatan xajmi 13 foizdan ortmaydi. Bu ham amalga oshirilayotgan oqilona qarz siyosatining natijasidir.

Tayanch so'z va iboralar: byudjet-soliq siyosati, diskretsion fiskal siyosat, nodiskretsion fiskal siyosat, byudjet defitsiti, tarkibiy taqchillik, davriy taqchillik, byudjetdan moliyalashtirish, davlat ichki qarzlarini, davlat tashqi qarzlarini.

Nazorat savollari

1. Byudjet-soliq siyosatining mohiyati qanday?
2. Diskretsion fiskal siyosat va nodiskretsion fiskal siyosat o'rtasida qanday farq mavjud?
3. Byudjet defitsiti deb nimaga aytiladi?
4. Byudjetdan moliyalashtirish deyilganda nimalar tushuniladi?
5. Byudjet defitsitini moliyalashtirishning asosiy manbalariga nimalar kiradi?
6. Davlatning ichki va tashqi qarzlari deyilganda nimalar tushuniladi?
7. Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalariga nimalar kiradi?
8. Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari nimalardan iborat?

XII BOB. BANK TIZIMI. PUL-KREDIT SIYOSATI.

12.1. Bank tizimi

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan bank tizimlarini shartli ravishda universal va segmentlangan turlarga ajratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bankdan litsenziyani olgandan so'nggina davlat qimmatbaho-qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirilishi mumkin. Ularga qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish uchun, to'lov harajatlari funktsiyasini bajaruvchi qog'ozlar uchun (veksel-chek) yoki pul mablag'larini jamg'armalarga va bank raqamlariga jalb qilishlarini tasdiqlovchi kog'ozlar (depozit va jamg'arma sertifikatlar) uchun maxsus litsenziya olishlari shart emas.

Bugungi kunda banklarni va boshqa moliya-kredit tashkilotlari orasidagi farqini yukotishni mamlakatdagi kapital harakatini markazlashuvi va jamg'arilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Bunday harakat natijasida o'zaro yaqin va o'xshash bo'lmagan kredit tashkilotlarini yo'qolib ketishi yoki qo'shilishi jarayoni amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga banklarning universallashtuvi makroiqtisodiy omillariga bog'liqdir. Ammo bu faoliyat uzoq muddatni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda farqlarning yo'qolishi va banklar tomonidan funktsional va yuridik xususiyatlarni bekor bo'lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshirmokda. Shuni qayd qilish lozimki, yirik banklarning universallashtuvi va global yo'nalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga ya'ni ma'lum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ko'pgina mamlakatlarda faoliyot ko'rsatayotgan ko'p bosqichli bank tizimiga hos xususiyatdir.

Bugungi kunda banklarning ko'p pog'onali bo'lishi ularning tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog'onali bank tizimi xosdir. Bir pog'onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy

bank hali mavjud bo'lmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo'lsagina real (haqiqatda) mavjud bo'lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog'onali bank tizimi hos. Bunda birinchi pog'ona banklari-bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pog'ona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir.

Markaziy bank-bank tizimi mavjud bo'lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o'rnini mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog'liq.

Bu esa o'z navbatida ikki pog'onali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi.

Ikki pog'onali bank tizimining zarurligi bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu quyi pog'ona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma'lum miqdorda tartibga solish nazorat qilish maqsadli yo'naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek bank faoliyatini maxsus litsenziya asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biz aytganimizdagi O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida faoliyat olib boradilar. Ularga qo'shimcha litsenziya zarur emas (faqat valyuta operatsiyalaridan tashqari).

Bozor iqtisodiyoti va jaxon xo'jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko'proq faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas, balki shuningdek moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik haqi oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks

ettirilmaydi. Hozirgi paytda yirik tijorat banklari kariyb 350 dan ortiq turdagi moliyaviy xizmat ko'rsatmoqda.

Kredit moliya-tizimining barqarorligini ta'minlash, uning alohida bo'g'inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlari (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Zamonaviy ikki pog'onali bank tizimi ko'p sonli tijorat banklari va yagona Markaziy bankka asoslangan bank tizimi shu yo'l bilan vujudga keldi. Deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank huquqiy me'yorlarini tartibga soluvchi, aniqlovchi (belgilovchi) qonunlar mavjuddir. Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o'zida mujassamlashtirgan va o'zida davlatning tartibga soluvchi organi bo'lib qoladi.

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Markaziy Bank - birinchi o'rinda davlat va iqtisodiyot o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymaydi.

Markaziy bank funktsiyalari uzoq yillar mobaynida deyarli o'zgarmay aniq modifikatsiyalangan ko'rinishga egadir.

Markaziy banklar o'zlarining joriy (depozit) raqamlarida tijorat banklarining pul mablag'larini aks ettiradilar, ularning naqd pullarini to'ldirishga bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar ko'p hollarda davlatning bankirlari hisoblanadilar. Shu bilan barcha emission banklarning yana bir asosiy funktsiyalariga ochiq bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi. Ular davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish va olish, xorijiy valyutalarni hamda milliy valyuta kurslarini ushlab turish maqsadida sotadi va sotib oladi.

Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi to'rt guruhga (turga) bo'linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank- xukumat bankiri hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kredit munosabatlarini tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vaqili sifatida qonuniy tarzda banknotlarni monopol ravishda emissiya qilish birlashtirilgan, ya'ni umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Ta'kidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilarli qismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funksiyasi birmuncha pasaytirilgan. Biroq banknotalarni chiqarish funksiyasi mamlakatdagi pul zahiralarini tashkil qiluvchi, chakana pul muomalasini naqd banknotalar bilan ta'minlash va kredit tizimini likvidligini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Bu funksiyalar naqd pul muomalasi ulushi sezilarli bo'lgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir.

Markaziy bank bevosita tadbirkorlar va aholi bilan hech qanday faoliyat olib bormaydi. Uning asosiy mijozlari bo'lib tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyot va Markaziy bank o'rtasida vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Markaziy bank banklar banki sifatida tijorat banklarining zahiralarini saflaydi, jumladan, majburiy zahira talablari shaklidagi pul mablag'larini saqlaydi, ularning kreditorlari sifatida ishtirok etadi, tijorat banklarining Markaziy bankda ochadigan hisob varaqlari orqali mamlakat miqyosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, banklar va boshqa kredit institutlari ustidan nazoratni olib boradilar.

Kapitalidagi mulk shaklidan qat'iy nazar Markaziy bank davlat bilan uzviy bog'liqdir. Xukumat bankiri sifatida- Markaziy bank xukumat xazinachisi o'rnida va kreditori sifatida, vaqili (agenti), moliyaviy maslahatchisi sifatida faoliyat olib boradi. Bu o'rinda Markaziy bank hukumat tashkilotlarining va korxonalarning

hisob raqamlarini yuritadi, soliqlarni va boshqa tushumlarni yig'adi, to'lovlarni amalga oshiradi. Markaziy bank, qoidaga binoan, davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshiradi. Xukumatning kreditori sifatida, Markaziy bank davlat zayomlarini yangilarini muomalaga chiqarish, joylashtirish, o'zining portfelini to'ldirish uchun davlat qog'ozlarini sotib olish, davlatga (xukumatga) to'g'ri gazna kreditlarini berish bilan shug'ullanadi.

Davlat byudjetining defitsiti sharoitida ko'pgina mamlakatlarda Markaziy bankning xukumatni kreditlash va davlat qarzini boshqarish funktsiyalari kuchayadi. Markaziy bank davlat qarzini boshqarish uchun turli usullardan foydalanadi. Masalan, davlat majburiyatlarining kurslariga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularni sotadi va sotib oladi, sotish shartlarini o'zgartiradi, turli yo'llar bilan xususiy investorlar uchun ularni jozibadorligini oshiradi.

Davlatning vaqili (agenti) funktsiyasida, Markaziy bank mamlakatning oltin-valyuta zahiralaridan foydalanadi, milliy pul birligi kursini ushlab turish uchun valyuta bozorlarida valyuta intervensiyasi kabi vositalardan foydalanadi. Markaziy bank xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarda o'z mamlakati nomidan qatnashadi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan, umuman olganda, Markaziy bankning barcha funktsiyalari o'zaro bog'liqdir. Davlatga kredit berish orqali Markaziy bank kredit muomala vositalarini yaratadi. Xukumatning majburiyatlarini chiqarish va qoplash orqali, u ssuda foiziga ta'sir ko'rsatadi. Sanab o'tilgan funktsiyalari orqali Markaziy bank o'zining asosiy mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funktsiyasiga asos yaratadi va iqtisodiyotni tartibga soladi.

12.2. Pul-kredit siyosati

Pul-kredit siyosati deganda, to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank

amalga oshiradi. Uning yordamida xar qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbiq etadi.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valyutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valyuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta'minlab turish zarur bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Bank qator vazifalardan foydalanadi.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko'rsatiladi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy zaxiralar normasi;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar — Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zaxiralarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu zaxiralar pul bazasiga kiradi, ya'ni yuqori quvvatli pullar bo'lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko'payadi. Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan zahiralarini hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositalardan biri — bu hisob stavkasi siyosatidir. Hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi.

Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan yana biri — bu, majburiy bank zaxira me'yorini o'zgartirish siyosatidir. Majburiy zaxiralar — bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o'z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo'ladi. Zaxira normasi ikki asosiy funktsiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi. Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zaxiralarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zaxiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo'ladi.

Pul kredit siyosati vositalari albatta alohida-aloxida ishlatilishi shart emas. Aksincha ko'pincha bir necha vosita birdaniga qo'llanilishi, ya'ni kompleks siyosat o'tkazish amaliyotda tez-tez uchrab turadi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati YaIM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini biz yuqorida ko'rib chiqqan vositalar yordamida oshirishga harakat qiladi. Natijada pul taklifi o'sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi va o'z navbatida, YaIM miqdorining ko'payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to'g'risida gapirganda, bu siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirgan va buning natijasida YaIM miqdori o'sishini rag'batlantirgan hamda ma'lum darajada samaradorlikka erishgan bo'lsa, uzoq muddatli davrda esa bu choralarning samaradorligi pasayishi mumkin.

Pul-kredit siyosati asosida iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta'sir etishi jarayonlarini o'rganuvchi pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillardan beri tortishuvlar bo'lib kelmoqda. Bularga neokeynschilar nazariyasi va zamonoviy pul miqdori nazariyasi tarafdorlarini kiritamiz. Har ikki nazariya tarafdorlari ham pul taklifining nominal YaIM ga ta'sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga xar xil baxo beradilar. Keynschilar fikricha, monetar siyosat yuritishda foiz stavkasi darajasiga asoslanishi, monetaristlar fikricha esa, pul taklifining darajasiga asoslanishi lozim. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblashadi, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifining YaIMga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi: pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi, u esa o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgarishi orqali ishlab chiqarish hajmiga, ya'ni YaIMga ta'sir etadi. Monetaristlar esa pul miqdorining o'zgarishi bilan YaIM o'zgarishi o'rtasida yaqinroq aloqa mavjud, ya'ni pul miqdorining o'zgarishi bevosita YaIM o'zgarishiga olib keladi, deb hisoblashadi.

Buni ular pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan izohlaydilar:

$$M \times V = R \times Y$$

Agar $R \times Y =$ nominal YaIM bo'lsa, unda tenglamani quyidagicha yozish mumkin bo'ladi:

$$M = YaIM / V;$$

Bu erda: M - pul taklifi;

V - pulning aylanish tezligi yoki aylanishlar soni;

R - tovar va xizmatlarning o'rtacha bahosi;

Y - real YaIM.

Bunda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa, aksincha, nobarqaror deydilar.

Hozirda mavjud bo'lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvni sintez qilgan, ya'ni, bu yondashuvlarning ijobiy jihatlarini qo'shib, o'zida aks ettiradi. Pul kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun monetaristik yondashuv ko'proq ishlatiladi. Shu bilan birga qisqa muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta'sir etish usulidan voz kechmaydi.

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifi o'zgarishi borasidagi siyosatini monetar siyosat deb yuritiladi. Bu siyosat monetarizm nazariyasiga asoslanadi. Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul, degan xulosadan iborat. Pulga bo'lgan talab va taklifni oldingi paragrafda ko'rsatilganidek quyidagi bog'lanishga asoslanib o'zgartirib turilishi tavsiya etiladi.

$$M \times V = R \times Y$$

Bu tenglik bozor iqtisodiyotidagi eng muhim muvozanat bo'lib, unga asoslanib, quyidagi bog'lanishlarni aniqlash mumkin:

Bozordagi baho pul massasi bilan bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatiga bog'liq.

$$P^* = \frac{M \cdot V}{P \cdot Y}$$

Ya'ni, pul massasi bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozordagi bahosini belgilaydi. Agar;

1. $R^* > 1$ bo'lsa, pul talabga nisbatan ko'p bo'ladi;
2. $R^* < 1$ bo'lsa, pul talabga nisbatan kam bo'ladi;
3. $R=1$ bo'lsa, pul massasi bilan tovar va xizmatlar massasi tenglashadi, ya'ni, bozor muvozanatlashadi.

Birinchi holda narx oshgan bo'ladi va pul qadri pasayadi, ikkinchi holda esa aksincha, pul massasi kamaygan bo'ladi va to'lov inqirozi yuzaga keladi.

Muomalada bo'lishi zarur bo'lgan pul massasi tovar va xizmatlar massasi bilan pul harakati - pul aylanish tizimiga bog'liq;

$$M = R \times Y / V;$$

Muomala uchun zarur bo'lgan pul massasini davlat muomalaga chiqaradi va u mamlakat davlat doirasida harakat qiladi. Muomalada tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi inflyatsiyani bildiradi. Pul qadrsizlanganda muomaladagi pul ko'payib, unga nisbatan tovar va xizmatlar kamayib ketadi. Pul birligining xarid kuchi unga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoridan kamayadi, natijada ularning bahosi o'sadi. Bu esa o'z navbatida pulning valyuta kursini pasaytiradi, chunki, unga nisbatan boshqa valyutaga ko'proq tovar sotib olish mumkin bo'ladi.

Davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini amalga oshirib, uni ko'paytirib, muomalaga kiritishi mumkin. Lekin uni tovar va xizmatlar massasi bilan ta'minlay olmasa pulning qadrsizlanishi kuchayib boradi. Demak, qog'oz pullar oltinga, chet el valyutasiga nisbatan qadrsizlanadi. Binobarin, pul miqdori asosan ishlab chiqarish holatiga, narxga, pul aylanishi tizimiga bog'liq bo'lib, unga nisbatan davlat jiddiy yon-dashadi. Iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlat muomaladagi pul miqdorini o'zgartirib, uni normal holga keltirib turadi.

Markaziy Bank bir vaqtning o'zida ham pul massasini, ham foiz stavkasini o'zgartirmasdan ushlab turolmaydi. Pulga talab o'sgan xolatlarda maqsad foiz stavkasining barqarorligini ta'minlash bo'lsa Markaziy Bank pul taklifini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tadbir yumshoq pul kredit siyosati deb yuritiladi. Pul massasining ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun pul taklifini cheklash siyosatini qo'llash foiz stavkasining ko'tarilishiga olib keladi va bu siyosat kattiq pul kredit siyosati deb yuritiladi.

Agar pulga talab inflyatsiya ta'sirida ko'paysa qattiq pul kredit siyosatini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Maboda pulga talab ishlab chiqarish va daromadlarning o'sishi oqibatida oshsa yumshoq pul kredit siyosatini qo'llash o'rinlidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashivi yanada oshadi. Xususan, davlat iqtisodiyotga kredit tizimi orqali faol ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bunda ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz vositasidan

foydalanadi. Ma'lumki, kredit munosabatlarida Markaziy bank markaziy zaxira tizimi vazifasini o'taydi va ular davlat ta'sirida bo'ladi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy zaxira tizimi orqali o'zgartiradi. Ushbu jarayonni uch xil yo'l bilan amalga oshiradi.

Birinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali banklar mablag'ining qarzga beriladigan va zahirada turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, markaziy zaxira tizimi o'zi boshqa banklardan oladigan foizlarni o'zgartiradi. U boshqa banklarga past foiz hisobidan qarz berib, ularga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Imtiyozli qarz olish banklarga quvvat berganidan ular kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishga ta'sir eta oladilar.

Uchinchidan, davlat markaziy zaxira tizimi orqali xazina vekselarini (majburiyatlarini) tarqatadi, o'z zayomlarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarni sotib oladi.

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi. Ushbu siyosatni o'tkazish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

12.3.O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va pul-kredit siyosatining ustuvorliklari

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo'lib faoliyat ko'rsatmoqda.

2013 yilda respublika bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirishda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» Dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi. Jumladan:

– banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini yanada oshirish maqsadida ular kapitallashuvini oshirish, resurs bazasini ko'paytirish va aktivlar sifatini yaxshilash, bank sohasiga xususiy kapitalni keng jalb etish;

– respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va bank nazorati tizimini Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi talablaridan kelib chiqqan holda xalqaro andozalar asosida takomillashtirib borish;

– mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatini etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan me'yor va ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyotini kengaytirish va ushbu darajalarga erishish tadbirlarini amalga oshirish;

– iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmini yanada ko'paytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan biznes-loyihalarni moliyalashtirishga kreditlar ajratish hajmini oshirish;

– xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

2013 yilda bank tizimida amalga oshirilgan izchil va aniq maqsadli islohotlar banklar kapitallashuv darajasi va depozit bazasining yuqori sur'atlarda o'sishiga imkon berdi va natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, moliyaviy vositachilik roli kengaydi hamda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati yanada oshdi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan tahlil qilinganda, bank tizimining barcha ko'rsatkichlari «yuqori darajada»gi indikator baholariga muvofiq kelmoqda.

Jumladan, 2013 yil bo'yicha bank tizimida kapitalning etarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me'yordan 3 barobar yuqoridir.

Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2013 yilda ham 65 foizdan yuqori darajada saqlanib qolayotganligi va ushbu ko'rsatkichning talab etiladigan minimal darajadan 2,2 barobar ortiqligi mamlakatimiz bank tizimining mustahkamligini hamda har qanday tashqi va ichki salbiy ta'sirlarga to'la bardosh bera olishini tasdiqlaydi.

Banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari, jumladan, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 49,7 tani tashkil etib (30 tadan ko'pi yuqori bahoga to'g'ri keladi), «yuqori daraja» va har mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan jismoniy shaxs-omonatchilar hisobvarag'i soni 1028 birlikni tashkil etib, bu bo'yicha ham (1000 tadan ko'pi) «yuqori daraja» baholariga muvofiq kelmoqda.

Shuningdek, yuqoridagi qaror talablari bo'yicha respublika bank tizimida depozitlar hajmi dinamikasi, kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi kabi indikatorlar ham yuqori darajadagi baholarga muvofiq kelmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi 117-sonli qarori asosida 2012 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etilgan, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shu jumladan, moliya-bank sohasi faoliyatini baholovchi indikatorlarning har chorakdagi tahlili natijalari tijorat banklarining hududlardagi filiallari ko'rsatkichlarining yuqoriligini ko'rsatdi.

Bank tizimi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar. 2013 yilda tijorat banklarining respublika hududlaridagi filiallar tarmog'i yanada kengayib, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ularning soni 837 taga etdi.

Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalari hududlariga

yaqinlashtirish orqali bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada qulaylashtirish maqsadida tashkil etilgan minibank va maxsus kassalar soni o'tgan yilda 66 taga ko'payib, ularning soni 4196 taga etdi, shundan 2156 tasi qishloq joylarida joylashgan.

Bundan tashqari, aholidan kommunal va boshqa to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi 505 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassa faoliyati yo'lga qo'yildi.

Respublikamizdagi tijorat banklari bilan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda xorijiy yirik banklarning 6 ta vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Bank infratuzilmasining kengayib borayotganligi, o'z navbatida, moliya bozorida raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmatlari sifatining yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

2013 yilda monetar siyosat «Monetar siyosatning 2013 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari» asosida amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan respublika Hukumatining 2013 yil 18 yanvardagi majlisida belgilab berilgan 2013 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari, xususan, belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratildi.

Pul-kredit sohasida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariga muvofiq iqtisodiyotning oshib borayotgan pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish va bank tizimi likvidligini maqbul darajada saqlab turish orqali inflyatsiya darajasini belgilangan prognoz ko'rsatkichidan oshirmaslik maqsadlariga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda Markaziy bank o'z tasarrufidagi pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalandi.

O'z navbatida, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul bozoridagi operatsiyalari muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

Shuningdek, 2013 yil davomida tashqi savdo balansining ijobiy saldosi va bank tizimi sof tashqi aktivlarining ko'payishi hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlikning inflyatsion bosimga ta'sirini oldini olish maqsadida o'tkazib borilgan sterilizatsiya operatsiyalarining o'rtacha hajmi 2012 yilga nisbatan 1,2 martaga oshdi.

Majburiy rezervlar. Majburiy rezerv talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

Xususan, 2013 yil davomida inflyatsiya va pul massasining belgilangan prognoz ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida diversifikatsiyalangan majburiy rezerv normalari qo'llanilib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlari uchun – 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi.

2013 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy rezervlari hajmi 463,1 mlrd. so'mga yoki yil boshiga nisbatan 25,2 foizga ko'paydi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga qo'shimcha ravishda 1,2 mlrd. dollar miqdoridagi mablag'lar yo'naltirilishi pul massasining belgilangan prognoz ko'rsatkichidan ortiqcha o'sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Shuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi instrumentidan ham pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida foydalanildi.

Inflyatsiya darajasi, pul massasi hajmining, iqtisodiyotning kredit resurslariga bo'lgan talabini etarli darajada qondirish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2013 yilga belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib,

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2013 yil mobaynida yillik 12 foiz miqdorida saqlab turildi.

Qayta moliyalash stavkasini shu holatda ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Foiz stavkalari dinamikasi. 2013 yilda respublikadagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda Markaziy bank tomonidan qat'iy monetar siyosatining yuritilishi, o'z navbatida, mamlakatimizning pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari dinamikasida, jumladan, tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha hamda banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida o'z aksini topdi.

Xususan, 2013 yil davomida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadining oshishi hisobiga respublikamizdagi moliya institutlari resurs bazasining kengayishi banklararo pul bozoridagi resurslar taklifining ko'payishiga va o'z navbatida, moliyaviy resurslar narxining arzonlashishiga sabab bo'ldi.

Jumladan, 2012 yil davomida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yillik hisobda 10,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda ushbu ko'rsatkich 9,9 foizga teng bo'ldi.

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining va unga mos ravishda aholi daromadlarining yildan-yilga yuqori sur'atlar bilan o'sishi, bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi hamda iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarning pasayib borishi kabi omillar ta'sirida 2013 yilda bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi kuzatildi.

Xususan, jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi jami depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2012 yildagi o'rtacha yillik 7,7 foizdan 2013 yilda 7,1 foizgacha pasaydi.

Yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 2012 yildagi o'rtacha yillik 6,2 foizdan 2013 yilda 6,0 foizgacha pasaydi.

Shuningdek, banklararo pul bozoridagi operatsiyalar hamda depozitlarni jalb qilish bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi natijasida tijorat banklarining aktiv operatsiyalari bo'yicha, jumladan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash bo'yicha foiz stavkalarining ham pasayishi kuzatildi.

umladan, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlariga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2012 yil dekabr oyida 13,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 13,0 foizgacha pasaydi

Tayanch so'z va iboralar: Markaziy bank, tijorat banklari, banklarning aktiv operatsiyalari, pul-kredit siyosati, majburiy rezervlar, ochiq bozordagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi, kreditlar siyosati.

Nazorat savollari

1. Bank tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Ikki pog'onali bank tizimi nimani anglatadi.
3. Markaziy bank qanday funktsiyalarni bajaradi?
4. Tijorat banklarining funktsiyalari qanday?
5. Pul-kredit siyosatining mohiyatini tushuntiring.
6. Majburiy rezervlar nima uchun zarur?
7. Ochiq bozordagi operatsiyalar orqali pul massasi qanday tartibga solinadi?
8. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va pul-kredit sohasidagi islohotlardagi ustuvorliklar qanday?

XIII BOB. IS-LM MODELI

13.1. Makroiqtisodiy muvozanat va unga erishish yo'llari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Makroiqtisodiy muvozanat mamlakat iqtisodiyotining to'g'ri yoki noto'g'ri yo'ldan borayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotda bo'layotgan doimiy o'zgarishlar xar qanday mamlakatni ham iqtisodiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin.

Iqtisodiy tizimlardagi og'ish tovarlar va xizmatlar taqchilligini yoki ortiqcha ishlab chiqarilganligini, inflyatsiya, ishsizlik va shunga o'xshash boshqa salbiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga va aholi turmush tarzini tushib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham iqtisodiy muvozanat muammolarini tadqiq qilish eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi. IS - LM modeli birinchi marta 1937 yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy kontseptsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 yilda A. Xansenning "Monetar nazariya va fiskal siyosat" nomli kitobi nashr qilinganidan so'ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.


IS - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi.

13.2. IS-egri chizig'i va uning tenglamasi.

Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar pul muvozanatiga erishishda investitsiya va jamg'armalarning YaIM bilan bog'liqligi tushuntiriladi. Bu bog'liklik shuni ko'rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaIM hajmi ham ko'payib boradi. Ya'ni, milliy iqtisodiyot moliyaviy "kislorodni"

ko'proq olish natijasida YaIM ishlab chiqarish ham ko'payib boradi. IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funktsiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zaro teng bo'ladi.

Umuman IS-egri chizig'i tovar va xizmatlar bozorida vujudga keladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasi o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Buni tushunish uchun biz tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni, ya'ni, "Keyns xochi"ni qarab chiqamiz. Bunda avvalambor biz rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini, ya'ni, keyns xochini olish uchun rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini tashkil qiluvchi omillarni ko'rib chiqamiz. Rejalashtirilayotgan xarajatlar uy xo'jaliklari, firmalar va davlatning tovar va xizmatlarini sotib olishga mo'ljallagan xarajatlar miqdoridan iborat. Demak IS-egri chizig'ini Keyns xochi va investitsiya funktsiyasi grafigi yordamida keltirib chiqaramiz.



23-chizma. Investitsiya funktsiyasi

24-chizma. IS-egri chizig'i

Foiz stavkasining R_1 dan R_2 ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I_1 dan I_2 ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini E_1 dan E_2 ga qadar pastga tomon $\Delta E = \Delta I$ ga teng miqdorda surilishiga olib keladi. Oqibatda daromadlar miqdori Y_1 dan Y_2 qadar $\Delta Y = \Delta E \times m$ miqdorga pasayadi, bu erda ($m = 1/(1-b(1-T)+m')$)

Demak, tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- iste'mol xarajatlari darajasi;
- davlat xaridi darajasi;
- sof soliqlar (soliqlar - subsidiyalar - transfertlar);
- investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funktsiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a+e+g}{d+n} - \frac{1-b(1-t)+m'}{d+n} Y + \frac{1}{d+n} G - \frac{b}{d+n} Ta,$$

bu erda $T = Ta + t Y$

Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$Y = \frac{a+e+g}{1-b(1-t)+m'} - \frac{1}{1-b(1-t)+m'} G - \frac{b}{1-b(1-t)+m'} Ta - \frac{d+n}{1-b(1-t)+m'} R,$$

bu erda $T = Ta + t Y$

$(1-b(1-t) + m') / (d+n)$ IS egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi

13.3. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi.

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab M_d pul taklifi M_s ga teng bo'ladi (liquidity Preference = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilsagina erishiladi.

Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida iste'mol va boshqa xarajatlar uchun pulga talabni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.


Pulga talab funktsiyasini quyidagicha yozamiz:

$$M/R = f(R; U)$$


Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday o'zaro munosabatlarni 25-, 26-chizmalarda tasvirlaymiz.

25-chizmadan ko'rinib turibdiki, pulga bo'lgan talab, foiz stavkasi pasayishi bilan, shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Daromadlarning oshishi natijasida pulga talab egri chizig'i M_{d1} yuqori surilib, M_{d2} holatini egallaydi va unda pul bozoridagi muvozanat nuqtasi, r_1 holatidan r_2 holatiga o'tadi.

Narxlarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi



**25-chizma. Pul bozoridagi
grafigi**



**26-chizma. LM egri chizig'i
grafigi**

Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos konfiguratsiyaga ega: gorizantal qism va vertikal qism. LM egri chizig'ining gorizantal qismi foiz stavkasi R ning minimal darajasidan pasaya olmasligini anglatadi, vertikal qism foiz stavkasi R ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishini anglatadi.

LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$R = (k/h)Y - (1/h)(M/P).$$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$Y = (1/k) (M/P) + (h/k) R.$$


k/h koefitsenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligini baholaydi.

Shunday kilib, LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pul bozorida talab va taklif o'zaro teng bo'ladi.

13.4. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi.

Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi « R » ni va daromad darajasi « Y » ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lariga bo'lgan talab va ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi. (27-chizma.)



27-chizma. IS – LM modelidagi iqtisodiy muvozanat

Bu erda : R^* -muvozanatli foiz stavkasi; Y^* - muvozanatli daromad hajmi.

IS va LM egri chiziqlarining o'zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg'armalarni o'zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun etarli ekanligini anglatadi.

IS egri chizig'i rejalashtirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning o'zgarishi fiskal siyosatidagi o'zgarishlarni xarakterlaydi. LM pul taklifiga bog'liq bo'lganligi uchun undagi o'zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko'rsatadi.

Bundan xulosa shuki IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko'rsatadigan ta'sirini baholash imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o'sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egri chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek pul taklifining oshishi LM egri chizig'ini o'ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma'lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Bir bozorda bo'lgan o'zgarish ikkinchi bozorga ham ta'sir etadi. Masalan Markaziy bank ochiq bozordan obligatsiyalar sotib ola boshladi. Natijada pul taklifining ko'payishi (LM egri chizig'ini o'ngga siljishi da aks etib) foiz stavkasining pasayishini keltirib chiqaradi. Monetar impuls ta'sirida, ya'ni, foiz stavkasining pasayishi oqibatida investitsiya xarajatlari ko'payadi va IS egri chizig'i ham o'ngga siljib yangi nuqtada muvozanat o'rnatiladi.

Agar modelda muvozanati LM egri chizig'ining gorizonta (keyns) kesmasida yuzaga kelsa pul massasining ko'paytirilishi investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlilikning o'sishiga olib kelmaydi. Bu iqtisodiy tizimda aloqalar buzilganligidan dalolat beradi. Bunda pul taklifining o'sishi tovarlar bozoriga ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki pul bozorida foiz stavkasini kamaytirish imkoniyati qolmaydi. Bunday vaziyat likvidlilik tuzog'i nomini olgan.

“Likvidlilik tuzog'i vaziyatida kredit (monetar) siyosat yalpi talab va milliy daromadni rag'batlantirish vositasi sifatida kutilgan samarani keltirib chiqarmaydi va shu sababli, keynschilar fikriga ko'ra, (ixtiyorimizda) faqat bir dastak - soliqlar

va hukumat xarajatlari orqali yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fiskal siyosatgina qoladi".

Agar modelda IS egri chizig'i LM egri chizig'ining vertikal kesmasidan kesib o'tganda yuz bergan bo'lsa pul taklifini oshirish milliy daromadning o'sishigava foiz stavkasining pasayishiga olib keladi. Aksinsa davlat xarajatlarining oshirilishi esa, keynschilar fikriga ko'ra, bu kesmada yalpi talabga va milliy daromar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar IS egri chizig'i vertikal ko'rinishda bo'lsa, ya'ni investitsiyalarga talab foiz stakasi o'zgarishiga ta'sirchan (elastik) bo'lmagan, masalan investorlar kelajakdagi bozor konyukturasining noaniqligi sababli o'z investitsiyalari istiqboliga tushkun baho bersalar investitsion tuzoq yuzaga keladi. Investitsion tuzoq shuni anglatadiki IS egri chizig'i vertikal bo'lganda LM egri chizig'ining siljishlari real daromad miqdorini o'gartirmaydi. Bu holatda pul-kredit siyosati yalpi talalab va milliy daromad hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, fiskal siyosat esa samarali bo'ladi.

Demak pul- kredit siyosati foiz stavkalari yuqori bo'lganda samarali bo'ladi. Fiskal siyosat esa foiz stavkasi minimal, ya'ni LM egri chizig'i gorizontal, IS egri chizig'i esa vertikal bo'lganda samaraliroq bo'ladi. Model yordamida makoiqtisodiy siyosat variantlarini tanlash, shuningdek usullarini muvofiqlashtirilgan holda qo'llash va siqib chiqarish samaralarini kamaytirish yo'llarini tahlil etish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: IS – LM modeli, makroiqtisodiy muvozanat, IS egri chizig'i, LM egri chizig'i, muvozanatli foiz stavkasi, muvozanatli daromad, IS tenglamasi, LM tenglamasi

Nazorat savollari

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning ahamiyati qanday?
2. I S - LM modeli qisqa muddatli davrga qanday mexanizmni xarakterlaydi?

3. IS egri chizig'i qanday asosda chiziladi?
4. IS egri chizig'ida qanday makroiqtisodiy ayniyatlar bajariladi?
5. IS tenglamasi qanday ko'rinishga ega?
6. LM egri chizig'i qanday asosda chiziladi va unda qanday makroiqtisodiy ayniyat shartlari bajariladi?
7. LM tenglamasi qanday ko'rinishga ega?
8. I S - LM modeli yordamida makroiqtisodiy muvozanat qanday o'rnatiladi?

Mavzuga oid masalalar

1. Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi $C = 300 + 0,65Y_d$, investitsiya funktsiyasi $I = 200 - 1500R$, soliqlar $T = 200$, davlat xarajatlari $G = 200$, pulga bo'lgan talab funktsiyasi $M = (0,5Y - 2000R)P$, pul taklifi $M = 550$, narxlar darajasi $P = 1$, sof eksport funktsiyasi $X_n = 100 - 0,05Y - 500R$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang.

* * *

2. Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi $C = 100 + 0,8Y_d$, investitsiya funktsiyasi $I = 200 - 400R$, soliq stavkasi $t = 0,2$, davlat xarajatlari $G = 200$, pulga bo'lgan talab funktsiyasi $M = (0,8Y - 1600R)P$, pul taklifi $M = 800$, narxlar darajasi $P = 1$, sof eksport funktsiyasi $X_n = 100 - 0,04Y - 400R$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar davlat xarajatlari 100ga oshsa, IS egri chizig'ining qaerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.

* * *

3. Yopiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi $C = 80 + 0,8Y_d$, investitsiya funktsiyasi $I = 100 - 800R$, soliq stavkasi $t = 0,25$, davlat xarajatlari $G = 60$, pulga bo'lgan talab funktsiyasi $M = (0,5Y - 1000R)P$, pul taklifi $M = 200$, narxlar darajasi $P = 2$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar pul taklifi M 100ga oshsa, LM egri

chizig'ining qaerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.

* * *

4. Yopiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi $C = 170 + 0,6Y_d$, investitsiya funktsiyasi $I = 100 - 400R$, soliqlar $T = 200$, davlat xarajatlari $G = 350$, pulga bo'lgan talab funktsiyasi $M = (0,75Y - 600R)P$, pul taklifi $M = 735$, narxlar darajasi $P = 1$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar soliqlar T 50 oshsa, IS egri chizig'i qaerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.


* * *

5. Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funktsiyasi $C = 300 + 0,8Y_d$, investitsiya funktsiyasi $I = 200 - 1500R$, soliqlar stavkasi $t = 0,2$, davlat xarajatlari $G = 200$, pulga bo'lgan talab funktsiyasi $M = (0,5Y - 2000R)P$, pul taklifi $M = 550$, narxlar darajasi $P = 1$, sof eksport funktsiyasi $X_n = 100 - 0,04Y - 500R$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar narxlar darajasi $P = 2$ bo'lsa, LM egri chizig'i qaerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.

XIV BOB. IQTISODIY O'SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA NEOKEYNSCHA MODELLARI

14.1. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi

Iqtisodiy o'sish — bu, ob'ektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, FTT, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, potentsial YaMM hajmining oshishini bildiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potentsialining o'sishini ham bildiradi.



28-chizma. Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari

Iqtisodiy o'sishda nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham tushuniladi.

Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul, YaIM (SIM)ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaIM (SIM)ning o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) Iqtisodiy o'sishni o'lchash;
- 2) O'sish omillari;
- 3) Iqtisodiy o'sish modellari.

Milliy iqtisodiyot o'sishini o'lchashda jami daromadlarning (mahsulotlarning) har xil indikatorlaridan foydalanish mumkin. Umumiy o'sish darajasi aslida YaIM miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar miqdori va bajarayotgan vazifasiga qarab YaIM yoki MD ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning barchasi bir-biriga juda ham yaqin. YaMD YaIM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko'rsatadi. Shuning uchun ham undan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalanish mumkin. Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas. Chunki, ularning farqi iqtisodiy o'sish chegarasi va omillari o'sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida daromadlar iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi.

$$Y = S + I$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.

Mutlaq miqdordagi ko'rsatkichlar dinamikasi $Y(t)$ (t -vaqt indeksi) va jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar birgalikda o'sish jarayonini bildiradi. Iste'mol hajmi (S) iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini

bildirsa, investitsiyalar esa resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi.

Iste'mol va investitsiya o'rtasida etarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

O'sishning barcha imkoniyatlariga real miqdorlarga tayanilib, ya'ni, doimiy narxlarda qaraladi. Aksincha, nominal ko'rsatkichda ularning dinamikasi nafaqat real o'sish darajasini, balki inflyatsiyani ham o'z ichiga olgan bo'lar edi.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha uch xil miqdordagi dinamikani tahlil qilish mumkin:

1. Absolyut ko'rsatkich: masalan, real ishlab chiqarish Y_t ;
2. Absolyut qo'shimcha o'sish: masalan, ishlab chiqarishning oshishi.

$$\Delta Y = Y_t - Y_{t-1}$$

3. Qo'shimcha o'sish sur'ati $= Y_t - Y_{t-1} / Y_{t-1}$

Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

a) bazis o'sish sur'ati $= (Y_t - Y_0 / Y_0) \times 100$

b) zanjirli o'sish sur'ati $= (Y_t - Y_{t-1} / Y_{t-1}) \times 100$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari esa:

a) bazisli qo'shimcha o'sish sur'ati $= (Y_t - Y_0 / Y_0) \times 100 - 100$

b) zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati $= (Y_t - Y_{t-1} / Y_{t-1}) \times 100 - 100$

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, mamlakat harbiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda YaIM hajmining o'sishi, mamlakat aholisining turmush faoliyati taqqoslanayotganda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlardan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda iqtisodiy o'sishning ikki xil ko'rinishi farqlanadi: haqiqiy va potentsial.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish - bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan YaIM yoki boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.

Potentsial iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyot o'sishi mumkin bo'lgan tezlikdir. Potentsial iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- resurslarning ko'payishi;
- samaradorlikni oshishi.

14. 2. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiy o'sish, avvalo, foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga, shuningdek, foydalanilayotgan texnologiyalarga bog'liq. Agarda, qaralayotgan omillar va iqtisodiy o'sish tarkibiy qismlari yaxlitlashtirilgan bo'lsa, iqtisodiy o'sishni ekstensiv va intensiv o'sishga bo'lish mumkin. Ya'ni, foydalanayotgan resurslar miqdori o'zgarmay qolgan holda ishlab chiqarish o'ssa, to'liq intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Umuman olganimizda iqtisodiy o'sish bir nechta omillarga bog'liq. Bular:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar.

Ushbu omillarning barchasi ishlab chiqarishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy o'sish istiqbollarini belgilashda ishlab chiqarish funktsiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari miqdorining qo'shimcha o'sish sur'atlari ($\Delta K/K$ va $\Delta L/L$) va texnika taraqqiyoti natijasida ularning umumiy unumdorligini qo'shimcha o'sish sur'atlariga ($\Delta A/A$) bog'liq holda mahsulot ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sish sur'atini ($\Delta Y/Y$) hisoblash imkonini beradi:

$$\Delta Y/Y = \Delta A/A + \alpha \times \Delta K/K + (1 - \alpha) \times \Delta L/L$$

Bunda α koeffitsienti ishlab chiqarilgan mahsulotda kapital hissasini, $(1 - \alpha)$ - mehnat hissasini ko'rsatadi.

Faraz qilaylik, milliy mahsulotda kapital hissasi 0,3 ni, mehnat hissasi esa $1 - 0,3 = 0,7$ ni tashkil etsa, unda kapital ($\Delta K/K$) va mehnatning ($\Delta L/L$) 10% ga qo'shimcha o'sishi ishlab chiqarish hajmining ham 10 % ga qo'shimcha o'sishiga olib keladi. ($0,3 \times 10 \% + 0,7 \times 10 \% = 3 \% + 7 \% = 10 \%$). Ya'ni, iqtisodiy o'sish ekstensiv omillar hisobiga ro'y bergan. Ammo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi intensiv omillar hamma vaqt ham qadrlangan va iloji boricha ulardan foydalanishga harakat qilinadi. Shuning uchun ham davlat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, fan-texnikaning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, soliq mexanizmi va tizimini iloji boricha ixchamlashtirish kabi ishlarni olib boradi.

14.3.Xarrod-Domar modeli

Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni asoslash uchun Keynsning asosiy makroiqtisodiy modelini rivojlantirishga birinchi urinish Roy Xarrod va Evsey Domarlar tomonidan amalga oshirilgan. Bu modellar o'rtasida unchalik katta farq bo'lmaganligi sababli ham Xarrod-Domar modeli deb yuritiladi.

Modelda ko'zda tutilgan asosiy faraz milliy daromadni kapital miqdoriga proportsionalligi hisoblanadi:

$$Y = \sigma K$$

Bu erda, Y-milliy daromad, K- milliy daromadni yaratish uchun foydalanilgan kapital miqdori, σ -kapital qaytimi koeffitsienti.

Ushbu formuladan foydalanib σ -kapital qaytimi koeffitsientini aniqlashimiz mumkin:

$$\sigma = Y / K$$

Kapital qaytimi koeffitsienti yoki kapitalning o'rtacha unumdorligi birlik kapital hisobiga yaratiladigan daromad miqdorini ko'rsatadi.

$$\Delta Y = \sigma \times \Delta K$$

Daromadning qo'shimcha o'sishi kapital qo'shimcha o'sishiga teng.

Agar kapital qo'shimcha o'sishini investitsiyalar sifatida qarasak, ya'ni $\Delta K = I$, unda ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta Y = \sigma \times I$$

Endi iqtisodiyotda jamg'arish me'yori (S_y) doimiy miqdor hisoblanadi, jamg'armalar esa investitsiyalarga teng deb faraz qilsak, unda

$$S = I = S_y \times Y$$

$I = \Delta Y / \sigma$ bo'lgani uchun $\Delta Y / \sigma = S_y \times Y$ bo'ladi. Endi so'nggi tenglamada σ ni o'ng tomonga o'tkazib, ikkala tomonni Y ga bo'lish orqali Xarrod-Domar modelining yakuniy formulsini olamiz.

$$\Delta Y / Y = \sigma \times S_y$$

$\Delta Y / Y$ nisbat kapitalning to'liq bandligidagi daromad qo'shimcha o'sishini o'zida aks ettiradi. Ushbu formulaga muvofiq aniqlanadigan o'sish sur'atini Xarrod "kafolatlangan" deb atadi, chunki u mavjud quvvatlarning, mazkur holda kapitalning to'liq ishlatilishini kafolatlaydi.

O'sish sur'atining "kafolatlangan" tushunchasi bilan bir qatorda Xarrod "tabiiy" o'sish sur'ati tushunchasini kiritdi. "Tabiiy" o'sish sur'ati deganda Xarrod faol aholining o'sishi va texnika taraqqiyoti imkon beradigan maksimal o'sishi kapital va milliy daromadning shunday o'sish sur'atini ta'minlaydiki, unda kapital va mehnatning to'la bandligiga erishiladi. Biroq, ushbu modelda texnika taraqqiyoti quyidagi nisbatlarni, ya'ni K/Y va $\Delta K / \Delta Y$ o'zgartirmaydi:

14.4.O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish va davlat siyosati

Respublikamizda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish va natijalarni ishlab chiqarishga zudlik bilan qo'llash maqsadida yirik-yirik loyihalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari respublika ta'lim tizimida keskin yangiliklar qilinmoqda. Ya'ni, respublikada ko'p bosqichli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul

qilindi. Ushbu dasturga asosan yoshlarni xalqaro talablarga javob beradigan darajada o'qitishni ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy o'sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta'sir qiladi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiya ajratmalari me'yorining o'sish tomon o'zgarishi investitsiyalar hajmini ko'paytiradi va shu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Umuman, ijtimoiy va ekologik muammolar kuchaygan deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga eng avvalo aholi farovonligini ta'minlashning sharti sifatida qaralmoqda. Chunki, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy nazariyasi o'z o'rnini iqtisodiy o'sishning sifat nazariyasiga bo'shatib berdi. Uning asosiy mohiyati kslajak avlodlar ehtiyojini va aholining kambag'al qatlamlari ehtiyojini hisobga olishdadir.

Davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan:

- iste'mol darajasi yuqori bo'lgan, iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga qaratilgan omonat jamg'arish me'yorlarini tanlash;
- aholi o'sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy nazariya va amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlashmokda va kengaytirilmoqda.

Agarda ilgari uni moddiy ta'minlanganlikning miqdoriy ko'rsatkichlari aks ettirgan bo'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish, o'lim darajasi, shu jumladan, bolalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lim darajasi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'yilmotsda. Ya'ni, iqtisodiy o'sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib bsrishi lozim.

2013 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish hajmi 8,0 foizga o'sdi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tizimli va islohotlarning izchil amalga oshirilishi hisobiga erishilmoqda. Xususan,

- tashqi va ichki bozor talablari asosida iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash jarayonlarining izchil amalga oshirilayotganligi;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish;

- bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o'z vaqtida bajarilayotganligi;

- ichki talabni aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta'minlash hisobiga rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

- qishloq xo'jaligini isloh etish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarning yaratib berilishi, qishloq xo'jaligida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish ko'lamining kengaytirilishi;

- respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, uning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

2013 yilda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlarining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi.

Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 8,8 foizga oshdi. Sanoatda yuqori o'sish sur'atlari yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash (o'sish sur'ati 21 foiz), engil sanoat (13 foiz), qurilish materiallari (13,6 foiz) hamda oziq-ovqat (9 foiz) sanoati tarmoqlarida kuzatildi.

2013 yilda qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2012 yilga nisbatan 6,8 foizga oshdi. Shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish 6,4 foizga, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish esa 7,4 foizga oshdi.

2013 yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga o'sib, uning YaIM tarkibidagi ulushi 53,0 foizni tashkil etdi.

Jumladan, yuqori o'sish sur'atlari kompyuter dasturlash (30,4 foiz), moliyaviy xizmatlar (29,3 foiz), sog'liqni saqlash (27,2 foiz), qurilish (25,4 foiz), maishiy xizmatlar (23,2 foiz), aloqa va axborotlashtirish (21,9 foiz), qishloq xo'jaligining texnik vositalarini ta'mirlash (18,2 foiz) hamda savdo va umumiy ovqatlanish (16,6 foiz) xizmatlarini ko'rsatish sohalarida kuzatildi.

4-jadval

2008-2013 yillarda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, % da	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Yalpi ichki mahsulotning o'sishi	9,0	8,1	8,5	8,3	8,2	8,0
Sanoat mahsulotning o'sishi	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7	8,8
Xizmat ko'rsatish hajmi	21,3	12,9	13,4	16,1	15,0	13,5
Chakana savdo aylanmasi	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9	14,8
Davlat byudjetining bajarilishi	+1,5	+0,2	+0,3	+0,4	+0,4	+0,3
Inflyatsiya darajasi	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	40,0	40	32	26,5	26,5	20,8
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	23,0	26,5	23,5	23,1	17,5	16,0

Iqtisodiy o'sishning salbiy oqibatlaridan biri aholini ijtimoiy, mulkiy tabaqalanishi kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun xam davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosatlarni olib boradi.

Daromadlar darajasi bo'yicha tabaqalanishni aniqlash uchun, dastlab, aholi daromadlari miqdori aniqlanadi. Aholi daromadi ish haqi, dividendlar va foizlardan, shuningdek, transfert to'lovlaridan tashkil topadi. Daromadlar kengroq ma'noda pulsiz yoki imtiyozli narxlarda axoli oladigan tovarlar va ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi, transport va boshqa xizmatlar bo'yicha imtiyozlar ko'rinishidagi to'lovlarni ham o'z ichiga oladi.


Ish haqi, dividendlar va foizlarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashganlar daromadlar taqsimlanishi natijasida oladilar. Davlat daromadlarning taqsimlanishiga ish haqining eng kam miqdorini qonuniy ravishda o'rnatish orqali ta'sir ko'rsatadi. Eng kam ish haqi ushbu mamlakatda tarkib topgan turmush sharoitiga bog'liq bo'lib, eng kam iste'mol byudjetb asosida aniqlanadi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch vositalar yordamida amalga oshiradi:

1. Soliq tizimi;
2. Transfert dasturlari.

Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodav lat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarining barcha turlari yagona maqsadga, ya'ni, aholi daromadlarini tenglanggirishga yo'naltirilgan.

Daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalash uchun ko'p hollarda Lorents egri chizig'i grafigidan foydalaniladi.



29-chizma. Lorents egri chizig'i

Grafikning gorizontaal o'qida aholi hissasi (foizi), vertikal o'qida daromad hissasi (foizi) ko'rsatilgan. Agar jamiyatda daromad mutlaq baravar taqsimlangan deb faraz qilsak, ya'ni 20 foiz aholi jami daromadning 20 foiziga, 40 foiz aholi 40 foiziga ega bo'lsa, unda mutlaq tenglikning bu vaziyatini ifodalovchi chiziq bissektisa ko'rinishiga ega bo'lar edi. Ammo, hayotda aholi o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, agar aholining 20 foizi A nuqta bilan belgilangan daromadlarning o'zgina qismini olsa, aholining 40 foizi B nuqta bilan belgilangan qismini oladi va hokazo. Bunday holatda daromadning haqiqatda taqsimlanishini bildiruvchi chiziq Lorents egri chizig'i deb ataladi. Bissektisa va Lorents egri chizig'i o'rtasidagi uzilish yoki maydon qancha katta bo'lsa, daromad taqsimlanishining tengsizlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu uzilish kattaligi tengsizlik darajasini ifodalaydi. O'zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o'rtasidagi tafovut darajasi so'nggi yillarda 8 barobarga to'g'ri kelmoqda. Ko'pgina, shu jumladan, qo'shni davlatlarda bu raqam mamlakatimizdagi ko'rsatkichdan bir necha barobar yuqori ekani, ya'ni o'ta kambag'al va nochor aholi guruhlari va o'ta boylar guruhi orasidagi tafovut oshib borayotganini ta'kidlash lozim.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda amalga oshirayotgan ijtimoiy siyosatimizning aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishdagi ta'siri va natijalari haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur. 2013-yilda xalqimizning real

daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdori o'rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iboratdir. Joriy 2014-yilda mamlakatimizda bu ko'rsatkichni 41 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda. Oilalar daromadlari tarkibi o'zgarmoqda – tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etmoqda. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 20-25 foizdan oshmaydi.

Tayanch so'z va iboralar: iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish sur'atlari, absolyut o'sish, bazisli absolyut o'sish, zanjirli absolyut o'sish, qo'shimcha o'sish, qo'shimcha o'sish sur'ati, iqtisodiy o'sish omillari, Xarrod-Domar modeli, Lorents egri chizig'i.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uni o'lchash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi?
3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni formulalar yordamida tushuntirib bering.
4. Iqtisodiy o'sish qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?
5. Iqtisodiy o'sishda Lorens egri chizig'ining qanday aloqasi bor?
6. Xarrod-Domar modelini mohiyatini tushuntirib bering.
7. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish qanday ahamiyatga ega?
8. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari qanday?

XV BOB. IQTISODIY O'SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI

15.1. Xarrod-Domar modelining kamchiliklari

Xarrod-Domar modelida kamchiliklar mavjud bo'lib, bu avvalo dinamik muvozanatning iqtisodiy o'sish sharoitida chidamli emasligidir. Bu kamchilik ushbu modeldagi kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbat bilan bog'liqdir. Agar tabiiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atidan katta bo'lsa, unda haqiqatda iqtisodiyot ishsizlik mavjud bo'lganda kafolatlangan o'sish sur'atlari bilan rivojlanishi mumkin. Biroq, boshqacha ham bo'lishi mumkin, ya'ni haqiqatda iqtisodiyot kafolatlangan o'sish sur'atidan yuqori sur'atlarda rivojlanishi mumkin, chunki ortiqcha mehnat resurslari qo'shimcha investitsiyalarni jalb etishga imkon beradi. Natijada muvozanatli iqtisodiy rivojlanish sharoitini buzishga qodir iqtisodiy holat yuzaga keladi.

Xarrod-Domar modelining cheklanganligi uning dastlabki o'lchovlarida berilgan. Ushbu modelda qo'llaniladigan Leontevning ishlab chiqarish funktsiyasi ishlab chiqarish omillari – mehnat va kapitalni o'zaro almashtirish imkonini yo'qligi bilan xarakterlanadi, bu haqiqiy hayotdagi mos kelmaydi. Bundan tashqari mazkur modeldagi barcha tarkibiy qismlar: daromad va kapital nisbati, iste'molga chekli moyillik, ishchi kuchini o'sishi, mehnatni tejovchi texnika taraqqiyoti bir biriga bog'liq emas, shuning uchun muvozanatli iqtisodiy o'sishga erishish ehtimoli nolga teng. Shu sababdan ham Xarrod-Domar modeli "brtiva lezviyasi" modeli nomini olgan. Bunda undagi tarkibiy qismlarning kam hajmdagi muvozanatsizligi butun tizim muvozanatini buzib yuboradi.

Aynan shu sababdan, 1950 yillarning o'rtalaridan boshlab ishlab chiqarish funktsiyalari ishlab chiqarish omillarini o'zaro almashinishini ko'zda tutuvchi iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari muvaffaqiyatga ega boshladi.

15.2. Iqtisodiy o'sishning R.Solou modeli

Klassik iqtisodiy o'sish modellarining keynscha modellardan asosiy farqi mehnatning kapital bilan qurollanganlik koeffitsientini tabiatidadir. uzluksiz yoki

nouzluksiz variantlarda yozilishi mumkin. Kapital bilan qurollanganlik koeffitsienti ishlab chiqarishda band bo'lgan bir ishlovchiga to'g'ri keladigan asosiy kapital qiymatini ko'rsatadi.

Agar iqtisodiy o'sishning keynscha modellarida bu koeffitsient o'zgarmas miqdor bo'lsa, klassik modellarda u iqtisodiy holatga qarab o'zgarib turadi. R.Solou modelida Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funktsiyasida mehnat va kapital o'zaro almashishi mumkin, omillar bo'yicha elastiklik koeffitsientlari yig'indisi 1 ga teng.

Birinchi holatdagi $Y = f(K, L, W)$ o'zgaruvchi modellari vaqtning uzluksiz funktsiyasi hisoblanadi.

Ikkinchi holatda bu miqdorlar vaqtning kstma-ketligi sifatida qaraladi. Agarda model real statistik ma'lumotlardan tashkil topsa va amaliy hisob-kitoblarda foydalanilsa, u holda uni nouzluksiz qilish oson, chunki, statistik ma'lumotlar har doim uzluksiz emas, balki ularda vaqti-vaqti bilan uzilishlar bo'ladi. Iqtisodiy o'sish modellarining umumlashtirilgan holatini quyidagicha yozish, undagi har bir aniq modelni tuzayotganda ayrim qo'shimcha o'zgaruvchilar, cheklashlar, iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish mumkin:

$$Y_t = G'(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

$$Y_t = C_t + I_t; \quad (2)$$

$$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t; \quad (3)$$

$$I_t = a_t Y_t; \quad (4)$$

$$W_t = p K_t. \quad (5)$$

Ushbu modellarning mazmuni quyidagilardan iborat:

(1) ishlab chiqarish funktsiyasi formulasi: bu erda t ga bog'liq holda modelga texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;

(2) daromadlarni iste'mol va investitsiyaga taqsimlashni ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;

(3) vaqtinchalik investitsiya bo'lmagan vaziyatda investitsiya va uning chiqib ketishini hisobga olgan xolda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;

(4) jamg'arish normasi (a_t) orqali daromadlar va investitsiyalarni bog'lab turuvchi ayniyat;

(5) chiqib ketishning doimiy normasi (K_t) sharoitida kapitalning chiqib ketishi hajmini hisoblash formulasi.

Ushbu tizimdagi eng asosiy formula ishlab chiqarish funktsiyasi (1) hisoblanadi.

(1) - (5) modeli birinchi marta 1956 yili R. Solou tomonidan taklif qilingan edi. Uning turli ko'rinishlari va usullaridan hozirgi kunda ham keng foydalanilib kelinmoqda. Solou modelida ishlab chiqarish funktsiyasi (1) ishlab chiqarish omillarining eng so'nggi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg'arishda investitsiyalarga qilingan qo'shimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo'shimcha samaralarni qoplamay qolgan vaziyatda to'xtatiladi. Solou modeli paydo bo'lguncha iqtisodiy o'sishni ko'rsatadigan model Xarrod va Domar modellari (1939,1946) hisoblangan. Ularning modelida o'sishni ta'minlaydigan asosiy omil doimiy kapital qaytimi o'sishi hisoblangan. Solou modeli Xarrod-Domar modeliga nisbatan iqtisodiy o'sishni izohlashda qo'shimcha ko'rsatkichlarga ega.

Demak, Xarrod va Domar modellarida o'sishini ta'minlaydigan asosiy omil investitsiyalar, ya'ni kapital jamg'arish deb hisoblanadi. Bu modellar 1920-50 yillardagi iqtisodiy o'sishlarni izohlashga qo'l kelgan, ammo keyingi yillardagi kuzatishlarga to'g'ri kelmay qolgan. Uning asosiy mohiyati:

1. Kapital unumdorligining doimiyligini, $\alpha = dy/dk$;
2. Doimiy jamg'arish normasi, $s = I/Y$;
3. Kapital chiqib ketishi mumkin emasligi, $W = 0$;
4. Investitsion uzilish ham nolga teng, $dk(l) / dt = I(T)$;
5. Model texnik taraqqiyotni hisobga olmaydi;
6. Ishlab chiqarish mehnat xarajatlariga bog'liq emas, chunki, mehnat resurslari kamyob hisoblanmaydi.

Kapital unumdorligining doimiy xususiyati, agarda mehnat kamyob resurs hisoblanmasa, Leontevning ishlab chiqarish funksiyasidan iborat bo'ladi.

$$Y(t) = \min ((\alpha L (t); dK (t));$$

Daromadlarni qo'shimcha o'sishi dy/yd_t vaqt bilan doimiydir va αs ga teng. U jamg'arish normasiga va kapital unumdorligiga mutanosib, Xarrod va Domar modellarida investitsiya (I) va iste'mol (S) ham shunday darajada o'sadi. Bunda iste'mol bilan investitsiya o'rtasidagi qarama-qarshiliklar shundan iboratki, jamg'arish normasi (s) qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molning o'sish normasi xam shunchalik yuqori va uning boshlang'ich darajasi shunchalik kam bo'ladi. Bu qarama-qarshilikni xal qilish uchun iste'mol to'g'risida doimiy ravishda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Agarda, ishlab chiqarishning talab qilinayotgan o'sish darajasi aholi soni va bandlikning o'sish darajasidan yuqori bo'lsa, mehnat kamyob omil hisoblanmaydi. Bunda mehnatni kapital bilan almashtirib bo'lmasa va shuningdek, texnik taraqqiyot ham bo'lmasa, ushbu modelda mehnat limitlovchi omil hisoblanishi mumkin. Umumiy o'sish darajasi mehnatga qilingan xarajatlarning o'sish darajasiga tsnglashadi, jon boshiga iste'mol va jamg'arish darajalari esa o'sishdan to'xtaydi. Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda texnik taraqqiyot, mehnat va kapitalning sifati, bir-birini almashtirishi va birgalikda faoliyat ko'rsatishlar asosiy resurs va omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olmaydigan o'sish nazariyasida, ya'ni, o'sishning asosiy manbai kapitalni fizik jamg'arish o'sishni doimiy ravishda tartibga solib turuvchi omil hisoblanadi. Jamg'arish normasi esa asta-sekinlik bilan ikkinchi planga tushib qoladi. Iqtisodiy o'sishni ta'riflaydigan boshqa bir model R.Solou modeli hisoblanadi. Xarrod va Domar modeliga nisbatan Solou modeli makroiqtisodiy jarayonlarning ayrim tomonlarini to'liqroq ochib beradi.

Birinchidan, bu modelda ishlab chiqarish funksiyasi to'g'ri chiziqdan iborat emas va unumdorlikning kamayib borishi kabi xususiyatlarga ega.

Ikkinchidan, model asosiy kapitalning chiqib ketishini hisobga oladi.

Uchinchidan, Solou modeli mehnat resurslari va texnik taraqqiyot dinamikasi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisobga oladi.

To'rtinchidan, bu erda ko'pgina hollarda iste'mol darajasini maksimallashtirish vazifasi qo'yiladi va hal qilinadi.

Biz Solou modelini to'liq izohlab bermoqchi emasmiz, balki uning asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari va xulosalarini keltirib o'tmoqchimiz.

Solou modelida doimiy muvozanat sharoitida asosiy o'zgaruvchilarni quyidagi jadvalda keltirilgancha tavsiflash mumkin.

5-jadval

Solou modelida muvozanatli sharoitda asosiy o'zgaruvchilarning tavsifi²

Aholi o'sishi va texnologik taraqqiyot mavjud bo'lmaganda		Aholi n sur'atda o'sganda		Aholi n va texnologik taraqqiyot g sur'atda o'sganda	
o'zgaruvchi	o'sish sur'ati	o'zgaruvchi	o'sish sur'ati	o'zgaruvchi	o'sish sur'ati
L	0	L	n	L	n
				$L \cdot E$	$n + g$
K	0	K	n	K	$n + g$
				$k' = K/L \cdot E$	0
$k = K/L$	0	$k = K/L$	0	$k = K/L$	g
Y	0	Y	n	Y	$n + g$
				$y' = Y/L \cdot E$	0
$y = Y/L$	0	$y = Y/L$	0	$y = Y/L$	g

Solou modeli iqtisodiyotda muvozonatni va omillarning to'la bandligini saqlovchi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish mexanizmini ifodalashga imkon beradi. Bu model farovonlikning barqaror o'sishining yagona asosi sifatida texnik taraqqiyotni ajratadi va iste'molning maksimallashtirishni ta'minlovchi o'sishni ta'minlovchi maqbul variantni topish imkonini beradi.

Biroq, Solou modeli ham kamchiliklardan holi emas.

Birinchidan, bu model uzoq muddatli davrda erishiladigan barqaror muvozanatli holatni tahlil qiladi, iqtisodiy siyosatda esa ishlab chiqarish va turmush darajasining qisqa muddatli davrdagi o'zgarishi ham muhim.

² Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник, с.243

Ikkinchidan, model zamonaviy sharoitda sezilarli ahamiyatga ega bo'lgan o'sishni cheklovchi bir qator resurs, ekologiya va ijtimoiy masalalarni qamrab olmagan.

15.3. Felpsning jamg'arishni “oltin qoidasi”

1961 yilda amerikalik iqtisodchi E. Felps jamg'arishning “oltin qoidasi”ni keltirib chiqardi. Umumiy holda bu qoidani quyidagicha ifodalash mumkin: jamiyatning eng yuqori iste'molini va iqtisodiyotning chidamli holatini ta'minlovchi kapitalni jamg'arish darajasi kapitalni jamg'arishning “oltin darajasi” deb ataladi.

Optimal muvozanatli o'sishning birinchi belgisi kapitalning o'sish sur'ati kapitalning chekli unumdorligiga teng bo'lganda iste'molning o'rtacha me'yori o'zining maksimal darajasiga erishadi.

Optimal muvozanatli o'sishning ikkinchi belgisi agar muvozanat holatida kapitalning o'sish sur'ati daromadning o'sish sur'atiga mos kelsa, chekli unumdorlik nazariyasidan kelib chiqqan holda daromadning o'sish sur'ati daromad va kapital o'zgarishlari o'rtasidagi nisbatga teng bo'ladi.

E. Felps jamg'arishning “oltin qoidasi” deb atagan iqtisodiyotni muvozanatli o'sishining uchinchi belgisi agar jamg'arish me'yori kapital bo'yicha ishlab chiqarish hajmi elastikligiga teng bo'lsa, iqtisodiyot iste'mol me'yorini maksimallashtiruvchi muvozanatli sur'atda o'sishini anglatadi.

“Oltin qoida”ga mos keladigan fond bilan qurollanish darajasida quyidagi shart bajarilishi, ya'ni kapitalning chekli mahsuloti chiqib ketish me'yoriga teng bo'lishi lozim. $MPK=d$, aholi o'sishi va texnologik taraqqiyot hisobga olinganda esa $MPK=d+n+g$.

Agar iqtisodiyot dastlabki holatda “oltin qoida” bo'yicha ko'zda tutilgandan ko'proq kapital zahirasi ega bo'lsa, jamg'arish me'yorini pasaytirish bo'yicha dastur zarur. Bu dastur iste'molni oshirish va investitsiyalarni pasaytirishni

asoslaydi. Bunda iqtisodiyot muvozanat holatidan chiqadi va “oltin qoida”ga mos nisbatlar bo’lganda, yana muvozanatga erishadi.

Agar iqtisodiyot dastlabki holatda “oltin qoida” bo’yicha ko’zda tutilgandan kamroq kapital zahirasi ega bo’lsa, jamg’arish me’yorini oshirish bo’yicha dastur zarur. Bu dastur dastlab investitsiyalarni o’sishi va iste’molni pasayishiga olib keladi. Bunda iqtisodiyot muvozanat holatidan chiqadi va “oltin qoida”ga mos nisbatlar bo’lganda, yana muvozanatga erishadi.

Iqtisodiyotni optimal muvozanatli o’sishiga kapitaldan daromadni to’liq investitsiyalangan sharoitdagina erishiladi.

Tayanch so’z va iboralar: Keynscha model, klassik model, Solou modeli, Kobb-Duglas funktsiyasi, jamg’arishning “oltin” qoidasi, optimal muvozanatli o’sish.

Nazorat savollari

1. Xarrod-Domar modelining kamchiliklari nimada?
2. Iqtisodiy o’sishning klassik modellari qachondan muvaffaqiyatga erishdi?
3. R.Solou modelining afzalliklari nimadan iborat?
4. Felpsning jamg’arishning oltin qoidasini mazmuni qanday?
5. Optimal muvozanatli o’sishning belgilarini izohlang.
6. Iqtisodiyotni optimal muvozanatli o’sishiga qanday sharoitda erishiladi?

Mavzuga oid masalalar

1. Mamlakat iqtisodiyoti $U=AK^{0.4}L^{0.6}$ ko’rinishidagi ishlab chiqarish funktsiyasi bilan ifodalangan. Kapitalning o’sish yiliga 3 foizni, bandlar sonini o’sishi 2 foizni, omillarning umumiy unumdorligi o’sishi 1,5 foizni tashkil etsa, ishlab chiqarish hajmi qanday o’zgaradi.

* * *

2. Daromaddagi kapital hissasi 40%ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi bir yilda 3%ga, ishchilar soni esa 1,3%ga o'sayapti, iqtisodiy o'sish yiliga 6%ni tashkil etayapti. Kobb - Duglas funktsiyasi asosida kapitalning bir yillik o'sish sur'atini aniqlang.

* * *

3. Iqtisodiyotdagi YaIM 104%ga, ishchilar soni 1,1%ga, kapital hajmi esa 1,0% o'sdi. Daromaddagi mehnat hissasi 60%ni tashkil etadi. Iqtisodiy o'sishda ekstensiv va intensiv omillarining ulushini aniqlang.

* * *

4. Iqtisodiyotda daromaddagi kapital hissasi 50%ni tashkil etadi. Boshlang'ich (dastlabki) kapital bilan ta'minlanganligi kapitalning 16 birligini tashkil qiladi, daromadning 25%i jamg'ariladi, kapitalxizmat qilishining o'rtacha muddati - 20 yil. Boshlang'ich va barqaror holatdagi bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligini, iste'mol va investitsiya hajmini, hamda kapital bilan ta'minlanganlikning barqaror darajasini aniqlang.

* * *

5. Mamlakatdagi YaIMning real o'sishi yiliga 4%ni tashkil etadi. Asosiy fondlarning umumiy qiymati YaIMdan uch baravar ko'proqdir. Bir yilda kapitalning ishdan chiqib ketishi YaIMning 15%ini tashkil etadi. Umumiy daromaddagi mehnatninghissasi 60%ga teng. Jamg'arma sohasida iqtisodiy siyosatning choralari aniqlang.

* * *

6. Mamlakatdagi YaIMning real o'sishi yiliga 4%ni tashkil etadi. Asosiy fondlarning umumiy qiymati YaIMdan uch baravar ko'proqdir. Bir yilda kapitalning ishlab chiqarishdan chiqib ketishi YaIMning 15%ni tashkil etadi. Umumiy daromaddagi mehnatning hissasi 60%ga teng. Jamg'armaning optimal me'yorini ("Oltin qoida"ga to'g'ri keladigan jamg'arma me'yorini), kapital bilan ta'minlanganlikning barqaror darajasini va bir ishchiga to'g'ri keladigan daromadni aniqlang ($A = 1$).

* * *

7. Ishlab chiqarish funktsiyasining ko'rinishi $Y = K^\alpha L^{1-\alpha}$, $\alpha = 0,5$, mehnat birliklarning miqdori 16, kapital birliklarning miqdori esa 9. Mehnat va kapital egalarining daromadini aniqlang.

* * *

8. Ishlab chiqarish funktsiyasining ko'rinishi $Y = K^{1/2} L^{1-1/2}$, mehnat birliklarning miqdori 25, kapital birliklarning miqdori esa 100. Agar muvozanatli foiz stavkasi sharoitida davlat xarajatlari 8ga, jamg'arma esa 10 ga teng bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulotning taqsimlanishi qanday bo'ladi?

* * *

9. Ishlab chiqarish funktsiyasining ko'rinishi $Y = AK^\alpha L^{1-\alpha}$, $\alpha = 1/3$, mehnat birliklarining miqdori 8, kapital birliklarining miqdori esa 64. Ishlab chiqarish omillarining umumiy unumdorligi 60 ga teng. Ishlab chiqarish hajmini aniqlang.

* * *

10. Ishlab chiqarish funktsiyasining ko'rinishi $Y = K^{1/2} L^{1-1/2}$, mehnat birliklarining miqdori 100, kapital birliklarning miqdori esa 36. Agar muvozanatli foiz stavkasi sharoitida iste'mol 40ga, investitsiyalar esa 12 ga teng bo'lsa, davlat xarajatlarining hajmini aniqlang.

* * *

11. Faraz qilaylik, novvoyxonada nonning narxi - 80 so'm, bir soatlik ish haqi esa 160 so'mni tashkil etadi. o'z foydasini maksimallashtirish uchun novvoyxonaning qo'shimcha ishchilarni ishga qabul qilish sharti qanday bo'ladi?

XVI BOB.XALQARO SAVDO NAZARIYASI

16.1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari

Hozirgi zamon iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, ya'ni mamlakatlarning ixtisoslashuvi va ular o'rtasida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda. Mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda bu holatlarni etiborga olishi shart.

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kaitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valyuta, kredit munosabatlari rivojlandi. Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim ob'ektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi. Eng katta hududga ega bo'lgan yoki rivojlangan davlatlar ham barcha resurslar bilan o'zini to'liq ta'minlay olmaydi. Ular o'zlarida ortiqcha bo'lgan resurslarni eksport qilishga va mamlakatda taqchil bo'lgan resurslarni import qilishga majburlar.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi. Ya'ni bir tovar Yaponiyada arzon ishlab chiqarilsa, ikkinchi tovar O'zbekistonda arzon ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababli resurslardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatlar ixtisoslashadilar va o'zaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yadilar.

Bu ikki ob'ektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 2012 yilda xalqaro savdo hajmi jahon miqyosida yalpi ichki mahsulotning real hajmiga nisbatan olinganda 50 foizga yaqinni tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston real yalpi ichki mahsulotida tashqi savdo, ya'ni tashqi savdo aylanmasining ulushi 62,4 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xom ashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayirboshlash: muxandislik-maslahat xizmatlari;
- transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar.
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xou»lar.

Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

Eksport operatsiyasi - mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi - mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi - avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi - avval eksport qilingan va u erda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

16.2 . Mutlaq va nisbiy afzallik nazariyalari

Shu paytgacha qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish barcha mamlakatlar uchun foyda keltiradi degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning mutlaq afzallik nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Shunday ekan mamlakat mutlaq afzallikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib

oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekiston asosan paxta mahsulotlarini etishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko'prots shunga e'tiborni qaratish lozim. Chunki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ob-havosi va qolavrsra, butun respublika sharoiti paxta etishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o'zi ixtisoslashgan sohaga ko'proq e'tiborni qaratishsagina dunyo bo'yicha ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo'l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Ammo qaysidir mamlakat hech qaysi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda mutlaq afzallikka ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa shu mamlakat hamma tovarlarni chetdan keltiradimi degan savolni tug'diradi. Agar shunday bo'lsa importni bu mamlakat qaysi mablag'lar hisobiga moliyalashtiradi. Bu savolga javob berish borasida mutlaq afzallik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

D. Rikardo A. Smitning «Mutlaq afzallik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi. D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq afzallikka ega bo'lgan yohud kamroq zaiflikka ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi.

Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari "Nisbiy afzallik nazariyasi"da o'z echimiga ega bo'ldi. Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va

Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo'lsin. Shuni hisobga olgan holda D. Rikardoning "Nisbiy afzallik nazariyasi"ni qo'llaymiz:

Ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan mehnat birligi miqdori;

	Movut (dona)	Vino(bir barrel)
Portugaliya	90	100
Angliya	80	120

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo'lga qo'yish ko'proq foyda olib kelishini ta'kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda nisbiy afzallikdagi farq har bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi. Ya'ni, Portugaliya bir barrel vinoni (80 birlikda) 120 birlikda Angliyaga sotsa va o'z navbatida, Angliyadan (100 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa 8/9 donaga ega bo'lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyaning vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga oladigan foydasi quyidagicha bo'ladi.

$$120 / 100 - 8 / 9 = 1,2 - 0,888... = 0,31 \text{ dona movut.}$$

Angliya esa movut ishlab chiqarishda kamroq zaiflikka ega. Ya'ni movut ishlab chiqarishga qilinadigan mehnat sarflari o'rtasidagi farq vino ishlab chiqarishdagiga nisbatan kamroq. Demak movut ishlab chiqarishga ixtisoslashish hisobiga xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya'ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga 11/8 barrel vino (o'zidagiga nisbatan 5/6 barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug'i;

$$9 / 8 - 5 / 6 = 7 / 24 = 0,29 \text{ barrel vino.}$$

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga 9/8 dona movut sotib olgandagina xalqaro savdo foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga 5/6 dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag'batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishguncha o'tgan davriga nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo'ladi. Ammo, bu borada barcha nazariyalar ham savdoda mamlakatlarning pul birliklari ishtirokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olgan.

U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to'lovlari o'zaro balansga ega emas. Bunday vaziyat valyuta kurslaridagi o'zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o'zgartirish hisobiga bartaraf etiladi. Yuqoridagi misol mavhum xususiyatga ega. U aniq vaziyatlarga asoslanishi uchun:

- mehnat savdo qilayotgan mamlakatlar o'rtasida emas, balki mamlakat ichida harakatchan bo'lishini;
- transport, bojxona xarajatlari, savdo ustamalari va boshqa cheklashlar hisobga olinmasligini;
- mahsulotlarning yangi namunalarni ishlab chiqarishda yangi texnika va tsxnologiyalarni qo'llash hamda ularni ko'p miqdorda seriyali ishlab chiqarishda xarajatlardagi o'zgarishlar e'tiborga olinmasligini ta'minlash imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo'llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (80) va sotib olingan narxdan (120) yuqori narxda sotmaslik ksrak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (90 dan 100 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar nari o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharti» (terms of trade) tushunchasi savdo shartini aniqlab olish uchun esa “savdo sharti indeksi” tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$T = P_x / P_m$$

Bu erda T- “savdo sharti”, P_x - eksport narxlar indeksi, P_m esa import narxlar indeksi

Indeksning o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar narxi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki etkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste'molidagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to'g'risida ma'lumotlar bersada, ko'pgina kamchiliklardan holi emas. Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida er, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini hisobga olgan. Agarda, mehnatning bozor

narxi ish haqi sifatida gavdalansa, kapitalning narxii foiz stavkalari ko'rinishida, urning narxi renta miqdorida aniqlangan.

16.3 . Xeksher — Olinning neoklassik kontsepsiyasi

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchilimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni (30-yillar) ko'rsatish mumkin.

E. Xeksher va B. Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarni tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, er, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.
2. Xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlar bekor qilinsa tovarlarning turli mamlakatlardagi «omil narxi» (tannarxi) ning tenglashishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.
3. Mahsulotlar eksporti o'rnini asta sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo'lsa shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher-Olin kontsepsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko'rinishlarga ega. Faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya'ni, «sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha er mavjud, ammo kapital etishmaydi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan

foydalangan holda kapital talabchan ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don etishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq er resurslari kerak bo'ladi va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar.

Xeksher—Olin kontseptsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar 50 yillarda «Leontev paradoksi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V.Leontev AQSh kapital ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1947 yilda kapital talabchan emas, balki mehnat talabchan mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi. Ya'ni Xeksher-Olin kontseptsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi tadqiqotlar esa AQSh da kapitaldan ko'ra er va ilmiy texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSh ishlab chiqarishida aynan shu omillar ko'proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportyori bo'lib chiqdi. 1948 yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolperlar Xeksher-Olin kontseptsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo'yicha xalqaro savdo-ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning xarakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlari tenglashadi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P.Samuelson hamda V.Stolperlar tomonidan to'ldirilgan savdo kontseptsiyasiga nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro foydali savdoni yo'lga qo'yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi.

Tayanch so'z va iboralar: xalqaro savdo, xalqaro ayirboshlash nazariyalari, mutlaq afzallik nazariyasi, nisbiy afzallik nazariyasi, omillar nazariyasi

Nazorat savollari

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari nimalardan iborat?
2. A. Smitning «Mutlaq afzallik» nazariyasi kamchiligi nimada ko'rinadi?

3. «Nisbiy afzallik» nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Xeksher-Olinning neoklassik kontsepsiyasini izohlab bering.

Mavzuga oid masalalar

1. Rossiya 360 ekskavator va 2400 traktor, Ukraina esa 160 ekskavator va 800 traktor ishlab chiqarishadi. Agar Rossiya faqat ekskavator ishlab chiqarganda, ularning hajmi yiliga 600 donani, agar faqat traktor ishlab chiqarganda, ularning hajmi yiliga 6000 donani tashkil etardi. Mos ravishda Ukraina yo 200 ekskavator yoki 4000 traktor ishlab chiqarishi mumkin. Bu mahsulotlar ishlab chiqarishda qaysi mamlakat mutloq va nisbiy afzallikka ega? Ikkala mamlakat uchun ixtisoslashuv qanday manfaatlarni beradi?

* * *

2. O'zbekiston va Qozog'iston ikkita tovar ishlab chiqarishadi - shakar va avtobuslar. Bu mahsulotlarga ketgan xarajatlar quyidagicha:

	1 tonna shakarga ketgan sarf - xarajatlar	1 avtobusga ketgan sarf - xarajatlar
O'zbekiston	200	600
Qozog'iston	600	600

Bu mahsulotlar ishlab chiqarishda qaysi mamlakat mutloq yoki nisbiy afzallikka ega? Erkin savdo sharoitida O'zbekiston va Qozog'iston qaysi tovarlarni eksport va import qilishadi? O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi erkin savdo sharoitida jahon narxlarning nisbati qaysi darajada o'rnatiladi?

* * *

3. Jadvalda A va B mamlakatlardagi bozorlarning tavsifi berilgan (P - narx, Q_d - talab, Q_s - taklif). Shu ma'lumot asosida erkin savdo sharoitidagi X tovarning jahon narxini aniqlang. Mamlakatlardan qaysi biri X tovarni eksport qiladi, eksport hajmini aniqlang.

	A mamlakat	B mamlakat
P	1 2 3 4 5	1 2 3 4 5
Q_d	5 4 3 2 1	6 5 4 3 2
Q_s	2 3 4 5 6	5 6 7 9 10

* * *

4. A mamlakatda bir kunda 12 uyali telefon yoki 2 musiqa markazi ishlab chiqarilishi mumkin. B mamlakatda esa bir kunda 4 uyali telefon yoki 8 musiqa markazi ishlab chiqarilishi mumkin. Quyidagi savollarga javob bering:

a) Savdo bo'lmagan sharoitda ikkala mamlakatdagi nisbiy narxlarni aniqlang;

b) Savdo munosabatlari o'rnatilganda ikkala mamlakat nimani eksport qiladi;

v) Mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlari o'rnatilgandan keyin jahon narxlari qanday chegaralarda o'zgaradi;

g) Faraz qilaylik erkin savdo o'rnatilishdan oldin A mamlakatning bir kunlik ishlab chiqarish hajmi 8 uyali telefon va 0,5 musiqa markaziga teng edi. B mamlakatning ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 1 uyali telefon va 6 musiqa markaziga teng. Har bir mamlakatning nisbiy afzallik asosida ixtisoslashuvi natijasida ikkala mahsulotning umumiy ishlab chiqarish hajmi qanchaga oshadi.

* * *

5. Jadvalda O'zbekiston va Janubiy Koreyadagi kalkulyatorlarga bo'lgan talab va taklif to'g'risida ma'lumot berilgan.

a) tashqi savdo yo'qligida ikkala mamlakatda muvozanat narxlar va bozordagi mahsulot hajmi qanday bo'ladi?

b) Tashqi savdo o'rnatilgandan keyin kalkulyatorlarning jahon bozorida muvozanat narxi qanday bo'ladi?

v) qaysi mamlakat va qay miqdorda kalkulyatorlarni eksport qiladi?

Kalkulyator larning narxi (bir dona uchun doll.)	O'zbekistonda talab miqdori (ming dona)	O'zbekistonda taklif miqdori (ming dona)	Janubiy Koreyada talab miqdori (ming dona)	Janubiy Koreyada taklif miqdori (ming dona)
5	100	0	80	30
7	80	20	50	50
10	70	40	35	65
15	60	60	20	80
20	50	70	10	90

25	35	85	5	100
30	20	100	0	110

* * *

6. O'zbekistonda ishchi bir kunda 6 metr shoyi yoki 1 kg yog' ishlab chiqarishi mumkin. Qozog'istonda ishchi bir kunda 2 metr shoyi yoki 4 kg yog' ishlab chiqarishi mumkin bo'lsa

a) ushbu mamlakatlarda savdo-sotiq amalga oshirilmaganda nisbiy narxlar qanday bo'ladi?

b) savdo munosabatlari o'rnatilgach, mamlakatlar nimalarni olib chiqadi?

v) mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlari o'rnatilgandan so'ng jahon narxlarini tebranish chegaralari qanday bo'lishi mumkin?

XVII BOB. TASHQI SAVDO SIYOSATI

17.1. Savdo siyosatining mohiyati va tashqi savdoni cheklash usullari

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki ish bilan bandlikni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, to'lov balansini yaxshilash xamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan bunday tadbirlar tashqi savdo siyosati deb yuritiladi. Tashqi savdo siyosati — byudjet-soliq siyosatining tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishidir.

Tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan xar qanday chora-tadbirlar qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davrda esa, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ko'pgina mutaxassis-iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyoti va aholisi turmush darajasini yaxshilash uchun erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq, chunki, tashqi savdoni cheklashga nisbatan uni erkinlashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ko'proq imkoniyat yaratadi, deb hisoblashadi.

Garchand, erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti manfaati nuqtai nazaridan erkin savdo hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi.

Tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilar umuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif usullaridan foydalaniladi.

Tarif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirs, notarif usullariga eksporterlar va ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish, kvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.

Bojxona bojlari avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi.

Import bojlari davlat byudjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. O'z navbatida ular eng kam va eng ko'p miqdordagi import bojlariga bo'linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari o'zaro qulay sharoitlarni yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'rnatiladi. Eng ko'p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi.


17.2. Importga tariflarning ishlab chiqaruvchilarga va iste'molchilarga ta'siri

Xalqaro savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib tarif, ya'ni importga solinadigan bojxona boji hisoblanadi.

Importga tariflarning maxsus va advolor turlari o'zaro farqlanadi. Maxsus bojlar import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan o'rnatiladi. Masalan, 1 barrel neftga nisbatan 2 EVRO.

Advolor bojlar import qilinayotgan tovar qiymatiga nisbatan ma'lum foiz tariqasida belgilanadi. Masalan avtomobil xarid narxining 40%.

Har ikkala turdagi import tariflarning oqibatlari deyarli bir xil bo'lib, buni biz quyidagi grafik vositasida ko'rib chiqamiz.



30- chizma. Import tariflari kiritilishi natijalari

Import tariflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish hajmi S_1 , ichki talab xajmi esa D_1 teng bo'lgan, talab va taklif o'rtasidagi farq ($D_1 - S_1$) import hisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo'lganida edi, narxlar darajasi R_e ga teng bo'lgan bo'lar edi hamda talab va taklif muvozanati E nuqtada o'rnatilgan bo'lardi. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq bo'lgani va importga cheklovlar yo'qligi tufayli milliy bozordagi narxlar jahon bozori narxlari R_w bilan bir xil. Importga tarif joriy qilinishi natijasida ichki narxlar P_w dan R_d ga qadar ko'tariladi. Endi:

Import qilinadigan tovarning ichki narxi = Jahon bozoridagi narxi + (Jahon bozoridagi narxi x tarif stavkasi).

Oqibatda iste'molchilar ma'lum bir yo'qotishlarga duch keladilar. Bu yo'qotishlar grafikda a, b, c, d sohalar bilan ko'rsatilgan.

Narxlarning ko'tarilishi ilgari raqobatbardosh bo'lmagan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun ham foyda ko'rib ishlashga imkon beradi. Umuman shu sohada band milliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini S_1 dan S_2 ga qadar oshiradi va $S_2 - S_1$ hajmdagi mahsulot R_d narxda sotiladi. Shu hajmdagi mahsulotni iste'molchilar oshirilgan narxda sotib oladilar va a sohaga teng yo'qotishga duch keladilar. Ammo, bu yo'qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o'sgan foydasiga aylanadi.

Narxlarning o'sishi oqibatida iste'molchilar ko'rilayotgan tovar iste'moli hajmini D_1 dan D_2 qadar qisqartiradi. Bu yo'qotish grafikda d soha bilan ko'rsatiladi va u hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

$S_2 - D_2$ oraliq tarif joriy qilingandan so'ngi import hajmi bo'lib, shu hajmda tovarni iste'molchilar ilgorigidan yuqori narxda sotib oladilar. Buning natijasida ular turmush darajasidagi yo'qotish ro'y beradi. Bu yo'qotish grafikda s soha bilan belgilangan bo'lib, u davlat byudjetiga borib tushadi. Ya'ni, bu sohadagi iste'molchilarning yo'qotishi davlatning foyda ko'rishi bilan qoplanadi.

Tarif kiritilishi oqibatida iste'molchilar talabi arzon import tovaridan qimmat ichki tovarga yo'naltiriladi. Iste'molchilarning o'sgan to'lovlari yuqori chegaraviy xarajatga ega, raqobatbardosh bo'lmagan samarasiz ichki ishlab chiqarishni kengayishiga olib keladi. Iste'molchilarning bu yo'qotish b sohasi bilan belgilangan bo'lib tarifning «ishlab chikarish samarasi» deyiladi va hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

Shunday qilib:

Iste'molchilarning yo'qotishlari	Ishlab chiqaruvchilar foydasi	Davlat daromadi	Jamiyatning sof yo'qotishi
$a + b + s + d$	$- a$	$- s$	$= b + a$

Demak, iste'molchilarning a sohadagi yo'qotishlari ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishi hisobiga qoplanadi. Ayni damda iste'molchilar shu tarmoq korxonalari aktsiyadorlari bo'lishsa, ular yo'qotishlarining bir qismi o'sgan dividendlar sifatida qaytadi. « s » sohada davlat olgan daromadini transfert to'lovlarini oshirish, soliqlarni pasaytirish, byudjet tashkilotlarida ishlovchilar ish haqini oshirishi ko'rinishida iste'molchilarga qaytarishi mumkin. Ammo « b » + « d » soxalarda jamiyat sof yo'qotishga duch keladi. Valyuta kursi o'zgarishi bu yo'qotishlarni bir oz qoplashi mumkin. Masalan, 20% li tarif kiritilishi natijasida milliy valyuta 4% ga qimmatlashsa import qilinayotgan tovarlarning milliy

valyutada ifodalangan ichki bahosi 20 % ga emas, 16 % ga oshadi. Bu esa tarif kiritilishi oqibatida jamiyatning sof yo'qotish «b» va «d» sohalarning 80 foizini($(16/20) \times 100 = 80$) tashkil etishini anglatadi.

Umuman olganda tariflarni kiritilishiga nisbatan bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib, bu tadbir mamlakat iqtisodiyoti holati, xususiyati va qo'yilgan maqsadlar bilan asoslanadi.

17.3. Tariflarni yoqlovchi xamda ularga qarshi fikrlar. Tarif va ishlab chiqarish subsidiyalari

Bojxona tariflarini kirtishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari:

- mamlakat mudofaa sanoatini himoya qilish imkonini beradi;
- mamlakatda bandlilik darajasi o'sishini ta'minlaydi va yalpi talabni rag'batlantiradi, importning nisbatan cheklanishi natijasida sof eksport o'sadi va joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi xolati yaxshilanadi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qilish uchun zarur;
- davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;
- milliy ishlab chiqaruvchilarni demping ko'rinishidagi chet el raqobatidan himoya qiladi;
- iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg'or siljishlar rag'batlantiriladi va h.k.

Milliy iqtisodiyotning tiqlanishi sharoitida ko'pgina davlatlar o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi» jamiyatda ishsizlik xavfini tug'diradi.

Mamlakatlarda ta'rif mexanizmi orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohalarning himoyalanganligiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha hisoblanadi va tabiiyki, tarifli himoya qilinadi. Tarmoqni tarifli

himoyalanganligining haqiqiy darajasini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Masalan, O'zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizni tashkil qilsin. Ushbu mashinani ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan ehtiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 25 foiz miqdorida o'rnatilsin. Bir dona mashinaning narxi 10000 AQSh dollariga teng bo'lsa, ya'ni bitta avtomobil uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarining narxi 7000 AQSh dollarini, qo'shilgan qiymat esa 3000 AQSh dollarini tashkil etsin.

Avtomobil importiga 40 foiz tarif belgilanganligi uchun har bir avtomobil narxi 4000 AQSh dollariga o'sib, tarif bilan birga 14000 AQSh dollarini tashkil etadi. Ehtiyot qismlar importiga 25 foizli tarif kiritilishi ularga qilinadigan xarajatlarni 1750 AQSh dollariga oshirib 8750 AQSh dollariga etkazadi. Oqibatda mahsulot birligiga ehtiyot qismlar xarajati 1750 AQSh dollariga oshdi. Qo'shilgan qiymat esa 2250 AQSh dollariga ($4000 - 1750 = 2250$) o'sdi. Shunday qilib, tarif kiritilgandan so'ng mahsulot birligiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 5250 AQSh dollarini ($3000 + 2250 = 5250$) tashkil etdi.

Endi esa soha (tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz.

$$E_r = (E_t - E_0) / E_t.$$

Bu srda: E_r - sohaning tarif bilan haqiqiy himoyalanganlik darajasi;

E_t - bojxona tarifi kiritilgandan keyingi qo'shilgan qiymat;

E_0 - bojxona tarifi kiritilishidan oldingi qo'shilgan qiymat.

$$E_r = ((3000 + 2250) - 3000) / 3000 = 2250 / 3000 = 0,75 \text{ yoki } 75\%$$

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobillarga 40% tarif va ehtiyot qismlarga 25% tarifni joriy qilib, davlat milliy avtomobisozlikni xaqiqatda 75% tarifli himoyalanganligini ta'minlaydi.

Proteksianizm siyosatining muhim tamoyili ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko'tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning haqiqiy himoyalanganligini yanada oshiradi.

Bojxona bojlarini joriy qilishni qo'llovchi fikrlarga aksincha bo'lgan muloxazalar ham mavjud. Chunki sanab o'tilgan natijalarga boshqa usullar bilan

kamroq yo'qotishlar hisobiga xam erishsa bo'ladi degan fikrlar xam qaysidir darajada asoslidir.

Birinchidan, import tariflari iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, import tariflari kiritilishi oqibatida ular vositasida himoya qilinayotgan tarmoqlarda resurslar samarasiz sarflanadi.

Uchinchidan, tariflarni kiritish va ular stavkasini belgilash masalasida mamlakat imkoniyatlari xalqaro bitimlar bilan cheklangan.

Milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy firmalar raqobatidan himoya qilishning muqobil usuli ularga bevosita subsidiya berish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish subsidiyasining tariflardan afzalligi shundan iboratki, u bir tomondan, milliy ishlab chiqarishni S_0 dan S_1 gacha o'sishini ta'minlasa (31-chizma), ikkinchi tomondan, iste'moliing mutlaq kamayishiga olib kelmaydi. Chunki, ichki narxlar jahon narxlaridan qimmatlashmaydi.

Subsidiya sharoitida ishlab chiqaruvchilar uchun ichki narxlar darajasi R_d , jahon narxlari R_w darajasiga teng. Shuning uchun, haqiqiy iste'mol hajmi D_0 ga teng. Tarif kiritilgan sharoitda esa u D_1 gacha kamaygan bo'lur edi. Mamlakat farovonligidagi mutlaq yo'tqotish esa «b» sohasidangana iborat bo'ladi. Ayni paytda ishlab chiqarishga berilgan bevosita subsidiyalar ishlab chiqarish xarajatlarining samarali taqsimlanishini kafolatlamaydi.

Chunki, aynan qaysi tarmoqni xalqaro raqobatdan himoya qilishni bilish qiyin bo'ladi. Subsidiyalarni joriy qilgandan so'ng ularni bekor qilish qiyin bo'ladi, raqobat muxiti yo'qoladi hamda bu xarajatlarni moliyalashtirish muammosi kuchayib boraveradi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartibga solish, bandlik darajasini oshirish va yalpi talabni qondirish maqsadida fiskal va pul-kredit siyosatlari qo'llaniladi. Ushbu siyosatlarni qo'llashdan asosiy maqsad mamlakat ishlab chiqarishini xalqaro raqobatdan ximoya qilish, ishsizlik darajasini eng past holatga keltirish va xalq farovonligani oshirishdan iborat.



31- chizma. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiya berilishining iqtisodiy oqibatlari

17.4. Import kvotalari va litsenziyalarni taqsimlash uslublari

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar mazmuniga ko'ra, iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy - xuquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash — bu, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishchi va xizmatchilar eksporti hamda moliya operatsiyalarini o'tkazish, xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Ularni boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solish, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralash va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishining to'xtash hamda savdo balansining tenglashtirish imkonini beradi.

Umuman, import mahsulotlarga beriladigan litsenziyalar quyidagi usullar yordamida joylashtiriladi.

1. Ochiq auktsion — davlat litsenziyalarni yuqori baholarni taklif qilgan ishlab chiqaruvchilarga berishi.

2. Afzal ko'rish tizimi — davlat birinchi navbatda litsenziyalarni ishlab chiqarish hajmi jihatdan yirik bo'lgan firma va kompaniyalarga hech qanday shart va talablarsiz beradi.

3. Xarajat usuli — davlat litsenziyalarni yirik ishlab chiqarish quvvatlariga va resurslarga ega bo'lgan firma va kompaniyalarga beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlarni, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash xalq iste'moli mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarinigina emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda ham qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.


Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Tarif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar tarif stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalashga e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi.

2. Himoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo'llaydi. Chunki, tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli litsenziyalar olish osonroqdir.

Import kvotalari erkin raqobat sharoitiga ko'proq mos keladi. Quyidagi 3 chizmadan ko'rinib turibdiki, kvotalar joriy qilinishi natijasida umumiy farovonlikdagi yo'qotishlar, tariflar kiritilganidagi singari «b» va «d» sohalardan iborat bo'lsa, «s» soha ruxsat etilgan importga ustama narxlarni ko'rsatadi va aholidan litsenziya beruvchi tashkilotlarga beriladigan transfertni xarakterlaydi.

Tariflarga nisbatan kvotalarni joriy qilishdan ko'riladigan farovonlikdagi yo'qotishlar ikki holatda katta bo'ladi. Birinchidan, kvotalar mahsulotlar import qilayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar yoki xorijiy firmalar monopol hukumronligi darajasini oshirsa. Ikkinchidan, importga litsenziyalar samarasiz joylashtirilsa.



32-chizma. Tashqi savdoda kvotalar qo'llanilishining iqtisodiy oqibatlar

17.5. Eksport subsidiyalari va kompensatsion import bojlari

Ko'pchilik hollarda eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi. Bunda tajriba - konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat byudjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi.

Eksport subsidiyalari turli shakllarda qo'llaniladi. Bularga:

- eksportyor firmalarga yoki xorijiy sheriklarga past foizli kreditlar berish;
- reklama xarajatlarini davlat hisobidan qoplash, bozor konyukturasi haqida tekin axborot etkazib berish;
- firmalarga ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushiga muvofiq soliq imtiyozlarini berish;
- bevosita subsidiyalash kiradi.

Amaliyotda eng ko'p subsidiya oluvchi tarmoq qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

Eksport subsidiyalarining berilishi milliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshiradi. Ammo importyor davlatlar tomonidan kiritiladigan kompensatsion import bojlari bu yutuqni yo'qqa chiqarishi mumkin. Oqibatda eksportyor davlat byudjeti yo'qotishga uchraydi, importyor davlat byudjeti esa qo'shimcha daromad ko'radi. Bu tadbir dempingga qarshi kurash ko'rinishlaridan biridir. Dempingga karshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha, eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi xamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maqsadida jahon bozoriga xom ashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirgan sobiq ittifoqdosh respublikalarga nisbatan faol qo'llanilmoqda.


Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, xorij mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga "ixtiyoriy" eksport miqdorlarini cheklashdan iborat. Bu erda «ixtiyoriy so'zi» shartli xarakterga ega. Chunki, eksport qilayotgan mamlakat savdo siyosatida o'z hamkorlari tomonidan birorta noxushlikka duch kelmasligi uchun eksport miqdorini cheklaydi.

Ihtiyoriy ravishda eksportni cheklash ikki xil xususiyatga ega:

1. Ihtiyoriy ravishda eksportni cheklash milliy iste'molchilar uchui tarif va kvotalarni bslgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shuning uchun iste'molchilar ularni e'tiborsiz qabul qiladilar va xukumatga norozilik bildirmaydilar.

2. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida xorij iste'molchilari ular sotib olayotgan eksport mahsulotiga yuqoriroq narx belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, xorijliklar ihtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportyor ko'rgan yo'qotishlarni narxlarni oshirish hisobiga qoplashadi.



33-chizma. Eksport tariflari (eksport bojlari) joriy qilinishining iqtisodiy oqibatlari

Savdo siyosatini amalga oshirishning ko'rib o'tilgan usullarining har biri ijobiy jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarga ham ega. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasi kuchayib borgani sari tashqi savdo liberallashtirib boriladi. Mamlakatning xalqaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishi bu jarayonining qonuniy natijalaridan biridir. Tashqi savdoni erkinlashtirilishi iqtisodiyotda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga olib keladi.

Tayanch so'z va iboralar: tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, eksport, import, bojxona bojlari, bojxona tariflari, eksport boji, import boji, proteksionizm, kvotalash, litsenziyalash, eksport subsidiyalari, eksportni ihtiyoriy chegaralash.

Nazorat savollari

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati nimadan iborat?
2. Tashqi savdoni cheklash usullari qanday?
3. Bojxona bojlari qanday turlarga ajaratiladi?
4. Bojxona bojlari undirilishi nuqtai nazaridan qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
5. Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga sabab nima?
6. Bojxona tariflarini kirtishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari qanday ijobiy oqibatlariga olib keladi?
7. Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga qanday imkoniyatlar beradi?
8. Eksport subsidiyalari va kompensatsion import bojlari qanday vaziyatlarda qo'llaniladi?
9. Eksport subsidiyalari qanday shakllarda qo'llaniladi?
10. Ihtiyoriy ravishda eksportni cheklash qanday xususiyatlarga ega?
11. Tashqi savdoni erkinlashtirilishi iqtisodiyotda qanday ahamiyat kasb etadi?

Mavzuga oid masalalar

1. Mamlakat hukumati avtomobillarga import kvotani bir yilga 600 donadan iborat kiritgan. Avtomobillarga jahon narxi bir dona uchun 6000 doll. Mamlakatda kvota kiritilgandan keyin ichki narx bir dona uchun 7000 dollargacha ko'tarildi. Erkin savdo sharoitida avtomobillarning ichki ishlab chiqarish hajmi yiliga 1200 donani, kvota kiritilgandan keyin esa - yiliga 1400 donani tashkil etadi. Erkin

savdo sharoitida avtomobillarning ichki iste'moli yiliga 2200 donani, kvota kiritilgandan keyin esa - yiliga 2000 donani tashkil etadi. quyidagilarni aniqlang:

- a) kvota kiritilishidan ishlab chiqaruvchilarning yutug'i;
- b) bu chora natijasidagi iste'molchilarning yo'qotishlari;
- v) davlat byudjeti daromadlarining oshishi;
- g) millat farovonligining sof yo'qotishlari.

* * *

2. Mamlakat bolalar trikotajini eksport qiladi. Jahon bozorida uning bir dona uchun narxi 3 AQSh dollari. Mamlakatdagi bu mahsulotga bo'lgan taklif egri chizig'i quyidagi tenglama bilan belgilanadi $S = 800 + 200P$, talab egri chizig'ining ko'rinishi esa quyidagicha: $D = 700 - 200P$. Mamlakat hukumati eksport tarifini kiritgandan keyin ichki narx bir donaga 2 AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport tarifining quyidagilarga ta'sirini aniqlang:

- a) iste'molchilarning farovonligiga;
- b) trikotaj ishlab chiqaruvchilarning daromadlariga (yo'qotishlariga), eksport hajmiga;
- v) davlat byudjetining daromadlariga;
- g) millat farovonligiga.

* * *

3. Mamlakat hukumati shakarga 10% li import tarif kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Jahon bozorida uning narxi bir tonna uchun 200 AQSh dollari. Mamlakatdagi bu mahsulotga bo'lgan taklif erkin savdo sharoitida 6 mln. t., tarif borligida esa - 8 mln. tonnani tashkil etadi. Ichki iste'mol hajmi erkin savdo sharoitida - 22 mln. tonna, tarif borligida esa - 20 mln. tonnani tashkil etadi. Shunga muvofiq import hajmi erkin savdo sharoitida - 16 mln. tonna, tarif borligida - 12 mln. tonnani tashkil etadi. Import tarifi kiritilishining oqibatlarini aniqlang:

- a) Iste'molchilarning yo'qotishlarini;

- b) milliy ishlab chiqaruvchilarning yutuqlarini;
- v) davlat byudjetining daromadlarini;
- g) millat farovonligining sof yo'qotishlarini.

* * *

4. Rossiya engil sport samolyotlaridan bir yil ichida 70 dona ishlab chiqaradi. Ulardan 20 donasini iste'mol qilib, 50 donasini eksport qiladi. Erkin savdo sharoitida bir samolyotning narxi - 6000 AQSh dollari. Tarmoqni rag'batlantirish maqsadida hukumat har bir samolyot qiymatidan 15% miqdorida subsidiya ajratadi. Natijada samolyotning ichki narxi 6450 AQSh dollarigacha oshib, eksport narxi esa 5550 AQSh dollarigacha pasayadi. Eksport hajmi 70 dona samolyotgacha ko'payadi. Subsidiyaning kiritilishi ichki ishlab chiqarish, eksport va iste'mol hajmlariga hamda byudjet daromadlariga qanday ta'sir etganligini aniqlang.

* * *

5. Jadvalda berilgan ma'lumot asosida firmalardan qaysi biri demping qo'llashda ayblanishi mumkinligini aniqlang:

	Tovar birligining tannarxi, AQSh dollarida	Ichki narx, AQSh dollarida	Eksport narxi, AQSh dollarida
Firma A	100	100	110
Firma B	100	120	110
Firma S	100	90	105

XVIII BOB. TO'LOV BALANSI

18.1. To'lov balansining mohiyati va tarkibi

To'lov balans — ma'lum davr mobaynida mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo o'rtasida bo'ladigan bitimlar statistik qayd qilingan xujjatdir. U mamlakatning iqtisodiy aloqalarini aniq-lo'nda ifodalab pul-kredit, valyuta, byudjet-soliq, xalqaro savdo siyosatining hamda davlat qarzini boshqarish yo'nalishlarini tanlash uchun indikator vazifasini bajaradi.

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chiqariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin. Tushum faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to'lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni, u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'lishi mumkin.

4-jadval

Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi (raqamlar shartli)

Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksportdan tushumlar	Debet (-) yoki import uchun xarajatlar	Sof kredit yoki sof debet
Joriy operatsiyalar hisobi			
Tovarlar	+185	-260	-75
Tashqi savdo balansining qoldig'i			-75
Xizmatlar	+85	-97	-12
Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va divedentlar)	+28	-20	+8

Transfert ko'rinishidagi pul o'tkazmalari	+10	-18	-8
Joriy operatsiyalar bo'yicha balansning qoldig'i			-87
Kapital harakatining hisobi			
Investitsiyalar va boshqa o'rta va uzoq muddatli kapital	+150	-87	+63
Kapital harakati balansining qoldig'i			+63
Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning qoldig'i			-24
Rasmiy zahiralar (oltin, XFVdagi zahiralar)	+24		+24

To'lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar. Shunga ko'ra to'lov balansi strukturasi ham ikki qismdan iborat:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital harakati hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «qo'shish», import esa «ayirish» ishoralari bilan belgilanadi. Ya'ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki mahsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga mahsulotlar olib kelish - import esa debet sifatida ko'rsatiladi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valyuta ishlab topib, mamlakat valyuta zaxirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valyuta chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat valyuta zaxirasini kamaytiradi.

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig'i deb yuritiladi. Misolimizda bu balans salbiydir, ya'ni, mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko'ra ko'proq olib keladi (-75).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi – bu, xizmatlar (transport, sug'urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar) eksporti va importidir. Misolimizda tovarlar bilan bo'lgan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan bo'lgan operatsiyalarda ham

mamlakat xorijiy xizmatlarni ko'proq oladi ya'ni, masalan, mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan mamlakatga keladigan sayyohlarga nisbatan ko'proq boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hajmi xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug'urta kompaniyalari ko'rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriroq va h.k. Bu operatsiyalar bo'yicha ham balans salbiy qoldiqqa ega (-12).

Investitsiyalardan daromadlar, foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar xorijga qo'yilgan milliy kapital uchun chet to'lovlari bo'yicha tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapital uchun to'lanadigan to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad musbat bo'ladi (+8).

Transfert ko'rinishida pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to'lanidigan nafaqalarni, muhojirlarning xorijdagi o'z qarindoshlariga pul o'tkazmalari, turli ko'rinishdagi hukumat yordamlarini o'z ichiga oladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganiga nisbatan yuqori, ya'ni, operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (-8).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yig'indisi joriy operatsiyalar balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-87). Bu esa mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifdan ortiq bo'lishini anglatadi. Boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadga ega.

18.2.Makroiqtisodiy modellarda to'lov balansining ahamiyati

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig'i quyidagicha beriladi:

$$X - M = X_n = Y - (S + I + G)$$

bu erda: X - eksport; M – import, X_n - sof eksport, $S + I + G$ - absorbttsiya

Joriy operatsiyalar balansida kamomad bo'lgan sharoitda, mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlaridan kam bo'ladi va uni tashqaridan qarz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali qoplashi mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi.

Sof xorijiy aktivlar (CXA) – bu milliy rezidentlar tomonidan egallab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o'rtasidagi farqni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida taqchillik bo'lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valyutalarni sarf qilishga nisbatan ko'proq olib keladi.

Mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha balansi ijobiy qoldiqqa ega bo'lsa, unda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ortiqcha xorijiy valyuta yuzaga keladi.

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni, kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi.

Mamlakatda ma'lum bir vaqtda moddiy va moliyaviy aktivlarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalariga kapital harakati hisobi deyiladi. Kapital harakati hisobi balansida korxonalar, er, uy-joylar, qimmatnarx qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshqa aktivlarni olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, xorijiy valyuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valyuta tushumi ko'payadi (+150). Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debet ko'rinishida aks ettiriladi (-87). Kapital harakati balansining qoldig'i – bu, uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+63).

Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko'rsatiladi.

Kapital xarakati balansi = Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar –
Xorijiy aktivlarni sotib olishga kilingan xarajatlar.

Xorijga aktivlarni sotish valyuta zaxirasini ko'paytirsam, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valyuta tushumlarini ko'rsatadi. Kapital harakati hisobining ijobiy qoldig'i mamlakatda kapital ko'payishini bildirsa, uning salbiy qoldig'i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'liq. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-87) katta qismi (+63) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi va aksincha, agar to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha musbat qoldiqqa ega bo'lsa, kapital harakati hisobi balans bo'yicha manfiy qoldiqqa yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Shunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-biri bilan tenglashib boradi.

To'lov balansi qoldig'i = Joriy operatsiyalar + Kapital harakati balansi

Biroq, amalda to'lov balansining bu qismida ham ko'pincha kamomad yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Barcha mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy zaxiralar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega bo'lib, bu zaxiralar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati bo'yicha balans nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (-24)ni tashkil etadi va rasmiy zaxiralardan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

Rasmiy zaxiralarning qisqarishi (+) kamomad miqdorini ifodalaydi, rasmiy zaxiralarning o'sishi (-) esa to'lov balansining musbat qoldig'i miqdorini ko'rsatadi. Natijada uning barcha uch bo'limi summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifini va unga mamlakatda bo'lgan talab tengligini bildiradi.

Joriy operatsiyalar hisobi bilan kapital harakati hisobining o'zaro aloqalarini umumlashtirsak, uning makroiqtisodiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}
 Y &= C + I + G + X_n; \\
 \downarrow \\
 Y - C - G &= C + I + G + X_n - (C + G); \\
 \downarrow \\
 S_n &= I + X_n, \text{ bu erda: } S_n - \text{milliy jamg'arish} \\
 \downarrow
 \end{aligned}$$

$(I - S) + X_n = 0$ (Markaziy bank aralashmagan sharoitda egiluvchan valyuta kursi rejimida)

$(I - S)$ miqdori ichki investitsiyalarning ichki jamg'armalardan ortiqchaligini ko'rsatadi va kapital harakati hisobi qoldig'ini bildiradi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ko'ra joriy operatsiyalar va kapital harakati hisoblari bir-biriga tenglashadi:

$$X - M \text{ (tashqi balans)} = X_n = -(I - S) = S - I \text{ (ichki balans)}$$

Bu shuni bildiradiki, to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadi kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi.

$$\begin{cases}
 X_n < 0 \Rightarrow X - M < 0 \Rightarrow X < M; \\
 I - S > 0 \Rightarrow I > S \Rightarrow \text{xorijdan kapital kiritilishi.}
 \end{cases}$$

Agarda investitsiyalar (I) milliy jamg'armalardan ko'p bo'lsa ($I > S$), ortiqcha investitsiyalar xorijdan olinadigan qarz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu qarzlar mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport qilishga nisbatan ko'proq import qilinishini taminlaydi ($M > X$). Ya'ni, sof eksport manfiy qoldiqqa ($X_n < 0$) ega bo'ladi. Mamlakat xalqaro jarayonga qarzdor bo'lib qatnashadi.

Joriy operatsiyalar musbat qoldiqqa ega bo'lganda, ortiqcha mablag'lardan xorijga investitsiya qilishda yoki xorijdan ko'chmas mulk sotib olishda foydalaniladi.

$$\begin{cases}
 X_n > 0 \Rightarrow X - M > 0 \Rightarrow X > M; \\
 I - S < 0 \Rightarrow I < S \Rightarrow \text{xorijga kapital chikarilishi}
 \end{cases}$$

Davlatlar rasmiy zaxiralar va qarzlar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta davriy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumining o'sishi hamda to'lov balansi kamomadi tugatiladi.

To'lov balansini tuzish tamoyillariga ko'ra u doimo balanslashgan bo'ladi. Manfiy yoki musbat qoldiq tushunchasi faqatgina to'lov balansining alohida qismlariga ta'luqli. Shu bilan birga to'lov balans qoldig'ining milliy iqtisodiyotga ta'siri amaliyotda bir xil tavsiflanmaydi. Iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib to'lov balansining musbat qoldig'i ham, manfiy qoldig'i ham ijobiy yoki salbiy deb baholanishi mumkin.

To'lov balans holatiga baho berishda savdo balans qoldig'i, joriy operatsiyalar balans qoldig'i, kapital harakati va moliya balans qoldig'i hamda rasmiy hisob kitoblar balans qoldig'i alohida tahlil etiladi.

Savdo balans qoldig'i o'zgarishiga baho berishda bu o'zgarishlar qaysi omillar ta'sirida ro'y berganligi e'tiborga olinadi. Masalan, manfiy qoldiq eksportning qisqarishi hisobiga ro'y bergan bo'lsa, bu holat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi pasayganligidan dalolat berishi va negativ hodisa deb qaralishi mumkin. Lekin bu holat mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi ko'payishi hisobiga importning o'sishi natijasida ro'y bergan bo'lsa, milliy iqtisodiyotning zaiflashishidan dalolat deb qaralmaydi.

Joriy operatsiyalar hisobi balans, odatda, to'lov balansining ma'lumot beruvchi qoldig'i deb qaraladi. Chunki bu qoldiq bilan birga ichki iqtisodiy siyosatni cheklovchi tashqi iqtisodiy omil hisoblanishi bilan birga mamlakatning moliyalashtirishga ehtiyojini belgilaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansining musbat qoldig'i mamlakat boshqa davlatlarga nisbatan netto kreditor ekanligidan dalolat beradi, va aksincha, manfiy qoldig'i (ya'ni joriy operatsiyalar hisobi balansining taqchilligi) mamlakat tovarlar va xizmatlarning netto-importi uchun to'lovlarni amalga oshirishga va transfert to'lovlarini moliyalashtirishga majbur bo'lgan sof qarzdorga aylanganligini anglatadi. Amalda joriy to'lov balansining musbat qoldig'iga ega mamlakat milliy jamg'armalarning bir qismini kapitalni ichki jamg'arishga yo'naltirish o'rniga mamlakat tashqarisiga investitsiyalaydi.

Kapital harakati va moliya balans qoldig'i joriy operatsiyalar balans holatining oynadagi aksi hisoblanadi, chunki real resurslar oqimini ko'rsatadi.

Shuningdek joriy operatsiyalar balansi holati qisman «Sof xatolar va chetda qoldirishlar» moddasiga to'g'ri keladi.

Rasmiy hisob kitoblar balansi qoldig'i to'lov balansi umumiy (yakuniy) qoldig'ining kengroq tarqalgan nomlanishi bo'lib norezidentlarning mamlakatga nisbatan likvidli talablarning ko'payishi (kamayishi) yoki xorijiy likvidli aktivlardagi mamlakat rasmiy zahiralarining ko'payishidan (kamayishidan) dalolat beradi. Bu qoldiq «Zahira aktivlari» moddasidan boshqa barcha moddalarni qamrab oladi.

Qayd qililgan valyuta kurslari sharoitida (1979 yilga qadar) rasmiy hisob kitoblar holatiga katta ahamiyat berilar edi, chunki uning taqchilligi mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlarining ortganligini (yoki zahiralarining kamayganligini) anglatgani holda valyuta kursining barqarorligiga tahdid solar edi. Suzib yuruvchi valyuta kursining kiritilishi bilan umumiy to'lov balansi tushunchasini yo'qqa chiqardi, rasmiy zahiralar dinamikasi esa nafaqat rasmiy hisob kitoblar qoldig'ining oqibati, balki to'lov balansining boshqa bo'limlarida hisobga olingan oqimlaridagi o'zgarishlarning sababchisi ham bo'lib qoldi.

18.3.To'lov balansi muvozanatini ta'minlash

To'lov balansi muvozanatini ta'minlash uchun joriy hisoblar va kapital harakati qoldiqlari bir-birini aynan qoplashi zarur bo'ladi. Markaziy Bank valyuta intervensiyasini amalga oshirish chorasini ko'rmasa, va rasmiy valyuta zahiralari miqdorini o'zgartirmasa to'lov balansi hisoblarini valyuta kursining erkin tebranishi hisobiga o'zaro tartibga solish amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda kapital oqib kelishi sababli milliy valyutaning qimmatlashuvi, kapital chiqib ketishi sababli esa uning arzonlashuvi ro'y beradi. Valyuta kursining erkin tebranishi to'lov balansining joriy va kapital hisoblarini avtomatik ravishda mutanosiblashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Erkin tebranuvchi valyuta kursi tarafdorlari ta'kidlashicha, to'lov balansining ortiqchaligi yoki taqchilligi bunday vaziyatlarda tez orada barham topadi. Valyuta

kurslarining erkin harakati to'lov balansining ortiqchaligi yoki kamomadini yo'qotadi.

Erkin tebranuvchi valyuta kurslari to'lov balansini tenglashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, kamchilikliklardan holi emas. Chunonchi, bunday valyuta birinchidan, savdoning noaniqligi va qisqarishiga, ikkinchidan, savdo sharoitining yomonlashishiga, uchinchidan, nobarqarorlikka va boshqalarga olib keladi.

Agar Markaziy Bank rasmiy valyuta zahiralarini vositasida chet el valyutasini sotib yoki sotib olib valyuta kursini erkin tebranishiga barham bersa valyuta kursining erkin tebranishi vositasida to'lov balansini tartibga solish zarurati yo'qoladi.

Bunda to'lov balansi taqchilligi Markaziy Bank rasmiy zahiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Bunday vaziyatda ichki bozorda chet el valyutasi taklifi oshadi. Qayd etilgan operatsiya eksportga xos bo'lib kreditda plyus belgisi bilan (Markaziy Bankda xorijiy valyuta zaxirasi kamayishiga qaramasdan) hisobga olinadi. Ushbu tadbir natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi kamayadi, uning almashinuv kursi nisbatan ko'tariladi va bu investitsiyalar hajmiga hamda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansining aktiv-(musbat) qoldig'i esa Markaziy bankning rasmiy valyuta zahiralarini miqdorining ortishiga olib keladi. Bunda Markaziy bank valyuta zaxiralarini to'ldirish uchun chet el valyutasini sotib olishi natijasida ichki bozorda milliy valyuta taklifi nisbatan oshadi, uning almashinuv kursi kamayadi, bu hol esa iqtisodiyotga (investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sishga) rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan bunday operatsiyalar rasmiy rezervlar bilan bo'ladigan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar natijasida to'lov balansi qoldig'i nolga tenglashishi kerak.

To'lov balansining aktiv qoldig'i yoki taqchilligi mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlariga qarab turlicha narxlanishi mumkin.

Valyutasi xalqaro hisob-kitoblarda, hamda boshqa mamlakatlar zahira valyutasi sifatida foydalaniladigan mamlakatlar uchun to'lov balansini taqchil bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bunday mamlakatlar to'lov balansini uzoq muddat makroiqtisodiy tartibga solmasligi mumkin.

Milliy valyutasi jahon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy Banklaridan rasmiy valyuta zaxirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi. Mamlakat savdo siyosati va valyuta almashinuv kursini o'zgartirishi choralarini qo'llab chet ellardagi o'z xarajatlarini kamaytiradi, yoki eksportdan o'z daromadlarini oshiradi.

Bunday tartibga solish natijasida narxlar umumiy darajasining oshishi oqibatida aholi turmush darajasining pasayishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandlilikning pasayishi ro'y berishi mumkin.

Valyuta rezervlari sarflab bo'lganligi, ilgari olingan chet el kreditlarini qaytarilish grafiklari buzilganligi tufayli bunday kreditlarni yana olish imkoniyatlari yo'qqa chiqqanligi sababli mamlakat to'lov balansini taqchilligining uzoq vaqt davom etishi to'lov balansini inqirozi deyiladi.

To'lov balansini inqirozini hal etishning yagona yo'li makroiqtisodiy tartibga solish hisoblanadi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valyutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Bankni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Chunki rasmiy valyuta zaxiralari bir vaqtning o'zida ham to'lov balansini taqchilligini ham ichki spekulyativ talabni qondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Qisqa istiqbolda to'lov balansini qoldig'i jamg'arish va investitsiyalar hajmlarini belgilovchi omillar (masalan byudjet soliq siyosati, foiz stavkalari) ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Agar mamlakatda rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yurgizilsa bu hol milliy jamg'armalarning pasayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha taqchillikka, kapital harakat hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Cheklovchi fiskal siyosat milliy jamg'armalar hajmlarini oshiradi, bu o'z navbatida kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Jahon foiz stavkalarining oshishi kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa erishishga olib keladi. Jahon foiz stavkalarining pasayishi esa aks natijalarga olib keladi.

Tayanch so'z va iboralar: to'lov balansi, joriy operatsiyalar balansi, tashqi savdo balansi, kapital harakati balansi, to'lov balansi muvozanati

Nazorat savollari

1. To'lov balansining mohiyatini tushuntiring.
2. To'lov balansi qanday ko'rinishga ega?
3. Joriy operatsiyalar hisobi qanday moddalarni o'z ichiga oladi?
4. Tashqi savdo balansi qoldig'i qanday aniqlanadi?
5. Kapital harakati balansida nimalar aks etadi?
6. To'lov balansi muvozanatini qanday ta'minlash mumkin?
7. Rasmiy rezervlar o'zida nimani aks ettiradi va u qanday vaziyatlarda ishlatiladi?

Mavzuga oid masalalar

1. Mamlakatning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Tovarlar eksporti	29700 mln. so'm
Tovarlar importi	31700 mln. so'm
Chet elga qo'yilgan investitsiyalardan olingan foiz shakllaridagi daromadlar	4600 mln. so'm
Chet ellik investorlarga foiz to'lovlari	2400 mln. so'm
Turizmdan olingan mamlakatning daromatlari	2700 mln. so'm

Mamlakatning bir tomonli transfert to'lovlari	3500 mln. so'm
Mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi	5200 mln. so'm
Chet el turizmiga mamlakat rezidentlarining xarajatlari	2800 mln. so'm
Mamlakatga kapitalning oqib kelishi	8600 mln. so'm

Bu ma'lumotlar asosida joriy hisobning qoldig'ini aniqlang.

* * *

2. Mamlakatning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Tovarlar eksporti	29700 mln. so'm
Tovarlar importi	31700 mln. so'm
Chet elga qo'yilgan investitsiyalardan olingan foiz shakllaridagi daromadlar	4600 mln. so'm
Chet ellik investorlarga foiz to'lovlari	2400 mln. so'm
Turizmdan olingan mamlakatning daromadlari	2700 mln. so'm
Mamlakatning bir tomonli transfert to'lovlari	3500 mln. so'm
Mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi	5200 mln. so'm
Chet el turizmiga mamlakat rezidentlarining xarajatlari	2800 mln. so'm
Mamlakatga kapitalning oqib kelishi	8600 mln. so'm

Bu ma'lumotlar asosida kapital harakati hisobining qoldig'ini aniqlang.

* * *

3. Mamlakatning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Tovarlar eksporti	29700 mln. so'm
Tovarlar importi	31700 mln. so'm
Chet elga qo'yilgan investitsiyalardan olingan foiz shakllaridagi daromadlar	4600 mln. so'm
Chet ellik investorlarga foiz to'lovlari	2400 mln. so'm
Turizmdan olingan mamlakatning daromadlari	2700 mln. so'm
Mamlakatning bir tomonli transfert to'lovlari	3500 mln. so'm
Mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi	5200 mln. so'm
Chet el turizmiga mamlakat rezidentlarining xarajatlari	2800 mln. so'm
Mamlakatga kapitalning oqib kelishi	8600 mln. so'm

Bu ma'lumotlar asosida to'lov balansining qoldig'ini aniqlang.

* * *

4. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan.

Tovarlar eksporti	19650\$
Tovarlar importi	21650\$
Mamlakat fuqarolari horijiy investitsiyalardan oladigan daromad	3700\$
Mamlakatning horijiy investorlarga foizlar ko'rinishida to'laydigan daromadi	1400\$
Xizmatlar eksporti	1900\$
Xizmatlar importi	1750\$
Mamlakatning bir tomonlama transfertlari	2400\$
Kapitalni mamlakatdan chiqib ketishi	4200\$
Kapitalning mamlakatga kirib kelishi	6600\$

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, joriy schyotlar qoldig'ini, kapital harakati schyotlari qoldig'ini va mamlakat to'lov balansi qoldig'ini hisoblang.

Mamlakat rasmiy valyuta rezervlari miqdori qanday o'zgaradi.

XIX BOB. VALYUTA KURSI

19.1. Valyuta kursining mohiyati va uni aniqlash


Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash orqali olib borilishi tufayli xar qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valyuta narxini yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, valyuta kursi — bu, bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan narxidir. Valyuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi. O' to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining narxi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AQSh dollari 2200 so'mga, 1 Rossiya rubli 80 so'mga teng va hakoza. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,000454 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning narxi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda valyuta kurslarini qabul qilishning bir-biridan farq qiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniklanadigan egiluvchan yoki erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat'iy belgilangan valyuta kursi tizimi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi. Masalan, bir o'zbek so'mining AQSh dollariga almashishini qarab chiqamiz. Milliy valyuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (34- chizma).

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi D to'g'ri chizig'ida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, amerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu o'z navbatida ularning amerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi.



34- chizma. Xorijiy valyuta bozori

Dollarning taklifi (S) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni, dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u o'z navbatida o'zbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo'ladi.

O'zbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AQSh dollarini valyuta bozoriga olib chiqadi, chunki, o'zbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni so'mga almashtirishadi. Dollarga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning so'mdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning so'mdagi qiymati oshsa, so'm qiymatining pasayganligini yoki qadsizlanganligini ko'rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so'mdagi qiymati pasaysa, so'm qiymatining oshganligini yoki so'mning qimmatlashganligini ko'rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valyuta sarf qilish milliy valyutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so'm qadsizlansa, dollar so'mga nisbatan qimmatlashadi.

Qayd etilgan valyuta kursi - bu, xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi.

Kayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari ta'kidlaydilarki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan borliq bo'lgan taxlika va noaniqlikni kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatliligi o'zaro aloqalar jarayondagi ikki sharoitga bog'liq:

-zaxiralarning mavjudligi;

-o'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish darajasi, o'z-o'zicha kurslar o'rtasidagi nisbatlarga ta'sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. Chet el valyutalariga talab va taklifga, demak, valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va xam tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

19.2. Valyuta kurslarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz:

1. Iste'molchi dididagi o'zgarishlar. Iste'molchilar didining boshqa mamlakat buyumlariga nisbatan o'zgarishi bu mamlakat valyutasiga talab yoki taklifni hamda uning valyuta kursini o'zgartiradi.

2. Daromadlardagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakatda milliy daromadning o'sishi, boshqa mamlakatdagi bu ko'rsatkichning o'sishidan ustun bo'lsa, bunda uning valyuta kursi pasayadi. Mamlakatning importi uning daromadi darajasiga to'g'ri bog'liqlikka ega.

3. Narxdagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakat, masalan, AQSh ichki narx darajasi tez o'ssa, boshqa mamlakat, masalan, Buyuk Britaniyada bu daraja o'zgarishsiz qolsa, bunda amerikalik iste'molchi nisbatan arzon Britaniya tovarini izlaydi va shu bilan funtga talabni oshiradi. Aksincha, britaniyaliklar Amerika tovarlarini sotib olishga kam moyil bo'ladi va bu funt taklifini pasaytiradi. Funtga talab o'sishi va taklif pasayishining bu uyg'unlashuvi dollarlarning qadirsizlanishini keltirib chiqaradi.

4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz qilamiz, AQSh inflyatsiyani quvib o'tish maqsadida «qimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur'atini hisobga olib o'zgartirilgan (korrektirovka qilingan) foiz stavkalari AQShda boshqa mamlakatlar, masalan, Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSh moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Spekulyatsiya. Faraz qilamiz, AQSh iktisodiyotida quyidagilar kutiladi:

- a) Britaniyanikiga qaraganda tez o'sa boshlaydi;
- b) Britaniyanikiga qaraganda ancha kuchli inflyatsiyaga duch keladi;
- v) Britaniyaga qaraganda ancha past real foiz stavkalariga ega bo'ladi.

Bu tahmin (prognoz)lar kelajakda dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishidan darak beradi. Demak, dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

19.3. Nominal va real valyuta kurslari

Nominal va real valyuta kurslari o'zaro farqlanadi. Nominal valyuta kursi valyutalarning almashinuv kursi deyiladi. Yuqorida biz aynan nominal valyuta kursi haqida fikr yuritdik.

Real valyuta kursi ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy bahosidir.

Real valyuta kursi bir mamlakat tovarlari boshqa mamlakat tovarlariga almashishi mumkin bo'lgan nisbatni ko'rsatadi, shu tufayli u savdo sharoiti ham deb yuritiladi.

Nominal va real valyuta kurslari o'rtasidagi nisbat quyidagi ko'rinishga ega.

$$E_r = E_n \times R_d / R_t$$

Bu erda : E_r — real valyuta kursi;

E_n - nominal valyuta kursi ;

R_d - milliy valyutada ko'rsatilgan ichki baholar darajasi (indeksi);

R_t - xorijiy valyutada ko'rsatilgan chet eldagi baholar darajasi (indeksi).

Har ikkala mamlakatdagi narxlar darajasi (indeksi) bir xil bazis yilga nisbatan berilgan. Real valyuta kursining ko'tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to'g'risida guvohlik beradi. Umuman valyuta kursi tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarning mamlakatlararo harakatini o'ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib, uni o'zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta'sir qiladi. Bu ta'sirni shunday vaziyat misolida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, o'zbek so'mining kursi 1000 Turkiya lirasiga nisbatan 30 so'mdan 32 so'mgacha pasaygan bo'lsin, ya'ni, so'm Turkiya lirasiga nisbatan arzonlashgan va aksincha, lira so'mga nisbatan qimmatlashgan bo'lsin. Bunday holatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 720 so'mlik qiymatga ega bo'lgan tovar Turkiya bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 100 ming ($720/7,2 \times 1000$) emas, balki 72 ming lira turadi ($720/10 \times 1000$). Natijada, tovar-ning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo'lgan talab oshadi, eksport rag'batlantiriladi. Biroq milliy valyutani Turkiyaga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi. Turkiyada ishlab chiqarilgan 2000 liralik mahsulot endi o'zbek so'mi kursining pasayishi va Turkiya lirasiga kursining qimmatlashuvi natijasida o'zbek

bozorida 14,4 so'm (2000x7,2/ 1000) emas, balki 20 so'm (2000x10/1000) turadi. Ko'rinib turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashadi va shu sababli uni olib kelish qisqarib boradi, va aksincha, o'zbek so'mi kursi oshib borishi bilan Turkiyadan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

Xarid qobiliyati pariteti kontsepsiyasiga ko'ra valyuta kursi doimo turli mamlakatlarda narxlar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi. Ya'ni:


$$r = \frac{Pd}{Pt}$$

Bu erda: r — xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxi;

R_d — ichki narxlar darajasi;

R_t — chet eldagi narxlar darajasi.

Biz xarid qobiliyati pariteti kontsepsiyasini real almashtirish kursi modelida ifodalashimiz mumkin. Xalqaro olib sotarlarning tez harakatlari shuni ko'rsatayotiki, sof eksport har qanday o'zgarishlar natijasida tez o'zgaradi. Milliy tovarlar narxining chet tovarlarga nisbatan kamayishi yoki boshqacha aytganda real almashtirish kurslarining pasayishi, olib sotarlarni o'z mamlakatidan tovarlarni sotib olib, chetga sotishga undaydi, yoki, aksincha. Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursining pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xom ashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayishi eksport qilinadigan tovarlar narxsining o'sishiga olib keladi va bu ularning raqobatga layoqatliligidagi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muxim ob'ekti xisoblanadi.



35- chizma. Xarid qobiliyati pariteti

Shunday qilib, sof eksport egri chizig'i real almashtirish kursiga nisbatan yanada qiyalashadi. Ya'ni, turli mamlakatlar valyutalarining xarid qobiliyatini tenglashtiradi, real almashtirish kurslaridagi har qanday o'zgarishlar esa sof eksport miqdorida o'zgarishlarga olib keladi.

Valyuta almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan usulini qo'llash orqali almashuv kursining maqsadli koridor doirasida bo'lishi ta'minlanadi. Shu sababdan eksportni rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSh dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Natijada 2013 yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 11,0 foizga pasayib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, bir AQSh dollari 2202,20 so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining 95 foizga yaqini AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.


Shunga muvofiq, so'mning AQSh dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSh dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning

AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

Olib borilgan valyuta siyosati ta'sirida so'mning almashuv kursi evroga nisbatan 15,7 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 14,2 foizga, funt sterlingga nisbatan 13,1 foizga pasayib, eksportni rag'batlantirishga xizmat qildi.

19.4. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri

Real valyuta kurslari jamg'arma va sarmoyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi vertikal to'g'ri chiziq va sof eksport miqdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chiziq kesishgan nuqtada tenglikka erishadi. Ushbu nuqtada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valyuta taklifi, xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta talabi bilan kesishadi. Bu shuni bildiradiki, real valyuta kursi kapital bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha milliy valyuta taklifini joriy operatsiyalar uchun unga bo'lgan talabni tenglashtiradi




36- chizma. Real almashtirish kursidagi muvozanat

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliqlarning kamayishi) milliy jamg'armalarni kamaytiradi va (S-I) egri chiziq chapga suriladi. Bu siljishlar xorijiy investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.

Valyuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada, milliy mahsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan qimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga va importning oshishiga olib ksladi. Oqibatda joriy operatsiyalar hisobida taqchillik paydo bo'ladi.


Agarda, soliqlarning kamayishi investitsiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamg'armalar hajmi o'zgarmasa ham (S-I) egri chizig'i yana chapga siljiydi.



37-chizma. Valyuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashgirish kursiga ta'siri


Investitsion soliq kreditlari ushbu mamlakatga investitsiyalar kiritishni xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va to'lov balansida taqchillikni keltirib chiqaradi.

Chet mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi byudjet-soliq siyosati bu mamlakatlardagi jamg'armalar darajasini kamayishiga olib keladi. Bu esa xalqaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasini kamaytiradi. Bunday vaziyatlarda xorijga sarmoya qo'yish uchun taklif qilinayotgan milliy valyuta ko'payadi va (S-I) egri chizig'i o'ngga suriladi (38- chizma). Natijada muvozanatli real almashtirish kursi pasayadi, milliy mahsulotlar arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.



38- chizma. Byudjet - soliq siyosatining real almashtirish kurslariga ta'siri

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi va bu hol grafikda $X_n(E)_1$ egri chizig'ini $X_n(E)_2$ holatiga siljishi sifatida namoyon bo'ladi (39- chizma).



39- chizma. Importdagi o'zgarishlarning eksportga ta'siri

Natijada muvozanatli real valyuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Shunday qilib, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan proteksionistik savdo siyosati joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi Ammo, u muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa ham V nuqtadagi eksport va import hajmi A

nuqtadagi eksport va import hajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy qilish ichki narxlar darajasi (R_d)ning oshishiga olib keladi.

Shuning uchun ham uzoq davrda nominal valyuta kursi (E_n) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valyuta kursi E_2 nuqtada barqarorlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan E_1 nuqtaga qadar pasaymaydi. Narxlar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valyuta kursining pasayishi sotib olish qobiliyati paritetini tiklaydi.

Tayanch so'z va iboralar: erkin konvertirlanadigan valyuta, qisman konvertirlanadigan valyuta, konvertirlanmaydigan valyuta, valyuta kursi, kotirovkalash, qayd etilgan valyuta kursi, real valyuta kursi, erkin tebranuvchi valyuta kursi

Nazorat savollari

1. Valyuta kursi deganda nima tushuniladi va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Qayd etilgan valyuta kursining mohiyati qanday?
3. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi qanday tartibda o'rnatiladi?
4. Valyuta kotirovkasining qanday ko'rinishlari mavjud?
5. Nominal valyuta kursining mazmuni qanday?
6. Real valyuta kursi qanday aniqlanadi?

Mavzuga oid masalalar

1. Faraz qilaylik, evroga nisbatan dollarning kursi 1:3, ya'ni bir xil tovar AQShda masalan 400 dollar tursa, Germaniyada bu tovarning narxi 1200 evro bo'ladi. Agar dollarning kursi sun'iy ravishda 1:2 gacha pasaysa, qaysi eksport qiluvchi qo'shimcha daromad oladi (AQSh yoki Germaniya)? Bu qo'shimcha daromadning hajmini aniqlang.

2. Faraz qilaylik, B mamlakatning hukumati o'z valyuta kursini A mamlakatning milliy valyutaga nisbatan barqarorlashtirib olmoqchi. A mamlakatdagi inflyatsiyaning sur'ati yiliga 5%ni tashkil etadi.

a) B mamlakatda bu maqsadga erishish uchun inflyatsiya sur'ati qanday bo'lish kerak?

b) Uzoq muddatli davrda pul aylanish tezligi o'zgarmasa va ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 3%ni tashkil etsa, valyuta kursini barqarorlashtirish uchun pul massasining o'sish sur'atlari qanday bo'lishi kerak?

* * *

3. Quyidagi jadvalda Evroga bo'lgan talab va taklif keltirilgan:

Evroning bahosi (dollarda)	Evroga bo'lgan talab (mln. evro)	Evroning taklifi (mln. evro)
1,5	200	300
1,4	220	270
1,3	240	240
1,2	260	210
1,1	280	180

a) Dollar va Evroning barqaror valyuta kurslarini aniqlang.

b) Valyuta bozorida dollar va Evro qanday hajmda sotib olinadi?

4. Faraz qilaylik, personal kompyuterning narxi AQShda 1000 dollar, Germaniyada esa 4000 evro. Agar nominal ayirboshlash kursi 1 evro = 1,4 dollarni tashkil etsa, unda Amerika dollarning real ayirboshlash kursi qanday bo'ladi.

* * *

5. Xarid qobiliyati paritetiga ko'ra agar Frantsiyada televizor 500 evro va Xitoyda 2000 yuanga sotilsa, unda nominal ayirboshlash kursi - bir birlik evroning yuan miqdorida ifodalangan bahosi - qanday bo'ladi?

* * *

6. O'zbekistonda bir yillik inflyatsiya sur'ati -7%, Qozog'istonda nominal foiz stavkasi 16%ni, bir yillik inflyatsiya sur'ati esa 12%ni tashkil etadi.

Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kapital quyilishi bo'lmashligi uchun O'zbekistonda nominal foiz stavkasi nechaga teng bo'lishi kerak.

* * *

7. B mamlakatning hukumati o'z valyutaning ayirboshlash kursini A mamlakatning milliy valyutasiga nisbatan barqarorlashtirib olmoqchi. A mamlakatdagi bir yillik inflyatsiya sur'ati 5%ni tashkil etadi.

a) bu maqsadga erishish uchun B mamlakatdagi inflyatsiya sur'ati qanday bo'lishi kerak?

b) muomaladagi pul aylanish tezligi o'zgarmasa va real ishlab chiqarish hajmining bir yillik o'sish sur'ati 3%ni tashkil etsa, uzoq muddatli davrda valyuta kursini barqarorlashtirish uchun pul massasining o'sish sur'ati qanday bo'lishi kerak?

XX BOB. OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT

20.1.Ochiq iqtisodiyotning mohiyati va uning ko'rinishlari

Yopiq iqtisodiyot aslida real holatda kuzatilmaydi. Aslida hech qaysi davlat boshqa davlat bilan iqtisodiy aloqa qilmasdan mustaqil ravishda mavjud bo'la olmaydi va rivojlana olmaydi. Bu tushuncha fakat ochiq iqtisodiyot bilan solishtirib o'rganish uchun foydalaniladi.

Mamlakatning qanchalik darajada ochiq iqtisodiyotga moslashganlik yoki ochiq iqtisodiyotdan foydalanish darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

$$\text{Import kvotasi} = \text{Import} / \text{YaIM} * 100 \%$$

Import kvotasi - import hajmining mamlakatning YaIMida tutgan ulushini ifodalaydi .

$$\text{Eksport kvotasi} = \text{Eksport} / \text{YaIM} * 100\%$$

Eksport kvotasi - mamlakat YaIMida eksport salohiyati qanchalik darajada ekanligini ifodalaydi .

$$\text{Tashqi savdo aylanmasi kvotasi} = \text{tashqi savdo aylanmasi} / \text{YaIM} * 100\%$$

Ochiq iqtisodiyot kichik va katta ochiq iqtisodiyot kabi ko'rinishlarda bo'lib, ularning bir qancha farqli jihatlari mavjud. Xususan, ular real foiz stavkasining qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Kichik ochiq iqtisodiyotda r real foiz stavkasi barcha davlatlarda iqtisodiyotga bir xil darajada ta'sir ko'rsatadi yoki hamma davlatlarning bir biriga bo'lgan ta'siri bir xil darajada, ya'ni sezilarli darajada farq qilmaydi, deb qaraladi.

Katta ochiq iqtisodiy modelida bu masala boshqacharoq hal qilinadi, ya'ni tashqi savdo aylanmasi bo'yicha katta ta'sirga ega bo'lgan davlatlarning ushbu real foiz stavkasini o'rnatilishida va boshqa davlatlarga nisbatan bu foiz stavkaning ta'sirini aniqlashda katta ta'sirga ega ekanliklari alohida hisobga olinadi.

$$Y=C+I+G+X_n$$

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ta'sir etuvchi omillar eksport va importning (hajmi hisobida) o'zaro farqi , ya'ni N_x hisoblanadi .

$$\text{Sof eksport} \quad X_n = X - M$$

bu erda :

X - eksport hajmi ;

M - import hajmi .

Dunyoning ko'pgina davlatlarida sof eksport hajmi asosiy ayniyatning boshqa ko'rsatkichlariga nisbatan YaIM hajmiga kam ta'sir ko'rsatadi (o'rtacha 3-4 % YaIMdagi ulushi).

Asosiy ayniyatni o'zgartiramiz :

$$Y - C - G = I + X_n$$

Ifodaning chap tomoni $Y - C - G$ milliy jamg'armani beradi, ya'ni uy xo'jaligi iste'moli va davlat talabini kondirilgandan so'ng qolgan qismi hisoblanadi Shuning uchun $Y - C - G$ ifodani S bilan belgilab olamiz .

$$S = Y - C - G .$$

Endi ifoda quyidagicha tus oladi : $S = I + X_n$ yoki $(I - S) + X_n = 0$

$(I - S) + X_n = 0$ bu ayniyat milliy hisoblarning asosiy ayniyati bo'lib, xalqaro oqimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi, ya'ni oldindan belgilangan jamg'arilgan kapital $(I - S)$ va xalqaro oqimlar X_n .

$(I - S) + X_n = 0$ tenglamadagi har bir ishtirokchi ko'rsatkich o'ziga xos nomlanishga ega va o'ziga xos funktsiyaga ega .

$(I - S)$ to'lov balansida kapital harakati schyoti deb ataladi va ichki investitsiyaning ichki jamg'arishdan ortiqqligini ifodalaydi.

Investitsiya mamlakatdagi jamg'armalarni oshirishi mumkin, ya'ni tadbirkorlar investitsion loyihalarni chet el kapitali ishtiroki orqali moliyalashtiradilar. Bundan kelib chiqadiki kapital harakati schyoti tashqi qarzlar orqali moliyalashtiriladi, ya'ni ichki kapital jamg'armasi hajmiga teng bo'ladi.

X_n ni biz sof eksport deb atagan edik. $(I - S) + X_n = 0$ tenglamada esa X_n o'zida chetdan sof eksport evaziga olingan summani ifodalaydi va to'lov balansining joriy schyot yoki joriy operatsiyalar schyoti deb yuritiladi.

$(I - S) + X_n = 0$ ayniyatiga kaytadigan bo'lsak agar ayniyatda $(I - S)$ miqdor musbat (ijobiy) qoldiqqa ega bo'lsa, X_n manfiy (salbiy) bo'ladi degani. Bu o'z -

o'zidan kapital harakati schyotini musbat qoldiqqa ega ekanligini va to'lov balansi schyotida defitsit bo'lganligini anglatadi, bu shuni anglatadiki, biz jahon bozoridan eksportga qaraganda importni ko'proq qilishimiz kerak.

Aksincha agar $(I - S)$ manfiy qiymatga ega bo'lsa X_n musbat bo'ladi. Unda kapital harakati schyotida defitsit va joriy operatsiyalar schyotida musbat (ijobiy) saldoga ega bo'lamiz. Bunda mamlakat jahon bozorida kreditor rolini bajaradi va importga qaraganda eksportni ko'payganini anglatadi.

Agarda milliy jamg'arish mamlakat ichidagi jamg'armadan ortib ketsa, ortgan qismi chet elga investitsiya qilinishi mumkin.

Agarda aksincha mamlakat ichidagi investitsiya milliy jamg'armadan ortib kets, unda bizning mamlakatga investitsiya qilinishi kerak bo'ladi.

20.2. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli

Kichik ochiq iqtisodiyot - bu milliy iqtisodiyot bo'lib, unda jahon bozoriga nisbatan juda kam ulushni ifodalovchi, xalqaro kreditlash, qarzdorlikni inkor etmaydi, lekin butunjaxon real foiz stavkasi r^* ni inkor etadi. Chunki kichik ochiq iqtisodiyotda foiz stavkasi r butunjaxon real foiz stavkasi r^* ga teng deb olinadi ($r = r^*$).

Kichik ochiq iqtisodiyot modeli uchta asosiy funktsiya (faraz, tahmin)dan iborat :

- 1) Mahsulot chiqarish hajmi

$$Y = \hat{y} = f(K, N)$$

Shunday qilib ishlab chiqarish yoki daromad miqdori berilgan faktorlarga bog'liq bo'ladi, ya'ni kapital - K va ishchi kuchi - N .

- 2) Iste'mol funktsiyasi

$$C = C_y(Y - T)$$

Iste'mol hajmi ixtiyordagi daromadga bog'liq bo'ladi.

- 3) Investitsiya funktsiyasi

$$I = (I_r)$$

Investitsiya miqdori foiz stavkasi (r) ga teskari bog'liqlikda bo'ladi.

$(I - S) + X_n = 0$ ayniyatni $X_n = S - I$ ko'rinishida yozib olamiz, ya'ni

$$X_n = (Y - C - G) - I$$

Xalqaro foiz stavkasi r^* va yuqoridagi formula asosida quyidagi formulani yozamiz

$$X_n = ((Y - C_y(Y - T) - G)) - I(r^*) = S - I(r^*)$$

Ushbu tenglama bizga jamg'arma S , investitsiya I , kapital harakati schyoti $(I - S)$, to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti X_n ga qanday omillar ta'sir etishini ko'rsatadi.

Biz investitsiya hajmi (I) ga foiz stavkasi teskari ta'sir etishini bilamiz. Jamg'arma miqdori (S) ushbu holatda ikki omilga bog'liq bo'ladi: soliqlar T va davlat harajatlari G . Aynan davlat harajatlari va soliqlardan davlat o'zining fiskal (byudjet - fiskal) siyosatida foydalanadi.


Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, kapital harakati schyoti $(I - S)$ va joriy operatsiyalar schyoti (X_n) fiskal siyosatga va xalqaro foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi.

Grafikdagi muvozanat yopiq iqtisodiyotda foiz stavkasi r orqali o'rnatiladi. I va S chiziqlari r foiz stavkasi AB chiziqdagi kesishgan joyi muvozanat hisoblanadi.

Kichik yopiq iqtisodiyot modelida mamlakat foiz stavkasi r bilan xalqaro foiz stavkasi r^* teng bo'ladi. Bizning misolimizda esa $r^* > r$ ifoda o'rinli. Muvozanat buziladi $S > I$. Bunday vaziyat joriy operatsiyalar schyotida X_n ijobiy saldo xisoblanadi.

Kapital xarakati schyoti $(S - I)$ va joriy operatsiyalar schyoti (X_n) dastlab nolli saldoga ega bo'ladi: bu shuni anglatadiki, iqtisodiyotning tashqi savdosi balanslashgan, ya'ni import va eksport teng bo'ladi. Mamlakatga kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan kapital oqimlari ham teng bo'lib nolli saldoga ega bo'ladi. Ushbu holatga istisno qilib biz bozor farovonligi holatini ko'rishimiz mumkin. Chunki iqtisodiy siyosat fiskal siyosat orqali amalga oshiriladi. Boshqa tomondan esa fiskal siyosat mamlakat ichida o'tkaziladi va milliy hisoblanadi. Shu bilan

birga unga chet mamlakatlar o'tkazayotgan fiskal siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi .




40-chizma. Jamg'arma va investitsiyalarning foiz stavkasiga bog'liqligi

Birinchi bo'lib milliy fiskal siyosatning o'tkazilishini ta'sirlarini ko'rib chiqaylik. Iqtisodiyotni dastlabki shakllanishida tashqi savdo ($X_n = 0$) balanslashgan va kapital harakati schyoti nolli qoldiqqa ega bo'ladi, deylik. Unda foiz stavkasi r ni o'zgartirmasdan turib davlat xarajatlarini oshishi (G) va soliqlarni (T) kamayishi milliy jamg'armani (S) S_1 dan S_2 gacha pasayishiga olib keladi (AV chiziq). Jamg'armaning S_1 dan S_2 gacha kamayishi kapital harakati schyotining ($I - S > 0$) musbat (ijobiy) qoldiqqa ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga mamlakatga chetdan tashqi investitsiyalarning oqib kirishini taqazo etadi. Kapital xarakati schyotining ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi joriy operatsiyalar schyoti ($-X_n$) ning manfiy (salbiy) qoldiqqa ega bo'lishi orqali muvozanatlashadi.

Agar davlatning dastlabki balanslashgan iqtisodiyotida $X_n = 0$ va $(I-S) = 0$ bo'lsa va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borilsa, bu davlatda kapital harakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.


$$(I - S > 0, X_n < 0)$$

Schyotining $(I-S>0)$ (ijobiy) musbat qoldig'iga ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga mamlakatga chet el investitsiyalarini kirib kelishini taqozo etadi. Kapital harakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi joriy operatsiyalar schyoti $(-X_n)$ ning manfiy (salbiy) qoldig'i orqali muvozanatlashadi. Agar davlatning dastlabki balanslashgan iqtisodiyoti $X_n = 0$ va $I-S=0$ bo'lsa va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borilsa, bu davlatda kapital harakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi. $(I-S>0, X_n < 0)$




41-chizma. Davlatning rag'batlantiruvchi fiskal siyosati

Agar chet mamlakatlar rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borsalar, G-davlat xarajatlari ortib, T-soliqlar qisqarsa, bu xalqaro foiz stavkasi r^* ning oshishiga olib keladi.



42-chizma. Chet mamlakatlar rag'batlantiruvchi fiskal siyosati

Chet mamlakatlarning rag'batlantiruvchi fiskal siyosati xalqaro foiz stavkasi r^* ning oshishiga va capital harakati schyotining ($I-S < 0$) defitsiti va joriy operatsiyalar schyoti ($X_n < 0$) ning ijobiy saldoga ega bo'lishiga olib keladi. Ichki investitsiya mamlakat tomonidan rag'batlantirilgan holatda, rejalashtirilgan investitsiya egri chizig'i o'ngga va yuqoriga harakat qiladi, boshqa ishtirokchilari foiz stavkasi r va jamg'arma hajmi S o'zgarmaydi. Bunday modellashtirishning natijasi sifatida kapital harakati schyoti ($I-S > 0$) ijobiy qoldiqqa va joriy operatsiyalar schyoti ($-X_n$) qisqarishi kuzatiladi. Investitsiya chizig'ining o'ngga va yuqoriga siljishi kapital harakati schyoti ($I-S > 0$) ning ijobiy saldoga va joriy operatsiyalar schyoti ($-X_n$) ning manfiy saldos yoki joriy to'lov balansida defitsitni keltirib chiqaradi.



43-chizma. Mamlakatdagi investitsiya taklifi hajmining o'zgarishi.

Demak, xalqaro tovarlar orqali to'lov balansining joriy schyoti (X_n)da o'z aksini topadi va bu kapital harakati schyoti (I-S) da o'z aksini topgan kapital jamg'armalar oqimi bilan juda mustahkam bog'liq hisoblanadi.

Shunday qilib, davlat investitsiyani rag'batlantiruvchi siyosat olib borsa, bu kapital harakati schyoti (I-S) ijobiy qoldiqqa va to'lov balansining joriy operatsiyalar kamomadga (X_n) ega bo'linadi.

Aksincha, agar davlat jamg'armalarni rag'batlantiruvchi siyosat olib borsa, yuqoridagi holatning aksini kuzatish mumkin.

$$I-S < 0 \text{ va } X_n > 0$$

Agar biz kichik ochiq iqtisodiyot modelini yopiq iqtisodiyot bilan taqqoslaydigan bo'lsak, yopiq iqtisodiyotda jamg'arma darajasi juda past bo'ladi va bu o'z navbatida investitsiya hajmining ham past darajada bo'lishiga va kelajakda kapital zaxiralarining kamayishi oqibatda iste'mol (C) ning kamayishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalarning past darajada bo'lishi tashqi qarzning ortishiga olib keladi va bu ham kelajakdagi iste'mol (C) ni kamaytirishga olib keladi.

Yuqoridagi aytilganlardan foydalanib, biz mamlakatdagi chet el taklifining funktsiyasini ko'rishimiz mumkin:

$$X = E_a + mX$$

Bu erda :

X – eksport hajmi

E_a - avtonom eksport hajmi, ya'ni mustaqil real ayirboshlash kursi asosidagi (X)

m – eksportga moyillik.

Import bo'yicha keyns funktsiyasi:

$$M = Z_a + Z_y Y$$

M – import

Z_a - ixtiyordagi daromaddan importga taklif

Z_y - import iste'moliga bo'lgan moyillik

Shunday qoida bor $Z_y < C_y$

Bozor farovonligi uchun jami taklif funktsiyasiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni ko'rib chiqdik.

Kelib chiqadigan jami taklif funktsiyasi

$$y^D = C + I + G + X_n$$

Izohlashning keynscha modeli daromadga asosan quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$y^D = C(y) + I(p, i) + G(y) + X_n(E, y)$$

Izohlashning keynscha modeli foiz stavkasi bo'yicha esa quyidagicha bo'ladi:

$$y^D = C(i) + I(y, i) + G(i) + X_n(e, i)$$

20.3. Ichki va tashqi muvozanat modeli

Tadqiqotlar ko'rsatishicha odatda yalpi talabni tartibga solish orqali faqat ichki muvozanatga erishish uchun yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat ba'zi hollardagina bir vaqtda tashqi muvozanatga olib keladi. Xuddi shunday holat tashqi muvozanatni asoslangan holda tartibga solishda ham yuzaga keladi. Shu sababdan ham ichki va tashqi balansga bir vaqtda erishish juda qiyin hal etiladigan masala hisoblanadi.

Ushbu muammoni tahlil qilish davomida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning fundamental tamoyili aniqlangan. Bu tamoyil Ya. Tinbergen tomonidan yaratilgan bo'lib, unda ikki bir-biriga bog'liq bo'lmagan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy siyosatning hech bo'lmaganda ikkita bir-biriga bog'liq bo'lmagan vositalari talab etiladi. Muvofiq ravishda iqtisodiy siyosatning uchta maqsadiga erishish uchun uchta vositasidan foydalanish zarur va hakozo. Ikki maqsad sifatida ichki balans, ya'ni ishsizlikning tabiiy darajasi va past yoki nollik

inflyatsiya bo'lganda ishlab chiqarishning hohlangan hajmiga erishish hamda tashqi balans, ya'ni to'lov yoki savdo balansi nolga teng bo'lishiga erishish qatnashadi.

R. Mandell ishlarida pul-kredit va byudjet-soliq siyosati vositalaridan foydalanish, bu model kapitalning xalqaro harakatini ko'zda tutgan sharoitda bir vaqtda ichki va tashqi muvozanatga erishishga imkon beradi.

Ichki va tashqi muvozanat muammosining nazariy jihati ko'pincha IS-LM ning bir muncha modifikatsiyalangan modeliga to'lov balansi muvozanatini ko'rsatuvchi VR chizig'ini qo'shib qo'llash sifatida qaraladi. Bu model valyuta kursining turli tartiblari uchun quriladi. Mukammal kapital harakatiga ega bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyot Mandell-Fleming modeli yordamida tahlil qilinishi mumkin. R. Mandell va M.Fleming o'z tadqiqotlarida pul-kredit va byudjet-soliq siyosati ichki va tashqi muvozanatga turli nisbiy ta'sir o'tkazishini aniqladilar. Ular qayd etilgan ayirboshlash kursida monetar siyosat to'lov balansini tartibga solishda, fiskal siyosat esa ichki muvozanatni tartibga solishda nisbiy afzallikka ega ekanligini ko'rsatdilar. Bu qoidani Mandellning samarali bozorni sinflash tamoyili deb atashadi.

Suzib yuruvchi ayirboshlash kursida ichki va tashqi muvozanatni ta'minlashda pul-kredit hamda byudjet-soliq siyosatining natijalari aksincha bo'ladi, ya'ni byudjet-soliq siyosati tashqi savdo va to'lov balansini tartibga solish orqali tashqi balansni, pul-kredit siyosati esa ichki balansni ta'minlashda nisbiy afzallikka ega bo'ladi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash modeli XVF qarzlarini hisobiga barqarorlashtirish siyosati va tarkibiy qayta qurishlarni o'tkazgan ko'plab mamlakatlar tomonidan qo'llanilgan. XVF dasturlarida bu modelda uchta maqsad va uchta vosita qo'llanilgan. Bu modelga muvofiq, byudjet-soliq siyosati ichki balans bilan, real valyuta kursi joriy operatsiyalar hisobi bilan, pul-kredit siyosati xorijiy valyutaning zahiralarini hajmi bilan bog'langan. Bu modelda tashqi balans

maqsadi ikki tarkibiy qismga, ya'ni joriy operatsiyalar hisobi va valyuta zahirolari darajasiga ajratiladi. Bunda quyidagi uchta qoida qo'llaniladi:

- 1) agar inflyatsiya juda yuqori bo'lsa, byudjet taqchilligini kamaytirish kerak;
- 2) agar joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi yuqori bo'lsa, real ayirboshlash kursini pasaytirish zarur;
- 3) agar xorijiy valyuta zahirolari juda kam yoki juda tez qisqarayotgan bo'lsa, pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish lozim.

Tayanch so'z va iboralar: sof eksport, import kvotasi, eksport kvotasi, milliy jamg'arma, chet el investitsiyalari.

Nazorat savollari

1. Milliy jamg'arma nima va u qanday aniqlanadi ?
2. Joriy operatsiyalar va kapital xarakati bilan bog'liq operatsiyalarni qanday tushunasiz?
3. Yopiq iqtisodiyot mavjud bo'la oladimi , bo'lmasa nima uchun ?
4. Mamlakat ichidagi va xalqaro foiz stavkalarining bir biridan farqi qanday va ochiq iqtisodiyot modellariga ta'siri qanday ?
5. Ochiq iqtisodiyot modellariga mamlakat fiskal siyosatining ta'siri qanday?

Mavzuga oid masalalar

1. Ochiq iqtisodiyotdagi sof investitsiyalarning miqdori - 1750 mln. so'm, uy xo'jaliklarning jamg'armalari - 1625 mln. so'm, davlat byudjetining ortiqchaligi - 425 mln. so'm. Bu ma'lumotlar asosida tovar va xizmatlarning sof eksportini aniqlang.

* * *

2. Ochiq iqtisodiyotdagi iste'mol funksiyasi: $C = 50 + 0,8(Y - T)$, investitsiya funksiyasi: $I = 160 - 5r$. Iste'mol xarajatlari - 850 mln. so'm, real foiz stavkasi 6% ga teng, davlat jamg'armalari 20 mln. so'm. Kapital harakati hisobining qoldig'ini (yoki ortiqligini) aniqlang.

* * *

3. Kichik darajali ochiq iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Milliy daromad - 1000 mlrd. doll., iste'mol xarajatlari - 700 mlrd. doll., davlat xaridlari - 150 mlrd. doll., investitsiya funksiyasi - $I = 250 - 10r$. Jahon foiz stavkasi - 5%. Mamlakatning sof eksportini aniqlang.

* * *

4. Kichik darajali ochiq iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Iste'mol xarajatlari - 500 mlrd. doll., davlat xaridlari - 75 mlrd. doll., investitsiya funksiyasi: $I = 200 - 8r$. Jahon foiz stavkasi - 5%, sof eksport : -25 mlrd. doll. Mamlakatning milliy daromadini aniqlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir– T.: «O'zbekiston» 2008, 80 b.
3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning amaliy maqsadimiz. T.: «O'zbekiston» 2009, 46 b.
4. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston» NMIU, 2009, 56 b.
5. Karimov I. A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” T.: «O'zbekiston» 2010, 56 b.
6. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” T.: «O'zbekiston» 2011, 46 b.
7. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” - T.: «O'zbekiston» 2012, 46 b
8. Karimov I. A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.
9. Karimov I. A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar.

Darslik va o'quv adabiyotlari

10. Axmedov D.Q., Ishmuxammedov A.E., Jumaev Q.X., Jumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. Darslik.- T.: TDIU, 2004, 240 b.

11. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. М.: Дело и Сервис, 2001.

12. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика: Торговая политика. Инфляция и безработица. Социальная политика. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.

13. Гайгер А., Линвуд Т. Макроэкономическая теория и переходная экономика. Пер. с англ. М.: ИНФРА-М, 1996.

14. Галперин В.М., Гребенников П.И., Леусский А.И., Тарасевич Л.С. Макроэкономика: Учебник. СПб.: СПбГУЭФ, 1997.

15. Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. М.: МГУ, 1997.

16. Yo'ldoshev Z., Qosimov M.S. Makroiqtisodiyot asoslari. T.: «O'qituvchi», 1994

17. Менкю Н.Г. Макроэкономика. М.: МГУ, 1997.

18. Селищев А.С. Макроэкономика: Открытая экономика. Причины экономического роста. Динамика рынков. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.

19. Xodjaev R., Maxmudov B., Xadjaev X., Ergashev E., Egamberdiev R. Mikro va makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma.- T.: "ILM ZIYO" 2012, 324 b.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2012, 282 b.

21. Abulkasimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. – T. "Akademiya", 2011, 92 b.

22. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligining rasmiy ma'lumotlari

23. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari

24. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник / Т.А. Агапова, С.Ф. Серегина. - М.: МФПУ Синергия, 2013. - 560 с.
25. Аносова, А.В. Макроэкономика. Сборник задач и упражнений: Практическое пособие / А.В. Аносова, И.А. Ким; Под ред. С.Ф. Серегина. - М.: Юрайт, 2013. - 154 с.
26. Аносова, А.В. Макроэкономика. Сборник задач и упражнений: Практическое пособие / А.В. Аносова, И.А. Ким; Под ред. С.Ф. Серегина. - М.: Юрайт, 2013. - 154 с.
27. Аносова, А.В. Макроэкономика: Учебник для бакалавров / А.В. Аносова, И.А. Ким, С.Ф. Серегина. - М.: Юрайт, 2013. - 521 с.
28. Антипина, О.Н. Макроэкономика: Учебник / О.Н. Антипина, Н.А. Миклашевская. - М.: ДиС, 2012. - 496 с.
29. Базылев, Н.И. Курс макроэкономики в таблицах и схемах: Учебное пособие / Н.И. Базылев, М.Н. Базылева. - Мн.: Совр. школа, 2010. - 144 с.
30. Басовский, Л.Е. Макроэкономика: Учебник / Л.Е. Басовский, Е.Н. Басовская. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 202 с.
31. Бродский, Б.Е. Макроэкономика: Продвинутый уровень: Курс лекций / Б.Е. Бродский. - М.: Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2012. - 336 с.
32. Васильев, В.П. Макроэкономика: Учебное пособие / В.П. Васильев, Ю.А. Холоденко. - М.: ДиС, 2012. - 208 с.
33. Воронин, А.П. Макроэкономика. Экономическая теория в вопросах и ответах: учебное пособие / А.П. Воронин. - М.: Экономика, 2010. - 190 с.
34. Воронин, А.Ю. Макроэкономика - I: Учебное пособие / А.Ю. Воронин. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 110 с.
35. Гатаулин, А.М. Экономическая теория: микро- и макроэкономика: Учебное пособие / А.М. Гатаулин. - М.: ФиС, 2007. - 432 с.
36. Гусейнов, Р.М. Макроэкономика: Учебное пособие для бакалавров / Р.М. Гусейнов, В.А. Семенихина. - М.: Омега-Л, 2014. - 254 с.

37. Даниленко, Л.Н. Экономическая теория: курс лекций по микро- и макроэкономике: Учебное пособие / Л.Н. Даниленко. - М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 576 с.
38. Журавлева, Г.П. Макроэкономика: Учебное пособие / Г.П. Журавлева. - М.: ИЦ РИОР, ИНФРА-М, 2011. - 127 с.
39. Золотарчук, В.В. Макроэкономика: Учебник / В.В. Золотарчук. - М.: ИНФРА-М, 2013. - 608 с.
40. Зороастрова, И.В. Микроэкономика. Макроэкономика: сборник кейсов: Учебное пособие для преподавателей / А.В. Аносова, И.В. Зороастрова, А.А. Касаткина; Под ред. А.В. Аносова, С.Ф. Серегина. - М.: Маркет ДС, 2010. - 384 с.
41. Ким, И.А. Сборник заданий по макроэкономике: Учебное пособие для студентов вузов и учащихся 10-11 классов (профильный уровень образования) / И.А. Ким. - М.: Вита-Пр., 2013. - 144 с.
42. Лихтенштейн, В.Е. Информационные технологии в бизнесе. Практикум: применение системы Decision в микро- и макроэкономике: Учебное пособие / В.Е. Лихтенштейн. - М.: ФиС, 2008. - 512 с.
43. Мэнкью, Н.Г. Макроэкономика / Н.Г. Мэнкью, М. Тейлор; Пер. с англ. А.П. Смольский. - СПб.: Питер, 2013. - 560 с.
44. Никифоров, А.А. Макроэкономика: Научные школы, концепции, экономическая политика: Учебник / А.А. Никифоров. - М.: ДиС, 2010. - 624 с.
45. Овчинников, Г.П. Макроэкономика: Учебник / Г.П. Овчинников, Е.Б. Яковлева. - СПб.: Бизнес-Пресса, 2012. - 368 с.
46. Розанова, Н.М. Макроэкономика: Учебник для магистров / Н.М. Розанова. - М.: Юрайт, 2013. - 813 с.
47. Скрыбин, О.О. Макроэкономика: Учебное пособие / О.О. Скрыбин, А.Ю. Анисимов, Ю.Ю. Костюхин. - М.: МИСиС, 2013. - 88 с.
48. Сорокин, А.В. Теория общественного богатства. Основания микро- и макроэкономики: учебник / А.В. Сорокин. - М.: Экономика, 2009. - 597 с.

49. Тарасевич, Л.С. Макроэкономика: Учебник для бакалавров / Л.С. Тарасевич, П.И. Гребенников, А.И. Леусский. - М.: Юрайт, 2012. - 686 с.

50. Тарасевич, Л.С. Макроэкономика: Учебник для бакалавров / Л.С. Тарасевич, П.И. Гребенников, А.И. Леусский. - М.: Юрайт, 2013. - 686 с.

Internet saytlari:

www.lex.uz. (O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunchiligi)

www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati)

www.press-service.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati)

www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

www.tdiu.uz (Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti)

www.tfi.uz (Toshkent moliya instituti)